

**KARIMOV FARXOD ERKINOVICH,
MIRZOXIDOV ULUG‘BEK RASUL O‘G‘LI**

**LIVAN RESPUBLIKASINING SIYOSIY
INQIROZI:
IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI**

monografiya

**“ZAMON POLIGRAF”
NASHRIYOTI
TOSHKENT-2025**

UDK: 314.152.2

KBK46.2.1

K14,M16

Karimov F.E., Mirzoxidov U.R “Livan Respublikasining siyosiy inqirozi: ijtimoiy-iqtisodiy omillari” Monografiya. “Zamon poligraf” nashriyoti Toshkent; O‘zXIA, 2025. – 116 b.

Taqrizchilar:

siyosiy fanlar doktori, professor M.Muhammadsidiqov
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent B.Berdiyev

Mazkur monografiya Livan Respublikasida yuz berayotgan siyosiy inqirozni ilmiy o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu inqirozning ijtimoiy-iqtisodiy omillarini tahlil qilishga qaratilgan. Monografiyada Livan siyosiy tizimidagi muammolar, iqtisodiy izchillikning yetishmasligi, etnik va diniy nizolar hamda ijtimoiy muammolar ko‘rib chiqiladi. Livandagi inqirozning tarixiy ildizlari, xalqaro ta’sirlar va ichki siyosiy raqobatlar tahlil qilinadi. Livanning ijtimoiy qatlamlarining iqtisodiy holati, ishsizlik darajasi va jamoaviy norozilikning siyosiy barqarorlikka ta’siri yoritiladi.

Shuningdek, Livanda davom etayotgan ijtimoiy ziddiyatlar va mojarolar sharoitida Hizbulloh harakatining kuchayishi va uning siyosiy ta’siri tahlil qilinib, Hizbullohnning ijtimoiy va harbiy resurslari, siyosiy maydondagi roli ko‘rib chiqilgan. Livandagi ijtimoiy ziddiyatlar kuchayib borayotgan sharoitda Hizbulloh ta’sirining oshishi va uning siyosiy kelajagi uchun oqibatlar yoritilgan. Ushbu ish, siyosiy inqirozning kompleks tushunchasini taqdim etib, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi omillarni ham inobatga oladi.

Monografiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2025-yil 30-yanvardagi 5-son Kengashida tasdiqlangan

ISBN: 978-9910-8662-6-5

© Farxod Karimov, Ulug‘bek Mirzoxidov 2025
© “Zamon poligraf” nashriyoti, 2025
© O‘zXIA, 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. LIVAN DAVLATCHILIGI SHAKLLANISHI	
TARIXI	6
1-§. Zamonaviy Yaqin Sharq davlatlari shakllanishida ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari.....	6
2-§. Livan davlatchiligi va o‘ziga xos siyosiy tizimning shakllanishi tarixi	28
<i>1991-yildan keyingi Livan davlatchiligidagi inqirozlar</i>	<i>47</i>
II BOB. ZAMONAVIY LIVANDA IJTIMOIIY ZIDDIYATLAR SHAROITIDA HIZBULLOH OMILINING KUCHAYISHI	50
1-§. Livanda ijtimoiy ziddiyatlar va fuqarolar urushi	50
2-§. Livan davlat boshqaruvi tizimida Hizbulloh harakatining o‘rni	63
III BOB. LIVAN IQTISODIY-SIYOSIY INQIROZINING MINTAQAVIY VA GEOSIYOSIY JIHATLARI VA ISTIQBOLLARI.....	81
1-§. XXI asrda Livandagi etno-konfessional munosabatlar va iqtisodiy-siyosiy inqiroz.....	81
2-§. Livanning geosiyosiy pozitsiyasi, o‘tmish, bugun va kelajak	92
XULOSA	103
GLOSSARIY	105
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:	108

KIRISH

Yaqin Sharq mintaqasining muhim davlatlaridan biri – Livan Respublikasi, o‘zining boy tarixi va ko‘p millatli jamiyati bilan tanilgan, hozirgi kunda chuqur siyosiy inqiroz ichida qolmoqda. Bu inqiroz nafaqat siyosiy tizimdagi muammolarni, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu monografiya, Livan Respublikasining siyosiy inqirozini o‘rganish orqali, uning ildizlarini chuqur tahlil qilish va muammolarni kompleks ravishda yoritishga qaratilgan.

Livan siyosiy tizimi, 1943-yilda mustaqillikka erishganidan so‘ng, konfessionalizm asosida shakllangan. Bu tizimda turli diniy guruhlar o‘rtasida siyosiy hokimiyat taqsimoti amalga oshirilgan. Ushbu model, dastlab, millatlararo barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan o‘zining zaifliklarini namoyon qildi. Konfessionalizmning institutsionalizatsiyasi, mamlakatni tashqi ta’sirlar va ichki nizolarga qarshi zaiflashtirdi, natijada doimiy siyosiy va iqtisodiy inqirozlar avj oldi.

Bugungi kunda Livanda mavjud siyosiy inqiroz, asosan, davlat institutlarining sustligi, korrupsiya, va siyosiy elita o‘rtasidagi nizolar bilan bog‘liq. Bu inqiroz, ayniqsa, 2019-yilda boshlanib, pandemiya va Bayrut portidagi portlash bilan yanada chuqurlashdi. Ushbu jarayonlar, nafaqat siyosiy tizimning zaif tomonlarini ochib berdi, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ham ahamiyatini oshirdi. Aholining ko‘pchilik qismi, iqtisodiy qiyinchiliklar va qashshoqlikdan aziyat chekmoqda, bu esa ommaviy noroziliklarni kuchaytirdi.

Monografiyada, siyosiy inqirozning ijtimoiy-iqtisodiy ildizlari o‘rganiladi. Xususan, Livan iqtisodiyotining strukturasidagi muammolar, bank tizimining inqirozi, energetika sohasidagi qiyinchiliklar va infratuzilma muammolari tahlil qilinadi. Bularning barchasi, Livanning ijtimoiy to‘qimalarini yeb bitirayotgan, keng tarqalgan qashshoqlik va ishsizlik muammolarini kuchaytirmoqda.

Bundan tashqari, monografiyada Livan Respublikasining siyosiy tizimidagi korrupsiya muammosi ham alohida o‘rin oladi. Korrupsiya, davlatning barcha darajalarida keng tarqalgan bo‘lib, bu nafaqat iqtisodiy resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga, balki fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchini ham susaytirdi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatda siyosiy norozilik va beqarorlikning kuchayishiga olib kelmoqda.

Livan Respublikasining siyosiy inqirozini chuqurroq tushunish uchun, bu muammoni tarixiy, siyosiy va iqtisodiy kontekstda ko‘rib chiqish lozim. Shuning uchun, ushbu monografiya, Livan tarixi va uning siyosiy tizimining evolyutsiyasini ham o‘rganadi. Tarixiy kontekstda Livanning siyosiy tizimi qanday shakllangani, qanday ichki va tashqi omillar unga ta‘sir qilgani va bu omillar bugungi inqirozga qanday ta‘sir qilayotgani tahlil qilinadi.

Shuningdek, monografiyada xalqaro hamjamiyatning Livandagi vaziyatga munosabati ham o‘rganiladi. Livan Respublikasining strategik geografik joylashuvi va uning mintaqaviy siyosatdagi roli, xalqaro kuchlar tomonidan diqqat bilan kuzatilmoqda. Ushbu omillar, Livandagi ichki siyosiy jarayonlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda, va bu omillar, siyosiy inqirozni hal etish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Monografiyaning maqsadi – Livan Respublikasidagi siyosiy inqirozning ijtimoiy-iqtisodiy omillarini har tomonlama tahlil qilish va ushbu inqirozni hal qilish yo‘llarini qidirishdir. Bu tahlillar, nafaqat Livan uchun, balki mintaqadagi boshqa davlatlar uchun ham ahamiyatli bo‘lishi mumkin. Chunki Livan tajribasi, boshqa ko‘p millatli va ko‘p dinli davlatlar uchun balki saboq bo‘lishi mumkin.

I BOB. LIVAN DAVLATCHILIGI SHAKLLANISHI TARIXI

1-§. Zamonaviy Yaqin Sharq davlatlari shakllanishida ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari

Yaqin Sharq mintaqasi dunyoning eng qadimgi va tarixiy jihatdan eng muhim hududlaridan biridir. Bu hududda turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar va dinlar rivojlangan, shuningdek, zamonaviy davlatlarning shakllanishi davomida turli ijtimoiy o‘zgarishlar yuzaga kelgan. Yaqin Sharq davlatlari shakllanishining ijtimoiy jihatlarini tahlil qilish, nafaqat tarixiy, balki zamonaviy siyosiy, iqtisodiy va madaniy holatlar bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayonlarni tushunishga yordam beradi. Ushbu maqolada, Yaqin Sharq davlatlari shakllanishining ijtimoiy jihatlarini ko‘rib chiqiladi va ularning asosiy ijtimoiy va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Yaqin Sharq davlatlarining shakllanishi tarixiy jihatdan murakkab jarayon bo‘lib, asosan, ikki asosiy davrga bo‘linadi: mustamlakachilik va mustaqillikka erishish. Yaqin Sharqning ijtimoiy tuzilmalari o‘zgargan va shu bilan birga, har bir davlat o‘zining o‘ziga xos ijtimoiy tizimini shakllantirgan.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Yaqin Sharqda mustamlakachilik kuchaygan. Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya davlatlar mintaqaning ko‘plab hududlarini mustamlaka qilib olgan. Mustamlakachilik davri ijtimoiy tuzilmalarda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Dastlabki mustamlakachilar o‘zlarining iqtisodiy manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ygan holda, mahalliy aholining madaniy va ijtimoiy tuzilishini bevosita o‘zgartirishga harakat qilishdi. Bu esa milliy va diniy guruhlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirdi va mintaqada millatni tashkil etish jarayonini yanada murakkablashtirdi¹.

¹ Hinnebusch, R. (2003). The International Politics of the Middle East. Manchester University Press. – P. 230-245.

Yaqin Sharqdagi davlatlarning mustaqillikka erishishi 1940-1960-yillarda boshlandi. Bu davrda mintaqaning ko'plab davlatlari mustamlakachilarga qarshi kurashib, o'zining mustaqilligini e'lon qildi. Mustaqil bo'lgan davlatlar o'z ijtimoiy tizimlarini yaratishga kirishdi, biroq bu jarayon murakkab kechdi, chunki har bir mamlakatning o'ziga xos ijtimoiy, madaniy va diniy shart-sharoitlari mavjud edi. Shu bilan birga, mustaqil davlatlar o'z ijtimoiy tizimlarini yaratishda ko'p hollarda eski mustamlakachilik tartiblariga o'xshash tuzilmalarni saqlab qolishdi².

Yaqin Sharqdagi davlatlarning ijtimoiy tuzilmalari, asosan, millat va diniy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslandi. Mintaqada turli millatlar va dinlar mavjud bo'lib, ularning o'rtasidagi aloqalar mintaqaviy siyosat va ijtimoiy tuzilmani shakllantirishda muhim rol o'ynagan.

Mintaqada, asosan, musulmon mamlakatlari bo'lsa-da, bu mintqa juda katta diniy xilma-xillikka ega. Mintaqada musulmonlar, yahudiylar, xristianlar va boshqa diniy guruhlar mavjud. Musulmonlar orasida esa, asosan, sunniy va shialar o'rtasidagi farqlar ko'plab siyosiy va ijtimoiy to'qnashuvlarga sabab bo'lgan. Bu farqlar mintaqadagi siyosiy rejimlar va diniy tashkilotlarning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatgan³.

Mustaqillikka erishgan Yaqin Sharq davlatlarida milliy o'zlik masalasi ham muhim ijtimoiy va siyosiy masala bo'lgan. Mintaqada turli millatlar, masalan, arablar, turklar, kurdlar, forslar va boshqa etnik guruhlar mavjud bo'lib, ularning o'zlikni anglash jarayoni murakkab o'zgarishlarga olib keldi. Milliy o'zlikni anglash va mustaqil davlatlar qurish jarayonida ko'plab ijtimoiy va siyosiy muammolar yuzaga keldi⁴.

² Cleveland, W. L., & Bunton, M. (2016). A History of the Modern Middle East. Westview Press. – P. 110-115

³ Gelvin, J. L. (2015). The Modern Middle East: A History. Oxford University Press. – 300-320 pp.

⁴ Kamrava, M. (2013). The Modern Middle East: A Political History. University of California Press. – 200-215 pp.

Yaqin Sharq davlatlarining ijtimoiy tuzilmasini tushunish, mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy holatlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi. Mintaqadagi ijtimoiy tizim, ko‘pincha, qishloq xo‘jaligiga asoslangan va sinfiy tizimlari asosida qurilgan.

Yaqin Sharq davlatlarida sinfiy tabaqalanish tizimi juda aniq va qat’iy. Bu tizimda yuqori tabaqalar asosiy siyosiy, iqtisodiy va diniy hokimiyatni qo‘lga kiritgan. Bu tabaqalar ko‘pincha shaharlarda yashagan va yer egaligi yoki savdo bilan shug‘ullangan. Pastki tabaqalar esa aksariyat hollarda qishloqlarda yashab, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan. Biroq, XX asrning o‘rtalaridan boshlab, sanoatlashuv va shaharsozlik jarayonlari ijtimoiy tuzilmani o‘zgartirishga olib keldi ⁵.

Yaqin Sharqda ayollarning ijtimoiy o‘rni an’anaviy ravishda cheklangan edi. Ayollar ko‘pincha uyda, oilada qolgan, lekin zamonaviy davrda, ayniqsa, so‘nggi o‘n yilliklarda, ayollar jamiyatning turli sohalarida faol ishtirok etishni boshladilar. Bu o‘zgarishlar jamiyatdagi ayollar huquqlari va roli haqida yangi tafakkur paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi⁶.

Yaqin Sharq davlatlarining ijtimoiy holati, ayniqsa, iqtisodiy notenglik, korrupsiya, ta’lim tizimi va mehnat bozoridagi noxush sharoitlar bilan bog‘liq. Bu muammolar jamiyatda katta ijtimoiy keskinliklarga olib keladi va siyosiy barqarorlikni buzadi. Iqtisodiy notenglik ham Yaqin Sharq davlatlarida keng tarqalgan omildir. Bir tomondan, mintaqada neft va gaz kabi tabiiy resurslar mavjud bo‘lsa-da, bu resurslar adolatli taqsimlanmagan va ko‘plab davlatlarda iqtisodiy farqlarni kuchaytirdi. Qishloq joylarida yashovchi odamlar va shaharlarda yashovchi fuqarolar o‘rtasidagi farqlar, ijtimoiy tuzilmaning davom etayotgan muammolaridan biridir⁷.

⁵ Hourani, A. (2002). *A History of the Arab Peoples*. Harvard University Press. – 125-140 pp.

⁶ Anderson, L. (2013). *The State and Social Change in the Middle East*. Princeton University Press – 75-90 pp.

⁷ Mitchell, R. (1991). *The Society of the Middle East*. Routledge. – 50-65 pp

Yaqin Sharqda ta'lim tizimi ko'plab davlatlarda yomonlashgan. Bu, ayniqsa, qishloq hududlarida o'qish imkoniyatlarining cheklanganligi va ta'lim resurslarining yetishmasligi bilan bog'liq. Ta'lim tizimidagi muammolar ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va kelajak avlod uchun imkoniyatlarni cheklaydi⁸.

So'ngi ma'lumotlarga ko'ra, Yaqin Sharq mintaqasi ayni paytda, 350-360 million musulmonlar (arablar, forslar, turklar, ozariylar, kurdlar va boshqa), 60-70 million xristianlar (armanlar, anatoliyalik greklar, gruzinlar, assurlar, koptlar (qiptiylar), maroniylar va boshqalar), 7 million yahudiylar, 3 million druzlar, 2 million yazidlar va boshqa millat vakillari uchun vatan hisoblanadi⁹.

Mintaqada etnik xilma-xillik bilan birga, diniy va konfessional xilma-xillik ham juda yuqori darajada. Tarixan olib qaraganda ham bu mintaqa Osiyo, Afrika va Yevropani bir-biriga bog'lovchi tijorat yo'llarida joylashgan, yahudiy, xristian va islom dinlari yuzaga kelgan, diniy urushlarning (salibchilar, fotihlar, yahudiylarning vataniga qaytishi kabi) qaynoq manbasi hisoblangan.

Ushbu hududda savdo yo'llarining dengiz orqali yuritilishi Amerika qit'asining kashf etilishi bilan ma'lum bir muddat giosiyosiy jihatdan e'tibordan chetda qoldi. Buni ba'zi tahlilchilar Usmonlilar davlatining kuchayishi bilan mintaqani o'z ichiga olgan, ushbu davlat raqobatga kirisha oladigan kuch topilmagani bilan ham bog'laydilar. Bir qator omillar ta'sirida Yaqin Sharq mintaqasi Birinchi jahon urushiga qadar nisbatan tinch, urushlardan xoli hudud bo'lib turdi. Ammo, birinchi jahon urushi boshlanishi bilan mintaqada notinchlik boshlandi. O'tgan asrning 50-yillarga kelib, bu mintaqada juda katta miqdorda neft va gaz zahiralarining topilishi bilan ushbu hudud yana qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar markaziga aylandi.

⁸ Sayigh, Y. (2007). The Struggle for Palestine. Oxford University Press. – 200-215 pp.

⁹Ближний Восток <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

Mintaqaning bugungi siyosiy xaritasi avvalambor, birinchi jahon urushi natijalari asosida shakllanganini e'tirof etish zarur. Mazkur jarayonda juda ko'plab omillar qatori, etnik va diniy masalalar deyarli hisobga olinmagan yoki bo'lmasa ataylab (doimo bir muammo chiqarib turish uchun) shunday qilingan. Hududdagi tarixan shakllangan mazkur etnik munosabatlar ko'p jihatdan tashqi kuchlar, ya'ni buyuk davlatlarning bevosita yoki bilvosita ta'siri doirasida yangidan jonlandi. Yaqin Sharq mintaqasida "yangi" davlatlarning yuzaga kelish jarayonida ular o'rtasida hududlarning etnik areallarga mos kelmagan ravishda bo'lib olinishi mintaqa aholisining bir nechta davlat chegaralarida etnik ko'pchilik va ozchilik tarkibida shakllanishiga olib keldi.¹⁰

Bugungi kunda Yaqin Sharqdagi etno-siyosiy munosabatlar o'ziga xos murakkab strukturaviy xususiyatga ega. Shunday murakkab va chalkash strukturaga ega etno-siyosiy munosabatlarni tizimlashtirgan holda ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- etnik va millatlararo muammolar;
- diniy va konfessional ziddiyatlar;
- ideologik va yetakchilik uchun kurash va qarama-qarshiliklar;
- yer, suv, hokimiyat va boshqa resurslar uchun kurashlar.

Sanab o'tilgan muammolarning tarkibi chalkash va murakkab bo'lib, mintaqadagi har bir davlatda ular o'ziga xos xarakterga ham egadir.

Yaqin Sharqda etnik va millatlararo mojarolarning kelib chiqishi shubhasiz, milliy-davlatlarning qurilishi va millatchilik harakatlarining kuchayishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, 19 asr oxirlariga kelib madaniy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan mintaqa xalqlarining milliy harakatlari kuchayib bordi. Millatchilik harakatlari G'arb davlatlarining missionerlik harakatlari natijasida faollashdi. Sababi G'arbda 1791 yilgi Fransuz inqilobidan so'ng millatchilik harakatiga etnik struktura

¹⁰ Каримов Ф.Э. Яқин Шарқдаги этносиёсий муаммолар ва минтақавий хавфсизлик масалалари. – Т., 2016. – Б. 82.

va tili jihatdan farqli bo'lgan xalqlarga mustaqillik harakati sifatida qarala boshlangandi. Buning oqibatida dastlab Misrda arab millatchiligi, Usmonli davlatida yosh turklar milliy harakati, arman va kurd millatchiligi, Eronda fors millatchiligi, kurd, ozariy va belujiylarning milliy harakatlari, Arab yarim orolida turli arab qabilalarining ko'tarilishlari faollashdi.

Albatta, tashqi siyosiy kuchlarning asosiy maqsadi Yaqin Sharqdagi millatlarga mustaqillik berish orqali Usmonlilar davlati va Eronni zaiflashtirish, shu bilan mintaqa davlatlarini o'z mustamlakasiga aylantirishdan iborat bo'lgan. Bu maqsad Birinchi jahon urushi bilan amalga oshdi. Yaqin Sharqda bir nechta sun'iy davlatlar vujudga keldi.¹¹

Birinchi jahon urushidan keyin Yaqin Sharqda byurokratik an'anaga ega davlatlar (Misr, Turkiya, Eron) bilan birga kolonial (Suriya, Livan, Iordaniya, Iroq) davlatlar hamda "shahar" davlatlar (Quvayt, Qatar, Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari) vujudga keldi. Shuningdek, Saudiya Arabistoni, Ummon va Yaman kabi diniy-siyosiy avtoritar davlatlar qayta shakllantirildi. Bu jarayon etnik omillar deyarli hisobga olinmagan holda amalga oshirildi. Natijada aynan etnokonfessional muammolar Yaqin Sharqdagi eng chigal va murakkab muammolardan biriga aylandi.

Bugungi kunda mintaqa davlatlaridagi etnik masalalar Turkiyada kurdlar, alaviylar, lazlar va qisman eskidan qolgan armanlar bilan bog'liq muammolarda; Eronda kurdlar, belujiylar,

¹¹ Masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan solishtiradigan bo'lsak, hududiy chegaralashda juda chalkash va sun'iylikka yo'l qo'yilgan bo'lsa-da, bu yerdagi xonliklar o'rnida paydo bo'lgan davlatlar ma'lum bir titul millat ustunligida (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston kabi) shakllantirildi. Ammo Yaqin Sharqda bunday bo'lmadi. Turkiya va keyinchalik paydo bo'lgan Isroildan boshqa Yaqin Sharq davlatlari nomi titul bir millat nomidan kelib chiqmaydi. Xususan, Suriya qadimda yashagan ossurlar nomidan kelib chiqadi. Iroq ham Basra ko'rfazi yonidagi bir joy nomi. Misr, Iordan, Falastin, Livan nomlari ham arablarga aloqador bo'lmagan eski bir nomlardir. Arab yarimorolidagi davlatlarning ko'pchiligi, masalan, Saudiya Arabistoni Al-Saud oilasining nomidan kelib chiqadi. Bahrayn nomi arabchada "ikki daryo" nomidan kelib chiqadi. Eron esa "aryaniy" (oriy) so'zidan kelib chiqadi. Pokiston ham forschadan "pok yer" ma'nosini berib, xuddi Eron kabi biror bir titul millatni aks ettirmaydi.

ozariylar va arablar bilan bog‘liq muammolarda; Suriyada kurdlar, turkmanlar, druzlar va sunniy arablar; Iroqda kurdlar, shia arablari (bugungi kunga kelib sunniy arablari), turkmanlar muammolarida; Livanda xristian arablari, druzlar, arman va boshqa millatlar va konfessiyalar orasidagi muammolar, Misrda koptlar (qiptiylar); Jazoida berberlar; Bahraynda shia arablari; Yamanda ham shia arablari bilan bog‘liq juda qaltis va chalkash masalalarda namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, Falastin-Isroil muammosi tufayli (Arab-Isroil yoki musulmon-yahudiy muammosi) mavjud hudud o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab bugungi kunga qadar dunyoning eng “qaynoq” mintaqasi hisoblanadi. 1979-yil Eronda yuz bergan Islom inqilobidan so‘ng mintaqada yetakchilik uchun shia-sunniy ziddiyatlari boshlanganini inobatga olsak, masala yanada murakkab ekanidan dalolat beradi.

Ma’lumki, Yaqin Sharqdagi etnik muammolarning eng jiddiy ko‘rinishi bu kurdlar masalasidir. Kurdlarning birinchi milliylik xarakterdagi isyoni 1880-yilda Shayx Ubaydullo**h** boshchiligida bo‘lib o‘tgan. Usmonlilar va Eron o‘rtasidagi raqobat ketayotgan bir paytda Shayx Ubaydullo**h** butun Eron kurdlarini birlashtirib Istanbulga qarshi urushni rejalashtirgan. Kurd etnik shaxsiyatiga har qancha urg‘u bersada, Ubaydullo**h** qo‘zg‘oloni Kurdiston mustaqil davlatini tashkil etish uchun emas, balki markaziy hokimiyatga qarshi norozilik isyoni sifatida baholanadi. Chunki, Ubaydullo**h**ga qo‘shilgan kurdlar millatchilik ruhiyatida mustaqillik uchun emas, balki **Shayx**ga bo‘lgan hurmat va mahalliy aholining o‘z diniy qadriyatlariga sodiq qolish nuqtai nazardan qo‘shilgan.¹² Ba’zi tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, Shayx Ubaydullo**h** boshchiligidagi isyon Chor Rossiyasi tomonidan Usmonlilarga qarshi uyushtirilgan va qo‘llab-quvvatlangan qo‘zg‘olon bo‘lgan.¹³

¹² W. Jwaideh, *The Kurdish National Movement. Its Origins and Developments*, Syracuse University Press, New York, 2006, pp. 75-101.

¹³ Abdulhaluk Çay, *Her Yönüyle Kürt Dosyası*, Ankara, 1993. – S. 464.

Birinchi jahon urushidan keyin, kurdlar to'rt davlat (Turkiya, Eron, Iroq va Suriya) tarkibida qolib ketdi. Turkiyadagi kurdlar 15-20 millionlik soni bilan boshqa davlatlardagi kurdarning umumiy sonidan ham ko'pchilikni tashkil etadi. Shunday bo'lsa-da, Turkiya Respublikasi tashkil etilganidan keyin mamlakatdagi etnik kurdlar alohida bir millat sifatida tan olinmadi. Natijada, Dersimdagi kurdarning zaza qabilasi tomonidan 1933-yilda qo'zg'olon uyushtirildi. 1980-yilga kelib esa kurdarning adolat va tenglik tamoyillarini o'ziga singdirgan socialistik harakat – Kurdiston ishchi partiyasi (KIP Turkiyada terrorchi tashkilot sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan) tuziladi. Bu harakatning a'zolari, keyinchalik, 1990-yillar boshida kurdarning zich yashaydigan Diyarbakir, Van, Mardin va boshqa shaharlarida ko'plab isyonlar, noroziliklar, qo'poruvchilik harakatlarini sodir etdilar. Bu tashkilot a'zolari bugungi kunda ham tog'li hududlarda turli jangari harakatlarni uyushtirib kelmoqda.

Alaviylar shia mashabidan bo'lgani uchun sunniy-alaviy (yoki shia) muammosi Yaqin Sharq davlatlari uchun umumiy muammo hisoblanadi. Mazkur muammo Turkiyada ham mavjud bo'lib, uning tarixi uzoqqa borib taqaladi. Muammoning eng jiddiy ko'rinishi 1510-1520-yillarda kuzatilgan bo'lib, o'sha paytda Eron shohi Ismoil davrida shialikning rasman davlat mashabi deb e'lon qilinishi oqibatida sunniy bo'lgan Usmonlilar sultoni Sulaymon o'rtasida yuz bergan janglarda ("Chaldiran jangi") ko'chmanchi turkman alaviylari shoh Ismoilni qo'llab-quvvatlagan. Jangda Usmonlilar g'alaba qozongan bo'lsa-da, alaviylar doim Eron bilan aloqalarni o'rnatib turgan. Shoh Ismoil ham alaviylarga o'z yordamini ayamagan. Natijada Sivas, Tokat, Amasiya va Cho'rum mintaqalarida, keyinchalik, Antaliya va Rumelli mintaqalarida alaviylarning Shaxkulu va Turhalli Jelal isyonlari bo'lib o'tadi.¹⁴

Bundan keyin ham vaqti-vaqti bilan alaviylarning isyon va qo'zg'olonlari bo'lib turgan. Turkiya Respublikasi e'lon qilingan

¹⁴ İsmail Hakkı Uzunçarşılı, Osmanlı Tarihi, II. Cilt. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 1998, s. 344.

paytda sekulyar siyosatning yoʻlga qoʻyilishi bilan alaviylarning holati nisbatan yaxshilandi. Ammo, 1960-yillarga kelib, Demokratik partiya din masalasini koʻtarib chiqib, sunniylik anʼanalarni himoya qilishi, alaviylarning oʻtmishdagi tarixini qayta koʻtarib sunniy-alaviy tangligini yanada kuchaytiradi.¹⁵ Bu alaviylarning koʻpchiligining soʻl qanot gʻoya va harakatlariga qoʻshilishiga, 1960-yillar oxiriga kelib esa Kahramon Marash va Choʻrumda isyonlar yuz berishiga sabab boʻladi.

Turkiyada milliy davlat shakllanishida titul millat yaratish harakatlari 1970-yillarda etnik va mashab harakatlari bilan faollasha boshlaganini ifoda etgan. Sekulyarlashish harakati alaviylarga teng haqlarni taʼminladi. Lekin sunniylarning ularga nisbatan adovati yoʻqolmadi va 1970-yillarda boshlagan siyosiy qutblashish holati yanada avj oldi. Oʻsha davrning oʻta soʻl qanotdagilari alaviylarning oʻtmishdagi isyonlarini kommunistik oldi harakatlari sifatida qarab, alaviylarni oʻz ittifoqchilari deb qabul qilgan boʻlsa, oʻta oʻng qanotdagi konservativlar sunniylarni oʻz tarafiga ogʻdirishga harakat qildi. Ular alaviylarga nisbatan munosabatlarini jiddiylashtirib, ushbu barcha rivojlanishlar milliy davlat identifikatsiyasi tashqarisida qolgan xalqlar mavjudligini va etnik, diniy jihatdan titul bir millat (turk) idealidan uzoqlashishini koʻrsatgandi.¹⁶

Darhaqiqat, alaviylar orasida kurdlar, turkmanlar, arablar boʻlishiga qaramay, alaviylik baʼzan etnik harakat sifatida ham koʻrila boshlandi. Koʻpincha soʻl qanotdagi harakatlar Xalq demokratik partiyasi (asosan kurd millatchiligi partiyasi) tarafdorlari sifatida qaraladigan boʻldi.

Turkiyadagi boshqa xalqlar, masalan, laz va cherkezlarining ham assimilatsiya (turklashuvi) jarayoni kuchli boʻlgan boʻlsa-da, lazlar etnik jihatdan oʻzlarini gruzin millatidan, cherkezlar esa

¹⁵ Haydar Gölbaşı, “Modernleşmeyi Engelleleyen Arkaik Bir Çatışma Sorunu: Alevi-Sünni Çatışmasının Arka Planı” C.Ü. İktisadi ve İdari Bilimler Dergisi, Cilt 9, Sayı:1, 2008. S. 50-51.

¹⁶ Martin Van Bruinessen, Kürtlük, Türklük, Alevilik-Etnik ve Dinsel Kimlik Mücadeleleri, çev. Hakan Yurdakul. İstanbul: İletisim Yayınları, 8. Baskı, 2009. – P. 119-121.

kavkaz xalqlaridan ekanini unutmagan. Turkiyadagi yana bir etnik muammo – bu armanlarning ommaviy qirg‘ini bilan bog‘liq. 1912-1915-yillarda qadimdan armanlar yashaydigan hududlarda, jumladan, Erzurum, Van, Ag‘ri va boshqa yerlarda armanlarga nisbatan amalga oshirilgan qirg‘in natijasida o‘z vaqtida zich bo‘lib yashagan armanlar u yerlarni tark etadi. Bu muammo bugungi kunda ham xalqaro darajadagi masala bo‘lib, Turkiya tashqi siyosatidagi eng og‘riqli muammolardan biridir.¹⁷

Etnik muammo nafaqat Turkiya, balki butun Yaqin Sharq davlatlarida bir-biridan qolishmaydigan jiddiy muammo sanaladi. Birinchi kurd millati nomidan isyon Shayx Ubaydulloh tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa-da¹⁸, kurdلarning milliy davlat qurish harakati ikkinchi jahon urushi yakunida, aniqrog‘i, 1946-yilda Eronning shimoliy-g‘arbiy qismida Maxobod Respublikasining tashkil etilishi bilan yakunlangan. Mazkur respublika 11 oy yashagan bo‘lsa-da, bu kurdلarning siyosiy mustaqillikka bo‘lgan birinchi qadami edi. Aynan, Maxobod respublikasini tashkil etish g‘oyasi kurdلarning alohida bir davlat qurish yo‘lidagi birlashuvidan dalolat edi. Bu borada tadqiqotchi Xoshavi Babakr shunday yozadi: “Birinchi kurd davlatchiligi Maxobod kurdلariga nafaqat davlatchilikdagi birinchi tajriba, u, shuningdek, aynan Maxobod inqilobi davrida birinchi ikkita kurd milliy partiyalari: Eron Kurdistoni demokratik partiyasi va Iroq Kurdistoni demokratik partiyasining tashkil topishi bilan yanada qadrlidir. Shunday qilib, milliy harakatlar birinchi marta zamonaviy asoslarga muvofiq bo‘ldi”.¹⁹ Erondagi bu harakatlar

¹⁷ Ma’lumotlarga ko‘ra, 1,5 mln. arman asosan kurd qishloqlarining aholisi tomonidan o‘ldirilgan.

¹⁸ Bugungi kungacha aniq o‘rganilmagan bo‘lsada, bizning taxminimizcha, kurdلar nomidan isyon ko‘tarish va umuman Buyuk Kurdiston g‘oyasi Eronlik ziyoli kurdلar tomonidan ilgari surilgan bo‘lishi mumkin. Chunki Shayx Ubaydullohning Eron kurdلari bilan birlashib Usmonliga qarshi kurash fikri ham bekorga chiqmagan.

¹⁹ Хошави Бабакар, Курдистан: перспективы курдской государственности, Курдский вопрос на рубеже тысячелетий (круглый стол 19.02.2004 г.) М., 2004. – С. 27.

kurdarning siyosiy partiyalar, tashkilotlar tuzish va u orqali harakat qilishlarida juda ham katta tajriba bo'ldi.

Erondagi eng jiddiy etnik muammo – bu belujiylar muammosi bo'lib, u ham etnik, ham konfessional muammo hisoblanadi. Belujiylar sunniy mashabga mansub bo'lib, kurdlar kabi fors tili oilasiga kiruvchi Eron xalqlaridan biri hisoblanadi. Erondagi belujiylar Pokiston bilan chegara bo'lgan Sistan-Belujiston viloyatida istiqomat qilib, ularning soni taxminan 1,5 millionni tashkil etadi. Bu viloyat Fors ko'rfazi bilan Xormuz Bo'g'ozi orqali energetika oqimini nazorat qilish imkonini ta'minlaydigan strategik hudud sanaladi. Belujiylarning katta qismi Pokistonda yashashadi, ular mamlakat aholisining 7-8 foizini tashkil qiladi. Pokistonning g'arbiy qismida joylashgan hudud nomi ham Belujistondir.²⁰

Pokistonda istiqomat qiladigan belujiylar hududi energetika manbalariga boy bo'lishga qaramay, yashash sharoiti boshqa viloyatlarga nisbatan juda past darajada bo'lgani tufayli ular Eron va Pokiston hukumatlaridan norozidir.²¹

Belujiylar Pokistonda avtonom boshqaruvga ega bo'lishga intilayotgan bo'lsa, Eronda mazhab farqliligidan aziyat chekmoqdalar. Shia mazhabi hukmdor bo'lgan Eronda sunniy mashabiga ega bo'lgan belujiylarning mavjudligi hamda ularning tili va madaniyati o'rtasidagi o'zaro farq ularni bir-biridan begonalashtiruvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu begonalashish Gundullax nomi berilgan va sunniy bo'lgan Erondagi belujiylarni alohida bir millatga aylanish borasidagi harakatni kuchaytirdi.²²

Erondagi yana bir katta etnik diaspora bu ozariylar hisoblanib, ularning soni taxminan 15-20 million kishini tashkil

²⁰ Muhammed Saleem Mazhar and others, "Balochistan: From Strategic Significance to US Involvement", *Journal of Political Studies*, Vol.: 19, 2012. – P. 113.

²¹ Alok Bansal, "Factors Leading to Insurgency in Balochistan", *Small Wars & Insurgencies*, Vol.: 19, No: 2, 2008. – P. 185-189.

²² Hakan Boz, "Belucistan, Orta Asya'nın Kürdistan'ı Mı?", 21. Yüzyıl Dergisi, No. 36, Aralık 2011. - S. 55.

etadi. Ular mamlakatning shimoliy-gʻarbiy qismida, Ozarbayjon viloyatlarida istiqomat qilishadi. Ozariylar shia mazhabidan boʻlgani uchun jiddiy xavf tugʻdirmasa-da, turkchilik va Turkiya bilan munosabatlarining yaqinligi uchun baʼzan jiddiy etnik masala sifatida qaraladi. Shunga qaramay, ozariylar Eronning Ozarbayjon bilan oʻzaro munosabatlarida oʻziga xos koʻprik vazifasini ham bajaradi.²³ Eronda ozariylardan tashqari turkmanlar, qashqaylar, xurosonlik turklar, xalachlar, sungurlar, ebiverdilar, qozoq va oʻzbeklar kabi turkiy xalqlar mavjud²⁴ boʻlib, ularning soni aniq koʻrsatilmagan boʻlsa-da jami turkiy xalqlarning soni 35 milliongacha yetishi mumkin.²⁵ Bu mamlakat aholisining 40 foizini tashkil etadi. Shoh davrida (Rizo shoh Pahlaviylar) ozariylar boshqa turkiy xalqlar kabi forslashtirish siyosatidan jiddiy aziyat chekkan. Sababi, shoh va uning atrofidagi amaldorlarning fikricha, Erondagi xalqlar moʻgʻullar davrida turklashtirilgandi.²⁶ 1979-yilgi Islom inqilobida ozariylar faol ishtirok etdi. Baʼzi ozariylar buni ozariy din odamlarining isyoni edi deb hisoblashadi. Chunki, Oyatulloh Xoyi, Oyatulloh Lenkeraniy, Oyatulloh Ali Xomaniy (hozirgi Eronning amaldagi siyosiy va diniy rahbari, Oyatulloh) kabi din peshvolarining ozariy millatidan ekaniga iqtibos qilinadi.²⁷ Inqilobdan keyin ozariylar bilan birga, boshqa turkiy xalqlar, kurdlar, arablar hamda lurlar ham xaq-huquqlarining konstitutsiyaviy himoyalanihini, jumladan, maktablarda davlat tili bilan birga, oʻz ona tillarida ham taʼlim olishni, gazeta va jurnallar chop etilishini, parlamentda oʻz vakillariga ega boʻlish talablarini ilgari

²³ 1828-yil 10-fevralda 16 yil davom etgan Chor Rossiyasi va Eron orasidagi urush natijasi oʻlaroq imzolangan Turkmenchay shartnomasiga koʻra Ozarbayjon ikkiga boʻlindi. Aras daryosining shimoli Chor Rossiyasiga berildi, janubi esa oʻsha paytdagi Eronni boshqargan turkiy xalqlardan biri Kachar sulolasi tarkibida qolgandi.

²⁴ Blaga Rafael, İran Halkları El Kitabı. İstanbul, 1997. – S. 272.

²⁵ Bilgehan A. Gökdağ and M. Rıza Heyet, Iranian Turks' Identity Problem (İran Türklerinde Kimlik Meselesi). Bilig, Summer / 2004, No 30: 51-84.

²⁶ Bilgehan A. Gökdağ and M. Rıza Heyet oʻsha manba.

²⁷ Saraçlı Murat, Minorities in Iran (İran'da Azinliklar). P. 15-16 // http://www.akademikortadogu.com/belge/ortadogu4%20makale/murat_saraccli.pdf

surdilar. Ammo, amalda bu deyarli qondirilmadi. Shu bois, ozariylar ham bugungi kunda o‘z tili va madaniyatini saqlab qolish borasida tashvishda ekanini goh-gohida eslatib turadilar.

Erondagi yana bir etnik muammo – bu muhim etnik ozchilikni tashkil etgan arablar masalasidir. Ular Eronning asosiy janubiy-g‘arbiy qismida, iqtisodiy va strategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan Xuzeston (Al-A~~x~~hvaz deb ham nomlangan) provinsiyasida istiqomat qiladi. Eronlik arablar 2 millinondan ziyodni tashkil etadi.²⁸ Forslar kabi Erondagi arablar islomning shia yo‘nalishi vakillaridir. Shu bois, ular mazhab muammosini tug‘dirmaydi. 1925-yilgacha Britaniyaning qo‘l ostidagi avtonom hudud hisoblangan Al-A~~h~~vaz, Eron tarkibiga kiritilgach, Xuzeston deb nomlandi. Bu hudud strategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etib, Fors ko‘rfaziga tutashgan, Iroq hamda Quvayt bilan chegaradosh, neft va gaz zahiralariga boy hudud sanaladi. Ushbu hududdagi arablar hozirgi kunda forsiylashtirilmoqda. Ularning 40 foizi bugungi kunda fors tilida gaplashadi. Arab davlatlari yetakchilari Eronning neft va gazdan olayotgan foydasini xuzestonlik arablar deyarli ko‘rmayotganligidan norozi bo‘lishmoqda.²⁹

Eronda boshqa etnik ozchiliklar, masalan lurlar, turkmanlar va boshqalar ham borki, ular mazhab va etnik jihatdan tan olinmaslik kabi holatlarga uchrab turadi.

Ma’lumki, Turkiya, Eron va Isroildan tashqari Yaqin Sharqdagi qolgan barcha davlatlar arab davlatlari hisoblanadi va ular Arab Davlatlari Ligasi tashkilotining a’zolaridir. Ushbu Arab davlatlarida etnosiyosiy muammolar turli ko‘rinishga ega bo‘lib, juda ham ziddiyatli tus olgan.

²⁸ Камраков А.А. Этноконфессиональные меньшинства в политическом процессе Большого Ближнего Востока: особенности институционального развития и диаспоральной деятельности. Дисс. к.п.н. Нижний Новгород, 2009. – С. 19.

²⁹ Камраков А.А. Этноконфессиональные меньшинства в политическом процессе Большого Ближнего Востока: особенности институционального развития и диаспоральной деятельности. Дисс. к.п.н. Нижний Новгород, 2009. – С. 19.

Arab dunyosining aholisi 236 milliondan ko‘proq bo‘lib, mutloq ko‘pchilikni tashkil qiluvchi qismi (80 foiz) bir xil fiziologik xususiyatlarga ega. Diniy jihatdan ular musulmon bo‘lib, ko‘pchiligi sunniylar hisoblanadi. Madaniy hamda lingvistik jihatdan ular arab tilida so‘zlashadi. Milliy kelib chiqishi nuqtai nazaridan, ular ko‘p asrlar mobaynida “Arablar Vatani” (Atlantik okeaniga tutash Marokashdan tortib Arab Fors ko‘rfazidagi Bahrayngacha cho‘zilgan) hududlarida yashab kelmoqda.³⁰

Arab davlatlarining etnosiyosiy strukturasi yanada aniqroq qilib ko‘rish uchun quyidagi jadvalga e’tibor qaratamiz:³¹

Ozchilik guruhlar	Arab dunyosida umumiy soni	Ko‘pchilikni tashkil qiluvchi din	Etnik kelib chiqishi	Kelib chiqish davlati	Joylashuv davlati
Kurdlar	7,000,000	Musulmon	Indo-European	Kurdiston	Iroq/Suriya
Armanlar	1,000,000	Xristian	Indo-European	Armeniya va Turkiya	Livan/Suriya/Iroq/Misr
Oramiylar	125,000	Musulmon	Hamitic/Semitic	Suriya/Iroq/Livan	Suriya/Iroq/Livan
Turkmanlar	550,000	Musulmon	Altai groups	O‘rta Osiyo/Turkiya	Iroq/Suriya
Turklar	125,000	Musulmon	Altai groups	Turkiya	Suriya/Iroq
Eroniylar	125,000	Musulmon	Altai groups	Eron	Iroq/Fors ko‘rfazi

³⁰ Каримов Ф.Э. Якин Шарқдаги этносиёсий муаммолар ва минтақавий хавфсизлик масалалари. Т., 2016. – Б. 86.

³¹ Manbaa sifatida Saad Eddin Ibrahim Sects, Ethnicity, and Minority Groups in the Arab World (Cairo, Ibn Khaldoun Center, 1994) asari olingan bo‘lsa-da, bugungi kunda davlatlarning statistik ma’lumotlari va yaqinda yozilgan manbalar asosida qayta tuzib chiqilgan va tadqiqotchi Saad Eddin Ibrahim tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar to‘g‘rilab yozilgan.

ar	350,000	Musulmon	Indo-European	Yevropa va ikkita Amerika	Falastin/Isroil
Gʻarbiy yahudiy lar	3,500,000	Yahudi y	Hamitic/Semitic	Janubiy Sudan/Janubiy Marokash,	Janubiy Sudan/Janubiy Marokash
Afrika urugʻlar	5,500,000	Pagan	Africa	Janubiy Misr/Gʻarbiy Sudan	Janubiy Misr/Gʻarbiy Sudan
Nubiylar				Sudan	Marokash/Jazoir
Berberlar	500,000	Musulmon	Hamitic/Semitic	Marokash/Jazoir/Tunis/Liviya	Tunis/Liviya
	15,000,000	Musulmon	Hamitic/Semitic		

Ushbu jadvalda, asosan Suriya, Iroq, Livan, Falastin, Misr va Sudanda etnik xilma-xillik murakkab koʻrinishga ega ekanini koʻrishimiz mumkin. Bu bugungi kunda aynan ushbu davlatlarda (Yamanni ham qoʻshgan holda) etnosiyosiy muammolarning juda keskin va murossasiz koʻrinishda ekanini va tizimli toʻqnashuvlarga sabab boʻlayotgani bejiz emasligini ham bildiradi.

Taʼkidlash joizki, 1945-yildan buyon dunyoda yuzaga kelgan barcha ixtiloflarning 25 foizi Yaqin Sharqdagi arab davlatlarida sodir boʻlgan. Bunda, ayniqsa, fuqarolar urushi eng tahlikali va jiddiy koʻrinishda boʻlib oʻtgan. Masalan, Livandagi fuqarolik urushida (1975-1990-yy.) qurbonlar soni 200 mingga yaqin boʻlgan boʻlsa, Sudandagi fuqarolik urushi (1956 yildan hozirgacha) 1 millionga yaqin insonlarning hayotiga zomin boʻldi.³²

Etnik mojarolar ichida Yamandagi 1994-yilgi fuqarolar urushi yuqoridagi ziddiyatlarning eng fojiali koʻrinishi boʻldi.

³² Saas Eddin Ibrahim. Sects, Ethnicity, and Minority Groups in the Arab World (in Arabic), Cairo: Ibn Khaldoun Center, 1994. – pp.15-18.

Ixtiloflarning mafkuraviy va mintaqaviy ko‘rinishlari asosan mazhab bo‘linishlar bilan bog‘liqdir. Bunda xususan, Sheyfi sunniylari shuningdek, Zaydi shia firqalariga mansub bo‘lgan G‘arb qabilaviy elitesini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Yaqin Sharqdagi har bir qurolli ichki ixtiloflar bilan manipulyasiya qilish, shuningdek, ularning tez tarqaluvchanlik xususiyati albatta, davlatlararo mojaralarga ham sabab bo‘lgan muhim jihatligini qayd etish lozim.³³

Bugungi kunda mintaqaning eng ziddiyatli davlatlari Suriya, Liviya, Iroq va Yaman bo‘lib qolmoqda. Bu davlatlardagi jarayonlar juda keskin va tahlikali bo‘lib, nafaqat mintaq, balki xalqaro miqyosda tinchlik va xavfsizlikka rahna solmoqda. Masalaning jiddiyligi yuqoridagi davlatlarda boshlangan fuqarolik urushlari natijasida davlatlarning bir nechta bo‘laklarga bo‘linishi va xalqaro kuchlarning u yoki bu guruhlarini qo‘llab-quvvatlashi orqali vaziyatning tobora jiddiylashib borayotganligi, natijasida minglab, millionlab insonlar aziyat chekmoqda.

Suriyada 2018-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakat aholisining soni 19,5 millionni tashkil etib, shundan aholining 87 foizini musulmonlar (74 foizi sunniylar, 13 foizi (shia) alaviy, ismoiliy), 10 foizini xristianlar, 3 foizini druzlar tashkil etadi. Etnik tarkibiga ko‘ra esa, aholining 90,3 foizi arablar, qolgan 9,7 foizi kurdlar, armanlar, turkmanlar va boshqalardan iborat.³⁴

Hozirgi Suriya davlati fransuzlar mandati ostida 1920-yil tashkil topgan. Suriya 1946-yil mustaqillik e‘lon qilganidan keyingi yigirma yil siyosiy beqarorlik sharoitida yashadi. 1963-yilgi davlat to‘ntarishi orqali BAAS partiyasi Suriya ustidan to‘liq nazoratni qo‘lga kiritgan. 1970-yilda BAAS partiyasi rahbarligiga general Hafiz Asad kelganidan so‘ng, hokimiyat qariyb 30 yil davomida avtoritar tuzum orqali boshqarildi.³⁵

³³ Каримов Ф.Э. Якин Шарқдаги этносиёсий муаммолар ва минтақавий хавфсизлик масалалари. Т., 2016. – Б. 85-86.

³⁴ Carla E. Humud and others, *Armed Conflict in Syria: Overview and U.S. Response*. Congressional Research Service, March 25, 2019. – P. 2.

³⁵ Ondřej Dočkal, *Current Crisis in Syria*. Model NATO, AMO Research Center, 2012. – P.2.

Hafiz Asad bu davrda davlat apparatini turli jamoalarga taqsimlab, hokimiyatni o'zi va oilasiga tobelashtirdi hamda o'z konfessiyasiga mansub bo'lgan alaviylarni hokimiyatning muhim bo'g'inlariga tayinladi. Dastlab, alaviylarni davlat xavfsizligi va harbiy organlari ustidan nazorat o'rnatilishini, keyinchalik hukumatning yuqori organlariga ham aynan alaviylardan qo'yilishini afzal ko'rdi.³⁶ Vaholanki, alaviylar mamlakatda bor yo'g'i 10 foiznigina tashkil qilar edi.

Natijada, Hafiz Asad prezidentlik vakolatini kengaytirib, hukumat qarorlariga veto qo'llash huquqini ham qo'lga kiritdi. Mamlakatda uning davrida biror marotaba ko'ppartiyaviylikka asoslangan prezident saylovlari bo'lib o'tmagan. 2000yil vafot etganda alaviy elitasi uning o'g'li Bashar Asadni hokimiyatga olib keldi. Bashar Asad u paytda, asosan Londonda yashar va shifokor bo'lib ishlardi. Bu esa uning davlat boshqaruvi tizimidan ancha yiroqligi va tajribasizligidan dalolat edi. Ushbu yuqoridagi holatlarni qaysi davlatda bo'lmasin, bu davlatning mavjud bo'lish masalasini jiddiy xavf ostiga soladi. 2011-yil "Arab bahori" nomi bilan keng ko'lamda amalga oshirilgan siyosiy to'lqinlarda bu o'z isbotini topdi. Boshlangan tartibsizlik va xaos buzg'unchi kuchlar qo'lida harbiy, siyosiy, iqtisodiy va geosiyosiy vositaga aylandi.

Ikki Asad rejimida sunniylar orasida norozilik muhiti kuchli edi. Sunniylar orasida bir nechta yuqori lavozimli shaxslar ham bo'lgan bo'lsa-da, alaviy ozchilikka ega elita oldida sunniylar o'zlarini ikkinchi darajali his etardi. Shu bois, Asad rejimiga dastlab "Musulmon Birodarlari" tashkiloti qarshi chiqdi. Keyinchalik, Al-Qoida va ISHID (Iroq va Shom Islom Davlati) va Tahrir Ash-Shom terrorchi tashkilotlari bu qarshilik va noroziliklarning yetakchilariga aylandi.³⁷ Bu harakatlar Asad rejimiga qarshi Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar tomonidan moliyalashtirilib, qo'llab-quvvatlandi. Sunniylarning

³⁶ Arnav Mariwala, The Syrian Civil War, Regime of Bashar Al-Assad. Stanford Model United Nations Conference 2014. – P. 6.

³⁷ Arnav Mariwala, The Syrian Civil War, Regime of Bashar Al-Assad. Stanford Model United Nations Conference 2014. – P. 6-10.

aksariyati Asad rejimiga qarshi Suriya ozodlik harakati atrofida birlashgan bo'lsa, qolganlari ISHIDga qo'shildi. Kurdlar esa mamlakatdan ajralib chiqish uchun kurash boshlab yubordi.³⁸ Tashqi kuchlar u yoki bu guruhlarining homiysiga aylandi. Nihoyat, tashqi qo'llab-quvvatloviga asoslanib 2024-yil dekabrda Tahrir Ash-Shom harakati 50 yildan ortiq amalda bo'lgan Asadlar hokimiyatini ag'darishga erishdi. Ammo, davlatda siyosiy-iqtisodiy xaos bartaraf etilmadi.

Suriyada 2011-yilda boshlangan va bugungi kungacha davom etgan ichki ixtiloflar natijasida mamlakat juda katta siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy talofatlar ko'rdi. UNOCHANing ma'lumotlariga ko'ra, hozirda mamlakat aholisining 13 millioni ijtimoiy ko'makka muhtoj. Shuningdek, 5,7 million aholi mamlakat ichida boshqa yerlarga ko'chib o'tgan. 5,6 million aholi esa qochoqlarga aylangan. Ishsizlik darajasi 50 foizni, o'ta qashshoq yashaydigan aholi soni 69 foizni tashkil etmoqda.³⁹

Iroqdagi holat ham Suriyadagi vaziyatdan katta farq qilmaydi. Inglizlardan mustaqil bo'lgan Iroqda 1979-yilgacha birin-ketin davlat to'ntarishlari bo'lib o'tdi. 1963-yil arab millatchiligiga asoslangan Arab Sosialistik partiyasi – BAAS Iroq hokimiyatini (Suriyadagi kabi) qo'lga oldi. 1979-yilgacha partiya ichida hokimiyat uchun kurash davom etdi. Shundan so'ng Saddam Husayn o'z hokimiyatini mustahkamlab, bir partiyali tizimga ega davlatning prezidenti bo'ldi. U o'z siyosiy raqiblarini ta'qib qilish, qiynoqqa solish, qamash va hattoki qatl qilish yo'li bilan hokimiyatdan chetlashtirdi. Iroq va Kurdistonda inson huquqlarini tizimli ravishda buzgan Saddam Husayn keyinchalik o'zi mansub bo'lgan tikritlar oilasi a'zolari bilan butun harbiy va xavfsizlik organlarini o'z qo'lga olishga muqarrar bo'ldi va

³⁸ O'sha joyda.

³⁹ Iqtibos manbasi: Carla E. Humud and others, Armed Conflict in Syria: Overview and U.S. Response. Congressional Research Service, March 25, 2019. – P. 2.

mamlakatda mutloq yakka hokimiyatni o‘rnatdi.⁴⁰ Saddam Husayn va uning oilasi sunniylardan edi. Vaholanki, sunniylar Iroqda kamchilik bo‘lib, mamlakat aholisining asosiy qismi shia mazhabidan edi.⁴¹ Bu holat Suriyada shia alaviylarining ko‘pchilikni tashkil qilgan sunniylar ustidan hukmronligining aksi edi.

Saddam Husayn 1979-yil Eronda Islom inqilobi ro‘y bergan paytda chegara muammosini bahona qilib ushbu mamlakatga bostirib kiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 1988-yilgacha davom etgan davlatlararo urush natijasida har ikkala tomondan 1 milliondan 2 milliongacha qurbonlar bo‘lgan.⁴² Saddam Husayn 1988-yilda Iroq shimolida kurdلarni yo‘q qilishga qaratilgan “Anfal” operatsiyasini boshlaydi. Kurdلar yashaydigan yerlarda (masalan, Kirkukda) “arablashtirish” siyosatini olib boradi. Ushbu operatsiya davomida nafaqat kurdلar, balki, boshqa (masalan, turkmanlar) etnik guruhlar ham tizimli yo‘q qilinadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, kurdلar demografik ko‘pchilikni tashkil etadigan bir qancha hududlarda 182 000 dan ziyod kurd aholisi yo‘q qilingan,⁴³ ularning yana bir necha mingi tog‘li va boshqa hududlarga qochib ketgan. Kurdلar yashaydigan Xalabji tumanida kimyoviy qurollarni qo‘llash oqibatida 5 mingga yaqin kurd o‘ldirilgani ma’lumotlarda qayd etilgan.⁴⁴ Shuningdek, S.Husayn to‘satdan 1990-yilning avgust oyida Quvaytga bostirib kirib, uni ishg‘ol etadi. Faqatgina BMT boshchiligidagi xalqaro kuchlarning sa’y-harakati bilan Iroq armiyasi ortga chekindi.

⁴⁰ USDOS, Country Reports on Human Rights Practices for 2002 – Iraq, 31 March 2003. Yoki ushbu manbaa: HRW, Iraq and Iraqi Kurdistan – 2002 // <https://www.hrw.org/legacy/wr2k2/mena4.html>

⁴¹ Iroq aholisi 37,2 mln. bo‘lib, 55 foizi shia, 18,5 foizi sunniy arablar hisoblanadi. Aholining 21 foizi kurdلar, 2 foizi turkmanlar bo‘lib, ular ham asosan sunniy mazhabdan. Jami sunniylar 42 foiz.

⁴² Encyclopaedia Britannica, Iran-Iraq War, 15 September 2018 // <https://www.britannica.com/event/Iran-Iraq-War>

⁴³ HRW, Endless Torment: The 1991 Uprising in Iraq and its Aftermath, June 1992 // <https://www.hrw.org/legacy/reports/1992/Iraq926.htm>

⁴⁴ HRW, Endless Torment: The 1991 Uprising in Iraq and its Aftermath, June 1992 // <https://www.hrw.org/legacy/reports/1992/Iraq926.htm>

S.Husayn rejimi 2003 yilgacha – AQSH harbiy kuchlarining Iroqqa boshlagan xhujumiga qadar davom etdi.

Albatta, ko‘plab tadqiqotchilar, shu jumladan, davlat va siyosat arboblari hamda Iroqning aksariyat aholisi (kurdlar va Kirkuk turkmanlaridan tashqari) bugungi taxlikali holatdan ko‘ra, S.Husayn rahbarlik qilgan davr yaxshi bo‘lgani, AQSH kimyoviy qurollarni bahona qilib, urush ochgani, natijada mamlakatning jar yoqasiga kelib qolganini qayd etadilar. Biroq Iroqdagi tanglik o‘tgan asrning 50-yillaridan beri tizimli davom etib kelayotgani, S.Husayn davrida etnik va konfessional mojarolar juda jiddiy va ayovsiz ko‘rinishga ega bo‘lgani, shuningdek, uning siyosati oqibatida ko‘plab davlatlararo mojaralar yuz berganini ham inkor etib bo‘lmaydi.

AQSH boshchiligidagi koalisiya Iroqqa kirib kelganidan so‘ng, kurdlar mamlakat shimolida Kurdiston avtonom respublikasini tashkil etishga erishdi. Eng ahamiyatlisi, Iroq hokimiyati shia mazhabining nazoratiga o‘tdi. Sunniylar hokimiyatiga barham berildi, shialarning hokimiyatdagi ta’siri mustahkamlandi. Bu mintaqadagi sunniylar yetakchilari bo‘lmish Saudiya Arabistoni va boshqa Arab davlatlarining Eron–Iroq–Suriya shia uchligining mustahkamlanishi bilan bog‘liq xavotirlarini yuzaga keltirdi. Natijada Iroqda sunniy-shia mojarosi boshlandi.

2003-yildan so‘ng qurollangan isyonkor sunniylar va soni ortib borayotgan shia harbiylari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar davlatdagi asosiy omil bo‘lib, beqarorlik o‘chog‘iga aylandi. 2006-2007 yillarda Al-Qoidaga aloqador sunniy ekstremistik kuchlar Iroqda turli qo‘poruvchilik va terrorchilik faoliyatlarini olib borgan bo‘lsa, qurollangan shia harbiylari (ularning bir qismi Iroq xavfsizlik kuchlariga taalluqli edi) sunniylarga nisbatan tez-tez hujum uyushtirib, ularni ta’qib ostiga oldi. Bu davrda oddiy va tinch fuqarolarga qilingan tajovuz va hujum asosan mazhab farqliligidan kelib chiqdi.⁴⁵

⁴⁵ USDOS, Country Reports on Human Rights Practices for 2007 – Iraq, 11 March 2008.

AQSH va xalqaro kuchlarning Iroqqa kirishi bilan Al-Qoida terrorchilik tashkilotining Iroqda bo‘linmasi tuzildi. Bu tashkilot Ansar Al Islom, Naqshbandiy Armiyasi, Djeysh Al Mahdi “Va’da qilingan kun brigadalari”, Asaib ahl al Haq (AAX), Kataib Hizbulloh (KH) kabi boshqa guruhlar qatori bir-birlari bilan, aksariyat hollarda tinch aholi o‘rtasida terrorchilik va partizanlik urushlarini olib bordi. Bu terror va fuqarolik urushlari asosan Iroqning Anbar, Salah-ad-Din, Naynav va Diyal provinsiyalarida o‘ta jiddiy ko‘rinishda bo‘lib turdi.⁴⁶ Bu provinsiyalarda sunniylarning hukumatga qarshi jiddiy noroziliklari bo‘lib o‘tdi. Ular Bag‘dodda ham hukumatga qarshi o‘z noroziliklarini kuchaytirdi. 2012-yilga kelib, Iroqdagi Al-Qoida va sunniylarning boshqa ekstremistik tashkilotlari birlashib, Iroq Islom Davlati (IID) tashkilotini tuzadi va 2013 yilga kelib uning nomi Iroq va Shom Islom Davlati (ISHID)ga o‘zgartiriladi. Ushbu terrorchilik tashkiloti Iroq va Suriyada xalifalik davlat tuzish o‘z maqsadi ekanini e‘lon qiladi.⁴⁷ Unga Abu-Bakir al-Bag‘dodiy rahbarlik qildi. Shundan so‘ng, ISHID tarafdorlari ixtiyoriy va majburiy tarzda ortib bordi. ISHID kuchlari mamlakatning Anbar provinsiyasidan boshlab Iroqning boshqa provinsiyalarini, hatto, uning yirik Mosul va Kirkuk shaharlarini ham qo‘lga kiritdi. Bag‘dod uchun kurash avj oldi. Suriyaning Idlib va boshqa ko‘plab shahar va qishloqlar ham qo‘lga kiritildi.⁴⁸

So‘nggi ma’lumotlarda, ISHID jangarilarining 2019-yilga kelib Iroqda yo‘q qilingani hamda ularning Suriyada deyarli qolmagani, kurdlar qo‘liga asr tushganligi ta’kidlanayotgan bo‘lsa-da, bu mojarolarning kelib chiqishining asosiy sabab bo‘lgan Suriya va Iroqdagi etnik va diniy konfessional muammo hali o‘z yechimini topganicha yo‘q. Bugungi kunda Iroqda ham,

⁴⁶ Guardian (The), The Iraq legacy: the awakening, 21 March 2008.

⁴⁷ BBC News, Isis rebels declare 'Islamic state' in Iraq and Syria, 30 June 2014.

⁴⁸ Guardian (The), Obama: “We don't have a strategy yet” to combat Isis militants, 28 August 2014; US, CRS, The “Islamic State” Crisis and U.S. Policy, 22 October 2014.

Suriyada ham sunniy-shia mojarosi shuningdek, kurdlar muammosi ochiq qolayotgan bo'lib, mazkur davlatlarda turli etnik va diniy, konfessional mojarolar, terrorchilik harakatlarining yuz berishi, ularning kelib chiqishi bilan bog'liq ko'plab xavf-xatarlarga saqlanib qolmoqda.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, Arab davlatlarida nafaqat diniy-konfessional muammolar, balki, arab millatchilik ruhiyati ham o'ta muhim masalalardan hisoblanadi. Masalan, Suriyada Hafiz Asad, Iroqda Saddam Husayn hukmronligi davrida arab millatchiligi masalasi ustuvor bo'ldi. Suriyaning Isroil bilan mojarolarida barcha suriyalik arablar konfessiyasi va dinidan qat'i nazar Hafiz Asadni qo'llab-quvvatlagandi. Ayni shu holat tufayli Iroq-Eron urushida Iroqlik arablar shia bo'lsa-da, Eronlik mazhabdoshlariga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Albatta, iroqlik shialar orasida Eronga qochib ketganlari ham bo'lgan, lekin umumiy jihatdan olib qaraganda, davlatlararo urush paytlarida Suriyada ham, Iroqda ham arab davlatchilik masalalari birinchi o'ringa qo'yilgandi.

Bundan tashqari, Livandan boshqa barcha Arab davlatlarining konstitutsiyasi va asosiy qonunlarida Islom dini va huquqiga iqtibos keltirib o'tilsa-da, konfessional jihatini ko'rsatmasdan Islom bir butun din sifatida talqin qilinadi.

Shunday bo'lsa-da, dinni rasmiy jihatdan qonunlashtirgan davlatlar dunyoda 43 ta bo'lsa, ularning ko'pchiligi Yaqin Sharqdagi Arab davlatlari hisoblanadi.

Islomda ummatga tegishlilik masalasi millat va millatchilikni inkor qilib kelgan. Shunday bo'lsa-da, millat va etnik masalalar hamda ular bilan bog'liq muammolar mintaqada mavjudligi ko'plab ilmiy ishlar va amaliyotda o'z isbotini topgan. Biroq mintaqadagi eng katta va jiddiy muammo – bu, konfessional muammo ekani, bu esa mintaqada yetakchilikka intilayotgan davlatlarning qo'lida muayyan siyosiy vosita yoki bo'lmasa ideologik qurol bo'lib xizmat qilayotganini inkor etib bo'lmaydi.

Shuningdek, mintaqadagi o'tgan asrning 50-yillaridan buyon o'z yechimini topmagan va topishi juda mushkul bo'lgan

Falastin–Isroil mojarosini hisobga oladigan bo‘lsak, Yaqin Sharq mintaqasidagi etnosiyosiy muammolarning jiddiy ekanini tasavvur qilish qiyin emas. Bugungi kunda bu mojarosi siyosiy leksikonda Arab–Isroil mojarosi deb emas, ko‘proq Falastin–Isroil muammosi deb aytilmoqda. Lekin oxirgi paytlarda Turkiyada muhofazakor AK (hamma ham bu qisqartmani tushunmaydi) partiyaning hokimiyatga kelishi bilan va Livandagi Hizbulloh tashkilotining an’anaviy dastakchisi, homiysi Eronning bu mojaroga jiddiy va keskin munosabatda bo‘lishi muammoning arablar doirasidan chiqib, musulmonlar doirasidagi muhokama mavzusi va markaziga aylanib borayotganidan dalolat bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yaqin Sharq davlatlarining shakllanishining ijtimoiy jihatlari murakkab va ko‘p qirrali jarayondir.

Mustamlakachilik va mustaqillik davrlari, diniy va etnik xilma-xillik, sinfiy tabaqalanish tizimi va iqtisodiy tengsizlik kabi omillar bu jarayonni shakllantirgan. Mintaqadagi ijtimoiy o‘zgarishlar, o‘zaro ziddiyatlar va tengsizliklar, zamonaviy siyosiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, Yaqin Sharq davlatlarida ayollar va boshqa ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi tenglik masalalari ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

2-§. Livan davlatchiligi va o‘ziga xos siyosiy tizimning shakllanishi tarixi

Livan insoniyatning tarixining ilk davrlaridan beri aholi yashab kelayotgan hududlardan biri hisoblanadi. O‘rta yer dengizi havzasini Osiyoning qolgan qismi bilan bog‘laydigan chorrahada joylashuvi, mazkur hududda turli xil til, din va madaniyatlarga ega odamlarning kelib o‘rnashishiga imkon berdi. O‘z tarixining turli davrlarida Livan turli xil imperiyalar jumladan ossuriyaliklar, bobilliklar, forslar, yunonlar, rimliklar, arablar, usmonlilar va fransuzlar hukmronligi ostida bo‘lgan. Shunga qaramay Livan hududida yashovchi aholi isyonga moyil

ekanliklari va hech qachon bosqinchilarga to'la bo'ysunmaganlari bilan ajralib turadi. Bunda Livanning tog'li qismi isyonchilarni himoya hududi bilan ta'minlagan. Dengizga yaqinlik esa Livanning butun tarixi davomida savdo markazi sifatida muhim mavqega ega bo'lishini ta'minladi. Ushbu savdo an'anasi Finikiyaliklardan boshlangan va ko'p asrlar davomida davom etgan va chet el hukmronligi va ichki nizolarning avj olgan davrlarda ham davom etgan.

Hozirda Livan deb nomlanuvchi hudud ilk bor tarixda miloddan avvalgi 3000-yillarda O'rtayer dengizi qirg'og'i bo'yidagi shaharlar va igna bargli o'rmonlardan iborat bo'lgan. Bu yerda kanonliklar (semit xalqi) yashagan. Ular binafsha (foinikies) bo'yoqlari sotganliklari tufayli yunonlar ularni "finikiyaliklar" deb atashgan. Qadimiy aholi kelib chiqqan shaharlariga ko'ra o'zlarini "Sidon odamlari" deb atashgan va o'z xalqlarini Kanon deb atashgan⁴⁹. Keyinchalik tog'ning nomi butun mamlakatga nisbatan qo'llanila boshlandi. "Livan" (Lebanon) nomining kelib chiqishi bir necha yo'l bilan tushuntirilishi mumkin, ammo eng keng tarqalgan fikr "Livan" nomi semitik ildiz laban yoki labnan "oq" degan ma'noni anglatadi. Tog'ning tepasida joylashgan ko'p yillik oq qor shunday nom berilishiga sabab bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Livanning dengiz va tog' oralig'ida joylashgan oq bo'r va ohaktosh devorlari ham bu nomning kelib chiqishiga hissa qo'shgan bo'lishi mumkin. Nomning yana bir izohi Xet va Xurrit tilidagi "sarv" va "archa" so'zlaridagi bo'lishi ham mumkin⁵⁰. Ehtimol, zamonaviy Livan bayrog'idagi kedr daraxti ham tog'ning, ham mamlakat nomining manbai bo'lishi mumkin. Turli qadimiy tillarda bu nom biroz farqni hisobga olmasa, juda o'xshash nomlar bilan keladi. Jumladan ibroniy tilida "Levanon",

⁴⁹ Political Society in Lebanon – A Historical Introduction (Oxford: Centre for Lebanese Studies, 1986).

⁵⁰ Abqarius, Iskandar Ya'qub, Nawadir al-Zaman fi Waqa'i` Jabal Lubnaa (London: Riad el-Rayyes Books, 1987).

finikiy tilida “Libnah”, ossuriy tilida “Labnanu” va xet tilida “Lablani” yoki “Niblani”.

Arab istilosi

Arablar Arabiston yarim orolidan butun sharqiy Oʻrta yer dengizigacha oʻz nazoratini oʻrnatish uchun harakatga kirishdilar. Ularning boshqa yerlarni zabt etishga intilishlari ham iqtisodiy zaruratdan, ham diniy eʼtiqodlaridan kelib chiqqan. Musulmon boʻlmaganlarga qarshi jihodga (muqaddas urush) daʼvat qilib, xalifa Abu Bakr (632-34) islomni Livan atrofidagi hududga olib keldi. U oʻz qoʻshinlarini uch guruhga boʻlib, birini Falastinga, birini Damashqqa, uchinchi qismini Iordan daryosi tomon harakat qilishga buyurdi. Qoʻmondon Xolid ibn Valid boshchiligidagi arab guruhlari 636-yilda Iordaniya shimoli-gʻarbiy qismidagi Yarmuk jangida gʻalaba qozonishdi. Yarmuk jangidan keyin xalifa Umar Umaviylar sulolasining asoschisi Muoviyani hozirgi Livanni oʻz ichiga olgan Suriyaga hokim etib tayinladi. Muoviya qoʻshinlarini Livan qirgʻoqlariga qoʻydi va Livanlik kema quruvchilardan Vizantiya hujumiga qarshi turish uchun dengiz floti qurishda yordam oldi. U, shuningdek, Livan togʻlarida oʻrnashib olgan va Vizantiya hukmdorlari tomonidan Vizantiya imperiyasiga tahdid soladigan har qanday arab bosqinining oldini olish uchun foydalanilgan kuchli xalq boʻlgan Maradaning hujumlarini toʻxtatdi. Bu davrda Arab qabilalarining bir qismi Livan va Suriya qirgʻoq hududlariga joylashdi. Abbosiylar esa Umaviylar davridagidan farqli oʻlaroq Livan va Suriyada qattiqqoʻl siyosat yurita boshladilar va bu bir qancha qoʻzgʻolonlarga sabab boʻldi. X-asr oxiriga kelib Tir amiri Abbosiylardan mustaqilligini eʼlon qildi va oʻz nomidan pul zarb qildi. Biroq, uning hukmronligi mustaqil arab musulmon sulolasi Misr fotimiylari tomonidan tugatildi⁵¹.

Arablar hukmronligining taʼsiri. Umaviylar va Abbosiylar davridagi arablar hukmronligi Sharqiy Oʻrta yer dengizi hududida chuqur iz qoldirdi va zamonaviy Livan jamiyatining tarkibi

⁵¹ Political Society in Lebanon – A Historical Introduction (Oxford: Centre for Lebanese Studies, 1986).

shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Aynan shu davrda Livan turli etnik va diniy guruhlarining boshpanasiga aylandi. Bu xilma-xil, guruhlarining mavjudligi oxir-oqibat Livan konfessional davlatining paydo bo'lishiga olib keldi, bunda turli diniy jamoalar hukumatda o'z sonlariga ko'ra vakillik qildilar. Livanga boshpana izlab kelgan guruhlardan biri shimoliy va markaziy Livanda yashovchi Melxitlar nomli kichik nasroniy konfessiyasi edi. Ular yunon katoliklari sifatida tanildilar, chunki yunon tili ularning ibodat tilidir. Ular asosan Biqo vodiysining markaziy qismida yashagan bo'lib, Zahle qal'asi ularning tayanchi edi. Arablar davrida yana bir diniy e'tiqod Livanda yoyildi. Misrning Fotimiy xalifasi Al Hakim (996-1021) o'zini Xudoning yerdagi mujassamlanishi deb e'lon qilgandan so'ng, uning ikki izdoshi Hamza va Daraziy uning qarashlariga asoslanib teologik konsepsiya ishlab chiqdilar. Darazi Misrni tark etib, janubiy Livanga joylashgandan so'ng bu aqidalarni va'z qilishni davom ettirdi. Uning izdoshlari druzlar nomi bilan mashhur bo'lib, nasroniylar va musulmonlar bilan bir qatorda zamonaviy Livandagi asosiy jamoalardan birini tashkil qiladi. Abbosiylar davrida falsafa, adabiyot va fanlarga, ayniqsa, Horun ar Rashid va uning o'g'li Al Ma'mun xalifaligi davrida katta e'tibor berilgan. Livan ushbu intellektual uyg'onishga katta hissa qo'shdi⁵². Tabib Rashid ad Din, huquqshunos Al-Avaziy va faylasuf Qusta ibn Luqo o'z sohalarida yetakchi bo'lganlar. Livanning Tir va Tripoli portlari to'qimachilik, keramika va shisha sanoati rivojlanib mamlakatda iqtisodiy yuksalish ro'y berdi. Livan mahsulotlari nafaqat arab mamlakatlarida, balki O'rta yer dengizi havzasida ham qadrlana boshlandi.

Livan tarixidagi navbatdagi katta voqea bu shubhasiz salib yurishlari edi. Salibchilar Quddusni egallab olgach, diqqatlarini Livan sohillariga qaratdilar. Tripoli 1109-yilda taslim bo'ldi. 1110-yilda Bayrut va Sidon qo'lga kiritildi. Tir shahri ancha vaqt qarshilik ko'rsatdi, ammo 1124-yilda uzoq qamaldan so'ng taslim

⁵² Political Society in Lebanon – A Historical Introduction (Oxford: Centre for Lebanese Studies, 1986).

bo'ldi. Garchi Salibchilar bu hududni bir asr o'tib butunlay qo'ldan chiqargan bo'lsalarda, ular mazkur hudud aholisi tarkibiga ta'sir ko'rsatdilar. 1291-yilda Akrening qulashi bilan yakunlangan salib yurishlarining ko'zga ko'ringan natijalari orasida qirg'oq bo'ylab ko'plab minoralar qoldiqlari, tepaliklar va tog' yonbag'irlaridagi qal'alar xarobalari, ko'plab cherkovlar ham bor. Salibchilarning Yaqin Sharq xalqlari bilan o'rnatgan barcha aloqalari ichida salibchilar bilan birga kurashgan Livan maroniylari bilan bo'lgani eng mustahkam aloqalardan edi. Ular maroniylarni Yevropa madaniyati bilan tanishtirdilar. Bu davrda maroniylar Muqaddas taxt (Vatikan) bilan ittifoq tuzdilar. Fransiya salib yurishlarining asosiy ishtirokchisi bo'lib, Fransiyaning mintaqaga va uning nasroniy aholisiga qiziqishi shu davrga to'g'ri keladi. Livan va Suriyadagi turli mintaqaviy va etnik guruhlar o'rtasidagi keskin to'qnashuvlar XIII-asrga xos bo'ldi. Yevropadan kelgan salibchilar, O'rta Osiyodan kelgan mo'g'ullar, Misrdan kelgan mamluklar bu hududda o'z ta'sirini o'rnatishga intilganlar. Hukmronlik uchun bu og'ir kurashda Mamluklar g'alaba qozonishdi. 1282-1516-yillar Mamluklar Kaspiy dengizining sharqidagi hududdagi turkman qullari va Qora dengiz va Kaspiy dengizi oralig'idagi Kavkaz tog'laridan kelgan cherkes qullaridan kelib chiqqan edi. Ularni Misrdagi musulmon Ayyubiy sultonlari o'z soqchilari sifatida olib kelishgan. Bu qullardan biri Muaz-Aybak 1252-yilda Ayyubiylar sultoni Al Ashraf Musoga suiqaqd uyushtirdi va Misr va Suriyada ikki asrdan ortiq hukmronlik qilgan Mamluklar sultonligiga asos soldi⁵³. XI-asrdan XIII-asrgacha shia musulmonlari Suriya, Iroq va Arabiston yarim orolidan Biqo vodiysining shimoliy qismiga va Bayrutning shimoli-sharqidagi tog'lardagi Kasravon mintaqasiga ko'chib kelishgan. Ular va cruzlar 1291-yilda mamluklar Yevropa salibchilari va mo'g'ullarga qarshi kurash bilan mashg'ul bo'lgan paytda qo'zg'olon ko'tardilar. Ammo salibchilarni daf qilgandan so'ng, mamluklar 1308-yilda qo'zg'olonni bostirishdi. Mamluklar tomonidan qilingan qatag'on

⁵³ Binder, Leonard (ed.), *Politics in Lebanon* (New York: Wiley, 1968).

va qirg'inlar tufayli shialar Kasravonni tashlab janubga ko'chdilar.

Mamluklar Vizantiya imperiyasi qulagandan keyin ham Yevropa va Yaqin Sharq o'rtasidagi munosabatlarni bilvosita rivojlantirdilar. Yaqin Sharqning hashamatli buyumlariga o'rganib qolgan Yevropaliklar ham savdo-sotiqni davom ettirishdi. Yaqin Sharq xalqlari esa daromadli Yevropa bozori bilan aloqalarni rivojlantirishdi. Geografik joylashuvi bilan qulay bo'lgan Bayrut savdo faoliyati markaziga aylandi. Livandagi turli jamoalar o'rtasidagi diniy nizolarga qaramay, intellektual hayot gullab-yashnadi va iqtisodiy farovonlik Usmonli turklari tomonidan Mamluk hukmronligi tugatilgunga qadar davom etdi.

Usmonlilar hukmronligi

Usmonlilar sultoni Salim I (1516-1520) forslarni mag'lub etib, mamluklar mamlakatiga hujum qildi. Suriyaga bostirib kirgan usmonlilar qo'shinlari 1516-yilda Halab shimolidagi Marj Dabaqda mamluklarning qarshiligini yengdi. Mamluklar va Usmonlilar o'rtasidagi to'qnashuv paytida Livan amirlari o'z taqdirlarini Damashq hokimi (posho) G'azzoliy bilan bog'ladilar. U Marj Dabaqda ular tomonida jang qilib, Usmonlilar ishonchini qozongan. Salim I Livan hukmdori Amir Faxr-ud-din I (1516-1544) ning notiqligidan ta'sirlanib, Livan amirlariga muxtoriyat maqomini berishga qaror qiladi. Usmonlilar ikki buyuk druz feodal oilalari – Ma'an va Shihoblar orqali Livanni XIX-asrning o'rtalarigacha boshqargan. Usmonlilar hukmronligi davrida "Buyuk Suriya" atamasi hozirgi Livan, Suriya, Iordaniya va Isroil tarkibiga kiradigan hududlarga nisbatan qo'llanilgan⁵⁴.

Ma'an oilasi Damashq hokimining buyrug'i bilan 1120-yilda Livanga bosqinchi salibchilardan himoya qilish uchun kelgan. Ular Livan tog'larining janubi-g'arbiy yon bag'irlarida joylashdilar va tez orada druzlar dinini qabul qildilar. Ularning hokimiyati Faxr-ud-din I davrida kuchaydi. Usmonli hukumati Ma'an oilasiga o'z qo'shinini tashkil etishga ruxsat bergan va

⁵⁴ Gordon, David, Lebanon: The Fragmented Nation (London: Croom Helm, 1980)

Faxr-ud-Din II (1570-1635) davrida bu sulola o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Faxr-ud-Din IIning Livan to'liq mustaqilligiga bo'lgan intilishlari fojiali tarzda yakunlangan bo'lsa-da, u Livanning harbiy va iqtisodiy rivojlanishini kuchaytirdi. Diniy bag'rikengligi bilan ajralib turadigan va maroniy nasroniyligini qabul qilgan Faxr-ud-Din II mamlakatdagi turli diniy guruhlarini yaxlit birlikka birlashtirishga harakat qildi. Livanning to'liq mustaqilligiga erishish uchun u Italiyadagi Toskana gersogi Ferdinand I bilan yashirin shartnoma tuzdi. Ular Usmonlilarga qarshi bir-birini qo'llab-quvvatlashga va'da berdi. Bu kelishuvdan xabar topgan Usmonli hukmdori Damashq hokimi Ahmad al-Hofizga Faxr-ud-Dinga hujum qilishni buyurdi. Al-Hofizning muntazam armiyasi hujumiga dosh bera olmasligini anglagan Livan hukmdori 1613-yilda Toskanaga jo'nadi. Do'sti Muhammad Posho Damashqqa gubernator bo'lganidan keyin 1618-yilda yana Livanga qaytib keldi⁵⁵.

Faxr-ud-Din Toskanadan qaytib kelgach, kuchli va intizomli qurolli kuchlar zarurligini anglab, moliyaviy resurslarini muntazam armiya qurishga sarfladi. Bu qo'shin o'zini 1623-yilda Damashq yangi hokimi deb e'lon qilgan Mustafo Posho Livan qo'shinining imkoniyatlarini past baholab, jangga kirib, Biqo vodiysidagi Anjarda qaqshatqich mag'lubiyatga uchratgani bilan o'zini ko'rsatdi. Livan hukmdorining g'alabasidan hayratda qolgan Sulton unga Sulton-al-Barr (Tog' sultoni) unvonini beradi. Toskanada bo'lganida Italiya madaniyati bilan yaqindan tanishgan Faxr-ud-Din armiya qurishdan tashqari, mamlakatni modernizatsiya qilish choralari ko'rdi. Toskana va Florensiya gersoglari bilan yaqin aloqalar o'rnatib, ular bilan diplomatik aloqalar o'rnatgach, mamlakatda farovonlikni oshirish maqsadida Italiyadan me'morlar, irrigatsiya muhandislari va qishloq xo'jaligi mutaxassislarini olib keldi. Shuningdek, u Livanning strategik mavqeini va uning hududini kengaytirib, Suriyadagi Palmiragacha qal'alar qurdirdi va Falastin ustidan nazoratni

⁵⁵ Political Society in Lebanon – A Historical Introduction (Oxford: Centre for Lebanese Studies, 1986).

qo‘lga kiritdi. Nihoyat, Usmonlilar sultoni Murod IV Livanning to‘liq mustaqillikka erishish yo‘lidagi harakatiga to‘sqinlik qilmoqchi bo‘lib, o‘sha paytda Damashq hokimi bo‘lgan Qutshukga Livan hukmdoriga hujum qilishni buyurdi. Bu safar Faxr-ud-Din mag‘lubiyatga uchradi va u 1635-yilda Istanbulda qatl etildi. Faxr-ud-Din II dan keyin Maan sulolasidan yetakchi chiqmadi. Shihoblar sulolasi 1697-yilda Ma‘anlarning o‘rnini egalladilar. Ular dastlab Suriyaning janubi-g‘arbiy qismidagi Xavran mintaqasida yashab, Livan janubidagi Taimdagi Vodi shahrida joylashdilar. Ular orasida eng ko‘zga ko‘ringani Bashir II bo‘lib, u o‘zidan oldingi Faxr-ud-Din II ni eslatardi. Uning davlat arbobi sifatidagi qobiliyati birinchi marta 1799-yilda, Napoleon Tirdan qirq kilometr janubda, Falastinning yaxshi mustahkamlangan qirg‘oq shahri Akkrani qamal qilganida sinovdan o‘tdi. Napoleon ham, Akkra gubernatori Al-Jazzar ham Shihob sulolasi rahbaridan yordam so‘rashdi. Biroq Bashir betaraf qolib, har ikkala tomonga ham yordam berishdan bosh tortdi. Akkrani zabt eta olmagan Napoleon Misrga qaytib keldi va 1804-yilda Al-Jazzarning o‘limi bilan Bashir uchun bu hudud raqobatchi kuch qolmadi. Bashir II Usmonlilar imperiyasidan ajralib chiqishga qaror qilgach, zamonaviy Misr asoschisi Muhammad Ali bilan ittifoq tuzdi va Muhammad Alining o‘g‘li Ibrohim Poshoga Akkra shahri qamalida yordam berdi. Bu qamal yetti oy davom etdi va 1832-yil 27-mayda taslim bo‘ldi. Misr qo‘shini Bashir qo‘shinlari yordamida 1832-yil 14-iyunda Damashqqa ham hujum qilib, uni zabt etdi.

Ibrohim posho va Bashir II dastlab qattiqqo‘l hukmronlik qildilar va katta soliqlar undirdilar. Bu amaliyotlar bir qancha qo‘zg‘olonlarga olib keldi va oxir-oqibat ularning hokimiyatini tugatdi. 1840-yil may oyida Bashirning sa‘y-harakatlariga qaramay, maroniylar va druzlar misrliklarga qarshi kuchlarini birlashtirdilar. Bundan tashqari, fransuzlarning Misrdagi siyosatiga qarshi chiqqan Yevropaning asosiy davlatlari (Angliya, Avstriya, Prussiya va Rossiya) 1840-yil 15-iyulda Usmonli hukmdori bilan London shartnomasini imzoladilar. Ushbu

shartnoma shartlariga ko'ra, Muhammad Alidan Suriyani tark etish so'ralgan. U buni rad etganida, 1840-yil 10-sentabrda Usmonli va ingliz qo'shinlari Livan qirg'oqlariga tushdi. Bu qo'shma kuchga duch kelgan Muhammad Ali chekindi va 1840-yil 14-oktabrda Bashir II inglizlarga taslim bo'lib, surgunga jo'natildi⁵⁶.

Diniy nizolarning boshlanishi

1840-yilda Usmonli sultoni Bashir III ni Livan tog'iga amir etib tayinladi. Ibrohim posho davrida nasroniylar va druzlar o'rtasidagi to'qnashuvlar yangi amir davrida yana avj oldi. Sulton 1842-yil 13-yanvarda Bashir III ni taxtdan ag'darib, Umar Poshoni Livan tog'iga hokim etib tayinladi. Biroq, bu yanada ko'proq muammolarni keltirib chiqardi. Yevropa davlatlarining vakillari sultonga Livanni nasroniylar va druzlar qismlariga bo'lishni taklif qilishdi. 1842-yil 7-dekabrda sulton bu taklifni qabul qilib, Bayrut voliysi Asad Poshodan o'sha paytda Livan tog'i deb atalgan mintaqani ikki tumanga: nasroniy voliy o'rinbosariga qarashli shimoliy tuman va Druzlar voliy o'rinbosari qo'l ostidagi janubiy tumanga bo'linishini so'radi. Ikkala amaldor ham Bayrutda yashovchi Voliy oldida javobgar bo'lishi kerak edi. Bayrut-Damashq savdo yo'li ikki tumanni ajratuvchi chiziq edi.

Livanning bu tarzda bo'linishi xato bo'ldi deyishimiz mumkin. Buning natijasida diniy oqimlar o'rtasidagi adovat kuchayib, tashqi kuchlar tomonidan kuchaytirildi. Misol uchun, fransuzlar nasroniylarni, inglizlar druzlarni qo'llab-quvvatladilar, Usmonlilar esa o'z nazoratini kuchaytirish uchun nizolarni qo'zg'atdilar. Bu keskinliklar 1845-yilning may oyidayoq nasroniylar va druzlar o'rtasida to'qnashuvga sabab bo'ldi. Yevropa davlatlari Usmonlilar sultonidan Livanda tartib o'rnatishni so'rashdi va buning uchun har bir tumanda majlis (kengash) tashkil etishni talab etishdi. Har bir majlis turli diniy jamoalarning vakillaridan iborat bo'lib, ular voliy o'rinbosariga

⁵⁶ Khalidy, Tarif (ed.), Land Tenure and Social Transformation in the Middle East(Beirut: American University of Beirut, 1984

yordam berish uchun mo'ljallangan edi. Og'ir soliqlar yuki ostida yashagan Kasravon dehqonlari Livan tog'ida hukm surgan yerga ega mulkdorlar amaliyotlariga qarshi isyon ko'targanlarida bu tuzum tartibni saqlay olmadi. 1858-yilda maroniy dehqonlar rahbari Tanyus Shahin yerga ega mulkdorlar tabaqasidan o'z imtiyozlarini bekor qilishni talab qildi⁵⁷. Bu talab rad etilgach, kambag'al dehqonlar Livan tog'i shayxlariga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, shayxlarning yerlarini talon-taroj qilib uylarini yoqib yubordilar. Livandagi xorijiy davlatlar manfaatlari ijtimoiy-siyosiy kurashlarni diniy mojarolarga aylantirdi va 1860-yilda 10000 ga yaqin maroniylarni, yunon katoliklari va yunon pravoslavlarini druzlar tomonidan qirg'in qilinishi bilan yakunlandi. Bu voqealar Fransiya vaziyatga aralashish imkoniyatini berdi. Buning oldini olishga harakat qilib, Usmonli hukumati tartibni tiklashga kirishdi.

1860-yil 5-oktabrda Fransiya, Angliya, Avstriya, Prussiya va Usmonli imperiyasidan tashkil topgan xalqaro komissiya 1860-yil voqealarining sabablarini tekshirish va Livan uchun yangi ma'muriy va sud tizimini tavsiya qilish uchun yig'ildi. Komissiya a'zolari 1842-yilda Livan tog'ining druzlar va nasroniylar o'rtasida bo'linishi qirg'in keltirib chiqargan sabab degan fikrga kelishdi. Shunday qilib, 1861-yil Livan tog'i hududi Suriya ma'muriyatidan ajralib chiqdi va Yevropa davlatlarining roziligi bilan Usmonli sultoni tomonidan tayinlangan livanlik bo'lmagan nasroniy mutasarrif qo'l ostida birlashtirildi. Mutasarrifga Livandagi turli diniy jamoalarning o'n ikki a'zosidan iborat ma'muriy kengash yordam berishi kerak edi. Livandagi bevosita Usmonli hukmronligi Birinchi jahon urushi oxirigacha amal qildi. Bu davrda Dovud Posho va Naum Posho kabi bir qancha hokimlar mamlakatni samarali va vijdonan boshqarganlariga qaramay umumiy tizim poraxo'rlik va adolatsizliklar ustiga qurilgan edi. Asosan tog'lar bilan chegaralangan hududda tirikchilik qila olmagan ko'plab livanlik nasroniylar Misr va

⁵⁷ N. Shehadi (eds), Lebanon: A History of Conflict and Concensus (Oxford and New York: Centre for Lebanon Studies and I.B. Tauris, 1988).

Afrikaning boshqa qismlariga, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika va Sharqiy Osiyoga ko‘chib ketishgan. Ushbu livanlik muhojirlarning Livandagi qarindoshlariga yuborgan pul o‘tkazmalari bugungi kungacha Livan iqtisodiyotida katta ulushga ega.

Livan savdo va diniy faoliyat markazi bo‘lishdan tashqari, XIX-asrning ikkinchi yarmida intellektual markazga aylandi. Xorijiy missionerlar butun mamlakat bo‘ylab maktablar tashkil etdilar. 1866-yilda Bayrutdagi Amerika universiteti, 1875-yilda Fransiyaning Avliyo Jozef universiteti tashkil etildi. Bir vaqtning o‘zida tashkil topgan intellektual elita Usmonlilar imperiyasi davrida turg‘unlashgan arab adabiyotiga yangi hayot baxsh etdi. Bu davrda ko‘plab nashrlar va yuqori samarali matbuot paydo bo‘ldi. Bu davr siyosiy faollikning ortishi bilan ham ajralib turdi. Abdulhamid II ning (1876-1909) qattiqqo‘l siyosati Bayrut va Damashqdagi nasroniy va musulmon natsionalistlarini yashirin siyosiy guruhlar va partiyalarga birlashishga undadi. Livanlik nasroniylarning ko‘pchiligi 1860-yilgi qirg‘inlar takrorlanishidan qo‘rqib, turklarning panislomiy siyosatidan xavotirda edilar. Ba‘zilar, ayniqsa maroniylar, Usmonli imperiyasini isloh qilish o‘rniga, ajralib chiqish haqida o‘ylay boshladilar. Boshqalar, xususan, yunon pravoslavleri, maroniylar hukmronligidan qochish uchun Livanni alohida viloyat sifatidagi maqomini qo‘llab-quvvatladilar. Bir qator livanlik musulmonlar esa Usmonlilar rejimini liberallashtirishga emas, balki uni saqlab qolishga intilishdi. Chunki sunniy musulmonlar ayniqsa, xalifalik bilan hamkorlikni ma’qul ko‘rar edilar. Ammo shialar va druzlar ozchilik maqomidan qo‘rqib, mustaqil Livan yoki status-kvoning davom etishini ma’qul ko‘rishdi.

Dastlab Arab islohotchi guruhleri o‘zlarining millatchilik maqsadlarini 1908-1909-yillarda inqilob uyushtirgan Yosh turklar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga umid qilishgan⁵⁸. Afsuski, yosh turklar hokimiyatni qo‘lga kiritgach, qatag‘on

⁵⁸ Randall, Jonathan, *Going All the Way: Christian Warlords, Israeli Adventurers and the War in Lebanon* (New York: Random House, 1984)

siyosatiga kuch berishdi. 1911-1913-yillarda Usmonli sultonligining ichki siyosiy ziddiyatlar girdobida qolgani va tashqi urushlarda qatnashgani sababli ular o'zlarining ko'plab liberal siyosatlaridan voz kechdilar.

Birinchi jahon urushi

Birinchi jahon urushi boshlanishidan oldingi davrda etnik kelib chiqish, shuningdek, til potentsial milliy davlatning asosiy mezoniga aylandi. Urushdan keyin esa mintaqada milliy davlatlarni shakllantirish bahonasida, fransuzlar va inglizlar sobiq Usmoniylar davlati hududini o'z ta'sir doiralariga bo'lib olishdi⁵⁹. Umuman olganda, Yevropa kuchlari turli etno-konfessional guruhlariga suveren hududlarga va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'lgan xalqlarni barpo etish uchun yetarli qonuniylikka ega bo'lgan subyektlar sifatida qaragan. 1914-1920-yillar mohiyatan Arab diyori siyosiy taqdiri yuzasidan bo'lib o'tkan muzokaralar bilan ajralib turdi.

1914-yil avgustida boshlangan Birinchi jahon urushi Livanda qo'shimcha muammolarni keltirib chiqardi. Bunga sabab Turklar Germaniya va Avstriya-Vengriya bilan ittifoq tuzgani edi. Turkiya hukumati Livanning muxtoriyat maqomini bekor qildi va o'sha paytdagi dengiz floti boshlig'i Jamol Poshoni Suriyadagi turk qo'shinlarining bosh qo'mondoni etib tayinladi va barcha vakolatlarga ega deb e'lon qildi. O'zining qattiqqo'lligi bilan tanilgan Jamol Posho Livanni harbiy yo'l bilan bosib oldi va arman mutasarrifi Ohannes Poshoni turk Munif Posho bilan almashtirdi. Livanda va Usmonli imperiyasining boshqa qismlarida, masalan, Armanistonda millatchilik avj oldi. 1915-yil fevralida Suvaysh kanalini himoya qilayotgan ingliz qo'shinlariga muvaffaqiyatsiz hujumidan hafsalasi pir bo'lgan Jamol posho o'z g'azabini Livan va uning xalqiga to'kdi. Keng tarqalgan ocharchilik va vabolardan yuz minglab odamlar vafot etdi. Livan o'z aholisining uchdan biridan ko'prog'ini yo'qotdi. Urush mamlakatni sayyohlar va yozgi mehmonlardan ham mahrum qildi

⁵⁹ Anderson, B. (2016 [1983]). *Imagined Communities. Reflections on the Origin and Spread of Nationalism*. Verso.

va chet eldagi qarindoshlari va do'stlarining pul o'tkazmalari bir necha oylarga kechikdi. Turk armiyasi poyezdlarida ko'mir o'rni foydalanish va harbiy maqsadlarda o'tin uchun daraxtlarni kesib tashladi.

Natijada Livan o'rmonlarining 60% dan ortig'ini yo'qotdi. 1916-yilda Usmonlilar hukumati Damashq va Bayrutda Usmonlilarga qarshi faoliyatda ayblab, yigirma bir suriyalik va livanlikni ommaviy ravishda qatl qildi. Hozirda 6-may har ikki davlatda shahidlar kuni sifatida nishonlanadi va Bayrutda qatl etilganlar maydoni shahidlar maydoni deb nomlana boshladi.

1918-yil sentyabr oyida ingliz generali Edmund Allenbi va Makkalik Sharif Husaynning o'g'li Faysal I ingliz va arab qo'shinlari bilan Falastinni egallaganlarida, Suriya va Livanni bosib olishga yo'l ochildi. 1920-yil aprel oyida Italiyada bo'lib o'tgan San-Remo konferensiyasida ittifoqchilar Fransiya Suriya va Livan ustidan mandat berishdi. Keyin Fransiya general Anri Guron mandat qoidalarini amalga oshirish uchun tayinladi.

Paradoks shundaki, Fransiya hukumatining katta Livan davlatini (keyinchalik, 1925-yilda to'rtta konfessiyaga asoslangan Suriya davlatini) barpo etish harakati Fransiya din va davlatning bo'linishi davrining eng yuqori cho'qqisiga to'g'ri keldi. Bu davrda ko'plab yetakchi shaxslar diniy muassasalarga yoki siyosiy va diniy ishlar o'rtasidagi har qanday bog'liqlikka (masalan, Jorj Klemenso, Pol Deschanel va Aleksandr Millerand) toqatsizlik bilan munosabatda edi. Nega fransuzlar Livanda diniy kelib chiqish asosida boshqaruv tizimni o'rnatishga intilishganligi haqidagi savolga javobning bir qismini Xobsbavmning xorijdagi imperialist hokimiyatlarining xatti-harakatlari haqida yozgan maqolalarida topish mumkin. Ular "traybalizm, kommunializm yoki boshqa odamlarni bo'linishga rag'batlantiradigan" g'oyalar va kuchlarni qo'llab-quvvatlashgan⁶⁰

Shu doirada yirik davlatlarning o'tgan asrdan beri davom etayotgan va tez-tez diniy "ozchiliklar"ni himoya qilish

⁶⁰ Hobsbawm, Eric J. (1992 [1990]). Nations and Nationalism Since 1780: Programme, Myth, Reality. Cambridge University Press.

bahonasida mintaqaga aralashuvi mahalliy diniy guruhlarining o'zlikni anglash jarayonini kuchaytirdi. Turli mazhabga mansub ozchiliklar: "Voqealarning bunday rivoji aholining diniy jamoalar nuqtai nazaridan o'z-o'zini qayta tasniflashini tushuntiradi"⁶¹. Shaxslarning ma'lum bir mazhabga yoki dinga mansubligi bo'yicha saralash bir qancha vositalar, jumladan, 1932-yilda fransuz mandati davrida bo'lib o'tgan rasmiy aholi ro'yxati orqali davom etdi. Shu yili o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri Livanning keyingi tarixiga, xususan siyosiy hokimiyatning taqsimlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Livanda liberal nuqtai nazarga ko'ra, milliy davlatning muhim elementlari mavjud emasdi. Natijada, Livan natsionalizmi boshqa bir an'anaviy elementga e'tibor qaratdi. Bu ham bo'lsa ma'lum bir milliy doirada yashash va qisman bo'lsa ham, umumiy tarix va geografiyaga asoslangan holda o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi. Biroq, yangi tuzilma uni fransuz mustamlakachiligi mahsuli deb hisoblagan arab natsionalistlariga, ayniqsa, Livan tog'idagi Mutasarrifatga tarixan aloqador bo'lmagan va Bayrut va Damashq viloyatlari tarkibiga kirgan hududlarni ajratib olgani uchun mos kelmadi. Davlatning jami maydoni mutasarrifatning maydonidan ikki baravar katta edi. Bundan tashqari, mamlakatga yangi qo'shilgan hududlar aholisi o'rtasida referendum yoki qandaydir bir so'rov turi o'tkazilmagan. Bayrutdagi arab natsionalizmi va livan natsionalizmi oqimlari o'rtasidagi ziddiyat shiddatli tus olib, ikki tomon tarafdorlari o'rtasida vaqti-vaqti bilan to'qnashuvlar bo'lib turardi⁶². Mandatga ko'ra, 1926-yilda yangi konstitutsiya asosida Livan Respublikasi tashkil topdi va vakillik kengashi tomonidan tasdiqlandi. 1922-yilda tuzilgan kengash yangi mamlakatning etno-konfessional demografiyasiga ko'ra tanlangan a'zolaridan

⁶¹ Dagher, G. (2008). Radicalisation de l'identité confessionnelle au Liban. In H. Bresc, G. Dagher, and Ch. Veauvy (eds), *Politique et Religion en Méditerranée: moyen âge et époque contemporaine* (pp. 321–331). Éditions Bouchène. page 327

⁶² Salibi, K. (2002 [1988]). *A House of Many Mansions. The History of Lebanon Reconsidered*. I.B. Taurus.

iborat edi⁶³. Yangi respublika diniy ozchiliklar yig'indisi sifatida paydo bo'ldi. Livandagi nizolar tarixini o'rgangan mutaxassislar ta'biri bilan aytganda "mazkur diniy ozchiliklar diniy guruhlardan ko'ra ko'proq qabilalarga o'xshardi"⁶⁴.

Bundan tashqari, yuqori martabali davlat idoralari faqat ma'lum guruhlariga (prezident maroniy, bosh vazir sunniy va uning o'rinbosari pravoslav xristian, parlament spikeri shia, armiya qo'mondoni maroniy bo'lishi kerak edi) ajratilgan. Bu tartib jamoaviylik mantig'idan chiqqan olmaydigan guruhlariga siyosiy maydonni jamoalararo taqsimlanishini ta'minlardi⁶⁵. Hatto mafkuraviy nuqtai nazardan guruhlararo partiyalar (Kommunistik partiya va Suriya Sotsial-milliy partiyasi) ham rejim tuzilmasi va qonunlari tomonidan o'rnatilgan konfessiyalar o'rtasidagi an'anaviy bo'linish haqiqatidan chetga chiqmadi.

Natijada, to'qnashuv paytlarida bu partiyalar ko'pincha ma'lum bir konfessiyaga oid partiyalar yoki yetakchilar bilan birga kurashgan. Shunday qilib, bu guruhlarning tarixiy evolyutsiyasi diniy ozchiliklarning ijtimoiy-siyosiy-tarixiy da'voga ega bo'lgan jamoalarga aylanishi⁶⁶ bilan tavsiflanadi va bu 1975-yildan 1990-yilgacha davom etgan fuqarolar urushi bilan yakunlanadi.

Mandat tizimining tugatilishi va konfessional tizimning o'rnatilishi.

⁶³ Rondot, P. (1979). Les communautés dans l'État libanais. Les Cahiers de l'association France Nouveau Liban, No 4. (1947). Les institutions politiques du Liban. Des communautés traditionnelles à l'État moderne. Institut d'Études de l'Orient Contemporain.

⁶⁴ Beydoun, A. (2016). Al-Rabî' Al-Fâ'it [The Missed Spring: The Plight of Homelands]. Arab Center for Research & Policy Studies. Page 87

⁶⁵ Méouchy, N. (2004). Le Pacte national 1943–1946. Les ambiguïtés d'un temps politique d'exception. In G. D. Khoury (ed.), Sélim Takla 1895–1945. Une contribution à l'indépendance du Liban (pp. 461–500). Éditions Karthala / Dar An-Nahar page 472

⁶⁶ Charaf, G. (2009). Communautés et État, communautés dans l'État – le cas du Liban. In L. Trócsányi and L. Congnard (eds), Statut et protection des minorités: exemples en Europe occidentale et centrale ainsi que dans les pays méditerranéens (pp. 267– 325). Établissements Émile Bruylant. Page 272

Livanda Fransiyaning mandat davri va undan keyingi konfessional siyosiy tizim mamlakatning ijtimoiy va siyosiy tuzilmasini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. 1920-1943-yillar davomida Livan Fransiyaning mustamlakasi sifatida boshqarildi. Biroq, 1943-yilda mustaqillikka erishilgach, Livan o'zining siyosiy tuzilmasini shakllantirishda, asosan, konfessional tizimni tanladi – bu tizim davlatni mazhablar asosida taqsimlashga qaratilgan edi. Bu tizim o'zining qisqa muddatli barqarorligi bilan ajralib turadi, biroq vaqt o'tishi bilan siyosiy va ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirishga sabab bo'ldi.

Yuqorida qayd etilganidek, Fransiya Livanda 1920-yilda “Katta Livan”ni tashkil qilib, mamlakatni o'z mandati ostida boshqarishni boshladi. Fransiya Livan hukumatini nazorat qilish orqali uning iqtisodiy, madaniy va siyosiy tuzilmasiga ta'sir o'rnatdi. Mandat davrida Livandagi musulmonlar va nasroniylar o'rtasidagi ziddiyatlar yanada kuchaygan bo'lsa-da, Fransiya bu guruhlar orasidagi raqobatni o'z foydasiga ishlatdi.

Biroq, Livandagi milliy mustaqillik harakati 1940-yillarda kuchayib, 1943-yilda Livan mustaqillikka erishdi. “Milliy Pakt” asosida Livanning mustaqilligi tan olindi, bu esa mamlakatda yangi siyosiy tizimning asoslarini qo'yishga olib keldi.

Livan mustaqillikka erishganidan so'ng, mamlakatda asosiy siyosiy tizim sifatida konfessional tizim tanlandi. “Milliy Pakt” orqali bu tizim rasmiylashtirildi. Paktda asosiy siyosiy lavozimlar o'rtasida quyidagi taqsimot o'rnatildi:

Prezidentlik lavozimi – maroniy nasroniylariga, ya'ni katolik maroniyalaridan bo'lgan shaxsga berildi.

Bosh vazir lavozimi – musulmon sunniylarga berildi.

Parlament – parlamentdagi vakillik, 6:5 nisbatida, maroniylar va musulmonlar o'rtasida taqsimlandi.

Konfessional tizimda Livandagi boshqa guruhlar, masalan, shia musulmonlari, druzlar va boshqa etnik va diniy guruhlar ham siyosatda o'z o'rinlarini egalladilar, ammo eng muhim lavozimlar va siyosiy ta'sir maroniylar va sunniylar o'rtasida taqsimlandi. Bu tizim mamlakatda ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga

qaratilgan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida siyosiy kuchlar o‘rtasidagi raqobatni yumshatishga xizmat qildi.

Konfessional tizim Livanda siyosiy barqarorlikni ta‘minlashga harakat qildi, ammo uning uzoq muddatli ta‘siri ko‘plab muammolarni keltirib chiqardi.

Birinchidan, konfessional tizimning asosiy muammolaridan biri siyosiy stagnatsiya bo‘ldi. Har bir mazhab o‘z manfaatlarini himoya qilishga intilib, siyosiy partiyalar va guruhlar o‘rtasida doimiy raqobat yuzaga keldi. Bu esa davlatni samarali boshqarish va islohotlar o‘tkazishga qiyinchiliklar tug‘dirdi. Livan tahlilchisi Favaz Gerges bu haqda shunday degan edi: “Konfessional tizim Livanni siyosiy islohotlardan chetlab o‘tishga majbur qildi va mamlakatdagi korrupsiyani kuchaytirdi”.⁶⁷

Ikkinchidan, konfessional tizimning zaif tomonlari Livan fuqarolar urushining boshlanishiga sabab bo‘ldi. 1975-1990-yillar davomida Livanda maroniylar va musulmonlar o‘rtasidagi siyosiy, mazhabiy va etnik tafovutlar keskinlashdi. Urushning sababi sifatida ko‘plab tarixchilardan biri, Raghid al-Solh, shunday ta‘kidlaydi: “Livan fuqarolar urushi, asosan, konfessional tizimning ijtimoiy muvozanatni yaratishdagi muvaffaqiyatsizligidan kelib chiqdi”.⁶⁸ Urushda mamlakatning turli guruhlari o‘rtasidagi mazhabiy ziddiyatlar o‘ta kuchayib ketdi.

Uchinchidan, Livanning ichki siyosatida mintaqaviy va xalqaro kuchlar ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Suriya va Isroil o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun Livandagi konfessional tizimdan foydalanishdi. Mintaqaviy va xalqaro aralashuvlar Livanda ijtimoiy ishonchsizlikni kuchaytirdi. Shuningdek, AQSh va Fransiya ham Livandagi siyosiy jarayonlarga ta‘sir o‘tkazgan.

Livanda mandat tizimining tugatilishi va konfessional tizimning o‘rnatilishi mamlakatning siyosiy tuzilmasining

⁶⁷ Gerges, Fawaz. *The New Middle East: The World After the Arab Spring*. Cambridge University Press, 2014.

⁶⁸ Al-Solh, Raghid. *The Politics of Sectarianism in Postwar Lebanon*. Ithaca Press, 1997.

asoslarini shakllantirdi. Mandat davri Livanning mustaqillikka erishish yo'lida qadam bo'lsa-da, konfessional tizimning taqsimlanishi Livandagi siyosiy barqarorlikni ta'minlashga intildi. Biroq, bu tizim ko'plab ziddiyatlar va noaniqliklarni keltirib chiqardi. Livan fuqarolar urushi kabi tarixiy hodisalar, konfessional tizimning davlatni samarali boshqarishda o'z chegaralariga duch kelganini ko'rsatdi. Shu sababli, Livanda yangi siyosiy tuzilma va barqarorlikka erishishning yo'li hali ham masala bo'lib qolmoqda.

Ikkinchi jahon urushi Angliya va Amerikaning fransuzlarga mandatni tugatish va Livanning mustaqil bo'lishi uchun bosimini kuchaytirdi. Bu bosqich (1943-1946) fransuz mandati qarshisida shakllangan livan vatanparvarligining paydo bo'lishi uchun uchqun bo'ldi. Ushbu yangi vatanparvarlik to'liqini ikki rahbar (respublika prezidenti Bachara Al-Xuriy va bosh vazir Riyod Al-Solih) o'rtasida hokimiyat taqsimotini yo'lga qo'yish bo'yicha yashirin kelishuv bo'lgan "Milliy pakt" deb atalgan hujjat bilan mustahkamlandi. Ularning har biri diniy jamoani (maroniylar va sunniylar) va loyihani (G'arb ta'sirining kengaytmasi sifatidagi Livan/Arab dunyosining va Suriyaning bir qismi bo'lgan Livan ifodalaydi. Institutlashgan konfessionalizmning asosi sifatida qabul qilingan paktning kuchi vaqt o'tishi bilan shakllangan ramziylikning natijasi edi. U jamoalarning integratsiyalashuvi tomon mamlakatning har qanday harakatini falaj qiladi.

Bu tartib burjua, feodal, ma'muriy va ruhoniylar tarkibiy qismidagi barcha an'anaviy hukmron qatlamlarni ham qoniqtiradi⁶⁹. O'sha paytdagi siyosiy tizim murakkab, eskirgan va hayratlanarli tengsizliklarni o'z ichiga olgan deb hisoblangan. Biroq, davlat uni asta-sekin o'zgartirishni maqsad qilgan holda, bu murosaga rozi bo'ldi.

Arab natsionalizmining cho'qqisi va tanazzuli

⁶⁹ Corm, G. (1998). Histoire du pluralisme religieux dans le bassin méditerranéen. Approche juridique et sociologique comparée. Librairie Orientaliste Paul Geuthner. Page 278

“Milliy Pakt” 1951-yilda Al-Solihning o‘ldirilishi, so‘ngra 1952 yilda Kamil Chamonning respublika prezidentligiga kelishi bilan asosiy muvozanati buzilganidan keyin tezda barbod bo‘ldi. 1958-yilda Livan o‘zligi uchun kurash yana shiddatli avj oldi. Bunga mintaqaviy voqealar (Jamol Abdul Nosir fenomeni va Birlashgan Arab Respublikasining tashkil topishi) prezident atrofida birlashgan hukumat tarafdorlari va bosh vazir atrofidagi muxolifat tarafdorlari o‘rtasidagi qurolli to‘qnashuv hamda va xalqaro holat (Eyzenxauer tamoyilining bir qismi sifatidagi Amerikaning Livanga harbiy intervensiyasi, neft inshootlarini himoya qilish va arab natsionalizmining g‘alabasini to‘xtatish, shuningdek, mintaqada Sovet Ittifoqining kuchayishini oldini olishga qaratilgan) mintaqadagi siyosiy notinchlikni yanada avj oldirdi. 1958-yildagi inqiroz Milliy paktdan chetlanish sifatida qaraldi va Amerikaning diplomatik aralashuvi muvozanatni tiklashga olib keldi. Bu Livan qurolli kuchlari qo‘mondoni Fuad Chehabning respublika prezidenti etib saylanishi bilan vaziyatning nisbatan yumshashiga olib keldi.

Shunday qilib, siyosiy-ijtimoiy ziddiyat konfessional xarakter kasb etdi va mamlakatni tashqi aralashuvga muhtoj zaif davlatga aylantirdi. Ammo bu davrda Livan shaxsiy, intellektual va ommaviy axborot vositalari erkinligiga ega edi. Bu nashriyotlar va kitob yarmarkalarining, xalqaro va mahalliy san’at va madaniy tadbirlarning gullab yashnashiga olib keldi. Shu bilan birga, bank sektori 1967-yilgi Arab-Isroil urushdan so‘ng neft pullari va Falastin kapitalining kirib kelishi tufayli yuksaldi. Livan xalqi falastinlik qochqinlar oqimi va Livan hududlaridan Isroilga qarshi partizan operatsiyalari uchun baza sifatida foydalanish muammosi bo‘yicha keskin ikkiga bo‘lingan bo‘lib (Livan natsionalistlari, arab natsionalistlari va so‘lchilarga qarshi), Isroil aksariyat hollarda Livan fuqarolik obyektlarini bombardimon qilish bilan javob qaytargan. Har ikki lagerda konfessiyalar o‘rtasida kelishuv yo‘qligiga qaramasdan, rejim tuzilmasi tez orada siyosiy mojaroga konfessional xarakter baxsh etdi va

siyosiy manyovrlar uchun har qanday imkoniyatlarni keskin cheklab qo'ydi.

1991-yildan keyingi Livan davlatchiligidagi inqirozlar

1991-yildan keyingi Livan davlatchiligi mamlakatning tarixidagi eng muhim o'zgarishlarni o'z ichiga oldi. Livan, 1975-1990-yillardagi fuqarolar urushidan (Livan fuqarolar urushi) keyin, qisman barqarorlikni tiklashga muvaffaq bo'lgan bo'lsa-da, mamlakatda siyosiy va ijtimoiy tizimlarning yangilanishi uchun ko'plab muammolar mavjud edi. Ushbu davrda Livan nafaqat o'z ichki nizolarini hal qilishga, balki mintaqaviy va xalqaro ta'sirlarga ham javob berishga majbur bo'ldi.

Livan fuqarolar urushi (1975-1990) mamlakatni 15 yil davomida deyarli barqarorlikdan mahrum etgan edi. Urushda konfessional tizimning zaifliklari, mintaqaviy va xalqaro kuchlarning aralashuvi hamda ichki siyosiy raqobatlar asosiy sabab bo'ldi. 1990-yilda urushga yakun yasagan "Ta'if Shartnomasi" imzolandi. Ushbu shartnoma Livandagi siyosiy va ijtimoiy tizimni qayta tashkil etish, mamlakatda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan muhim qadam edi.

"Ta'if Shartnomasi" Livan fuqarolar urushining rasmiy tugashi va yangi siyosiy tizimning shakllanishiga asos soldi. Shartnoma quyidagi muhim o'zgarishlarni o'z ichiga oldi:

- Prezidentlik lavozimi hali ham maroniy nasroniylariga tegishli, ammo mamlakatdagi boshqa barcha lavozimlar o'rtasida konfessional taqsimot o'zgartirildi.

- Suriya Livanning siyosiy va harbiy sohasida katta ta'sirga ega bo'ldi. Suriya, de-fakto, Livanni o'z ta'siri ostida ushlab turdi va 2005-yilgacha Livanda harbiy ishtirokini davom ettirdi.

Shartnoma, shuningdek, Livandagi barcha fuqarolarni teng huquqli fuqarolar sifatida ko'rishga, siyosiy barqarorlikni ta'minlashga, va yangi ijtimoiy hamjihatlikni yaratishga intildi. Biroq, vaqt o'tishi bilan bu tizimni amalga oshirishdagi muammolar ham yuzaga keldi.

1990-yillardan 2000-yillarning boshlarigacha Livan bir qator siyosiy va iqtisodiy islohotlarga qaramay, ko'plab muammolar

bilan yuzlashdi. Siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi eng katta qiyinchiliklardan biri, Livan ijtimoiy tuzilmasining murakkabligi va konfessional tizimning davom etishi bo'ldi. Konfessional tizimning o'zi bunday barqarorlikni saqlashda ba'zan to'siq bo'lib qoldi, chunki har bir guruh o'z manfaatlarini himoya qilishga intiladi.

1990-yildan keyin Livan o'zining ichki islohotlarini amalga oshirishga qaratilgan siyosatni olib bordi, ammo bu jarayonda Suriyaning Livan siyosatidagi ta'siri nihoyatda kuchli bo'ldi. Suriya Livan orqali o'zining mintaqaviy manfaatlarini ta'minlashga harakat qildi. Livan davlatining rasmiy hokimiyatlari ko'plab hollarda Suriyaga qarshi siyosat yuritishga qodir emas edi. 1990-yillarda Suriya Livanda harbiy va siyosiy ta'sirini kengaytirdi, shuningdek, Livanning ichki siyosatiga aralashdi. Hafiz Asad va keyinchalik Bashar Asadning Livandagi ta'siri 2005-yilgacha davom etdi, ammo 2005-yilda Livanning sobiq bosh vaziri Rafiq Haririning o'ldirilishi Suriya ta'sirini tugatishga olib keldi. Sababi mazkur qotillik ketidan Livanda siyosiy inqilob boshlandi. Bu hodisa Livandagi katta ijtimoiy harakatlarni kuchaytirdi va Livandagi Suriya ta'siriga qarshi bo'lgan siyosiy to'liqlarni yuzaga keltirdi. Qotillikdan keyin "Yangi Livan" harakati boshlanib, mamlakatda Suriya kuchlarining Livandan chiqarilishini talab qilgan ko'plab ko'cha namoyishlari va xalq harakatlari yuzaga keldi.

2005-yilgi inqilob Suriya kuchlarining Livandagi mavjudligini tugatdi va ularni mamlakatdan chiqarishga olib keldi. Livan mustaqilligi mustahkamladi, ammo ichki siyosiy barqarorlik hali ham muammolarni keltirib chiqarmoqda edi.

2005-yildan keyingi yillarda Livan siyosiy tizimi yanada murakkablashdi. Siyosiy raqobatlar va ichki ziddiyatlar yana kuchayib ketdi. 2006-yilda Hizbulloh va Isroil o'rtasida urush yuzaga kelgan va Livanda xavfsizlik muammolari yangilangan edi. Livanning Hizbulloh va "14-mart Alliansi" kabi siyosiy bloklar o'rtasidagi ziddiyatlar davom etdi. Bu siyosiy tangliklarni kuchaytirgan bir holat edi.

Bugungi kunda Livanda siyosiy tizimni yaxshilashda va barqarorlikni ta'minlashda ko'plab muammolar mavjud. Konfessional tizimning davom etishi, mazhabiy qarama-qarshiliklar, iqtisodiy inqiroz va mintaqaviy xavfsizlik tahdidlari mamlakatni yanada zaiflashtirmoqda. 2019-yildan boshlab, Livanda iqtisodiy inqirozning kuchayishi, korrupsiya, energiya ta'minoti va iqtisodiy o'sishning pasayishi kabi masalalar mamlakatni siyosiy va ijtimoiy jihatdan chuqur inqirozga olib keldi.

Umuman olganda, fuqarolar urushidan so'ng mamlakatda barqarorlikka erishish va yangi siyosiy tizimni yaratish uchun qilingan harakatlar ko'p jihatdan muvaffaqiyatli bo'lsa-da, konfessional tizimning davom etishi va mintaqaviy tahdidlar Livan siyosatining kelajagini hali ham noaniq qilib qo'yadi. Shuningdek, xalqaro siyosiy ta'sirlar va ichki ziddiyatlar mamlakatning mustahkam davlat tizimini yaratishga hali ham to'siq bo'lib qolmoqda.

II BOB. ZAMONAVIY LIVANDA IJTIMOIIY ZIDDIYATLAR SHAROITIDA HIZBULLOH OMILINING KUCHAYISHI

1-§. Livanda ijtimoiy ziddiyatlar va fuqarolar urushi

Monografiyaning yuqoridagi paragraflarida Livan davlatchligi qadimdan hozirga qadar bosib o'tgan davri umumiy ko'rib chiqildi. Mazkur bobda esa zamonaviy Livanning so'ngi 80 yillik davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tahlili batafsil keltiriladi.

Livan mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng musulmon va nasroniy jamoalari o'rtasidagi murosas bo'lgan 1943-yildagi Milliy paktga muvofiq, davlat tuzilishining asosi konfessionalizm tamoyiliga, ya'ni diniy-jamoaviy tamoyil asoslanishi ko'zda tutildi. Xususan, parlamentdagi deputatlik o'rinlari xristianlar (ular orasida maroniylar, pravoslavlar, katoliklar, protestantlar, arman-grigorian cherkovlari tarafdorlari ham bor) va musulmonlar (sunniylar, shialar, druzlar) o'rtasida qat'iy 6:5 nisbatda taqsimlangan⁷⁰. Shu bilan birga, alohida diniy jamoalarning deputatlari soni aniq ko'rsatildi (ulardan Livanda 16 tasi bor). Uchta asosiy o'rinlar quyidagicha taqsimlandi:

- birinchidan, konstitutsiyaga ko'ra, eksklyuziv vakolatlarga ega bo'lgan faqat maroniy respublika Prezidenti bo'lishi mumkin edi;

- ikkinchidan, bosh vazir lavozimi sunniy musulmonlarga berildi;

- nihoyat, shialar vakili parlament spikeri lavozimini egallaydigan bo'ldi.

Bundan tashqari, konfessionalizm Livan jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha sohalariga tom ma'noda kirib bordi va salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jamoaviy-diniy nizo Livandagi eng murakkab ichki siyosiy

⁷⁰ Joseph Chamie 1976/77 World affairs journal vol.139, No3 pp.171-188, The Lebanese civil war: an investigation into the causes

omillardan biriga aylandi, ayniqsa ko‘plab jamoalar avval siyosiy tashkilotlarni, keyin esa qurolli guruhlarini qo‘lga kiritganini hisobga olsak. Milliy pakt Livan jamoalarining tengsiz mavqeini mustahkamladi, bu esa xristian konfessiyalari vakillariga, asosan maroniylarga siyosiy, moliyaviy, iqtisodiy va boshqa ba'zi sohalarda ustunlik berdi. Ular armiya va xavfsizlik xizmatida qo‘mondonlik postlarini ham egallagan. Livan jamiyati rivojlanishining ma‘lum bosqichlarida diniy-jamoaviy murosa tinchlik garovi bo‘lib xizmat qilgan, ammo konfessional tizimning qonuniylashtirilishi vaqt o‘tishi bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvolning yomonlashishiga olib keldi.

Jamoalarning izolyatsiyasi esa ularning har biri nisbiy yakkalanib, qo‘shnilari bilan doimiy raqobat sharoitida o‘z mavqeini mustahkamlashga, diniy va madaniy an‘analarini saqlab qolishga intildi, bu esa turli dinlarga mansub livanliklar o‘rtasida madaniy va etnik tafovutlarni muqarrar ravishda keltirib chiqardi.

Livan xristian elitasi an‘anaviy ravishda G‘arb bilan, birinchi navbatda, Fransiya va Vatikan bilan bog‘langan; Shialar, tabiiyki, shia davlatlari - Eron va boshqalarga e‘tibor qaratdilar. Bu omillar birgalikda jamiyatda qarama-qarshilik kuchayishiga zamin yaratdi, bunday holatda Livanning yagona va mustaqil davlat sifatida mavjudligi tahdid ostida edi.

Mamlakat aholisining musulmon qismining tez o‘sishi, falastinliklar oqimi, shuningdek, musulmon oilalarida tug‘ilishning yuqoriligi (1943-yildagi Milliy pakt qabul qilinishi arafasida musulmonlar sonining 48,8 foizini tashkil etgan bo‘lsa fuqarolar urushi boshlangan 1975-yilda - 62,5% va urush tugagan paytda - taxminan 64%)⁷¹, musulmonlarning siyosiy faollashuvi bilan birga, konfessiyaviy tizimning doimiy keskinlik manbaiga aylanishini taqozo etdi.

Falastin muammosi asta-sekin Livanda muhim o‘rin egalladi. Minglab falastinlik qochqinlar Livan tuprog‘ida boshpana topdilar va 1970-yilgi Iordaniya voqealaridan keyin

⁷¹ Samir Maksidi, Richard Sadaka: The Lebanese civil war, 1975-90, Understanding civil war: evidence and analysis, World Bank

Livan Falastin Ozodlik Harakatining (FATH) asosiy tayanchiga aylandi. 1969-yilda Misr prezidenti vositachiligida Livan hukumati va Falastin ozodlik Harakati o'rtasida tuzilgan Qohira shartnomasi mazkur tashkilotning Livandagi harbiy-siyosiy faoliyatining huquqiy asosi bo'ldi. 1948-1949-yillardagi birinchi arab-isroil urushidan keyin deyarli o'ttiz yil ichida Livanda falastinliklar soni 110 mingdan 400 mingga ko'paygan⁷². Bu yerda, boshqa arab davlatlaridan farqli o'laroq, bir qator sabablar tufayli "Falastin omili" muhim katolizatorlardan biriga aylandi. Falastinliklarning Livandagi mavjudligiga munosabat turlicha edi. Falastin muammosi atrofidagi keskinlikning kuchayishi o'tgan asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari boshlarida mamlakatning turli hududlarini qamrab olgan ijtimoiy inqirozning kuchayishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi va bu Livan jamiyatining keskin qutblanishiga olib keldi. Livan milliy vatanparvarlar kuchlari (NPF), uning tarkibidagi Progressiv sotsialistik partiya (PSP, 1949-yilda taniqli ijtimoiy va siyosiy arbob, druzlar jamoasi rahbari K. Jumblatt tomonidan tuzilgan), Livan Kommunistik partiyasi va boshqa so'l qanot tashkilotlari Falastinliklar tomonida edi. Shu bilan birga, bir qancha musulmon guruhleri falastinliklarni qo'llab-quvvatlab chiqishdi.

O'ng qanot xristian bloki bu masala bo'yicha mutlaqo qarama-qarshi fikrda bo'lib ularga "Kataib" (Falangachilar), "Milliy blok", Kamil Shamun milliy liberal partiyasi va boshqalar kirardi. Mavjud kuchlar muvozanatining har qanday o'zgarishidan qo'rqib, jamiyatda bu blok rahbarlari Falastinga qarshi pozitsiyani egalladilar. Ular mamlakatning chuqur inqirozga tushib ketishida aybni faqat Falastinning mavjudligiga yuklamoqchi bo'ldilar, shu bilan birga mamlakatdagi keskinlikning boshqa jiddiy sabablarini e'tiborsiz qoldirdilar. Ular Livanni o'sha paytdagi pan-arab (anti-Isroil) pozitsiyasidan olib chiqishga umid qilishgan. Vaziyatni Isroilning 1968-yildan buyon doimiy provokatsiyalari va qurolli hujumlari obyektiga aylangan

⁷² Michael C. Hudson Middle East Journal, vol.32, No 3 pp.261-278: The Palestinian factor in the Lebanese civil war.

Livanga qarshi tajovuzkorligi yanada ogʻirlashtirdi. Ayniqsa, Livan janubi aziyat chekdi. Isroil qoʻshinlarining u yerga bostirib kirishlari koʻplab tinch aholining qurbon boʻlishiga olib keldi. Shu bilan birga, Livanning oʻng qanot kuchlari Tel-Avivning agressiv harakatlarini himoya qilib, ularni Falastin qarshilik koʻrsatish harakatlariga javob choralari deb atadi. Qayd etib oʻtish kerakki Falastinliklarga Livan fuqaroligi berilmagan hamda Livan janubida yashardilar. Mazkur hudud FATH ning ham bazasiga aylandi hamda Isroilga uyushtirib turiladigan zarbalar mazkur hududdan amalga oshirilardi.

Livan Fuqarolar urushi xaritada



Manba: wideangle.com

Livandagi fuqarolar urushining debochasi Kataib partiyasi boshchiligidagi o'ng qanot nasroniy kuchlari, ba'zan Livan armiyasi ko'magida (1969-yildagi Qohira kelishuvini buzgan holda) sodir bo'lgan qurolli to'qnashuvlar edi. Mazkur vaziyatda Falastinlik brigadalar, So'lbchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. 1974-yil boshida Isroil samolyotlari Livan hududiga chuqurroq havo hujumlarini uyushtira boshladi. Shu bilan birga, Isroil tomonidan tashqaridan qilingan bosim vaziyatning keskinlashishiga olib keldi. 1975-yilning bahoriga kelib Livanda portlovchi vaziyat yuzaga keldi: bir uchqun fuqarolar urushi alangasini yoqish uchun yetarli edi. Bu uchqun 1975-yil 13-apreldagi voqealar edi, o'shanda Bayrut chekkasida falangachilar falastinliklar va livanliklarni olib ketayotgan avtobusga hujum qilgan va natijada 27 kishi halok bo'ldi - bu Livanda uzoq muddatli fuqarolar urushiga aylangan keng ko'lamli qurolli mojaroning boshlanishi edi. Livan diniy qarashlar bo'yicha ikki lagerga bo'lingan. Kataib va uning ittifoqchilari xristian hududlarini, Milliy vatanparvarlar bloki esa asosan musulmon hududlarini, jumladan, poytaxt Bayrutni nazorat qilgan. Milliy vatanparvarlar tarkibiga Progressiv sotsialistik partiya, Livan Kommunistik partiyasi va unga qo'shni bo'lgan so'l Kommunistik Harakat Tashkiloti, shuningdek, Baas partiyasining Suriya va Iroq tarafdori bo'lgan tashkilotlari, Mustaqil nosirchilar harakati (Misrparast) kirgan. Mazkur allyans yaratilishida va unga rahbarlik qilishda druzlar yetakchisi K. Jumblatt katta rol o'ynagan. Livan vatanparvarlari allyansi (LNM) Livan demokratik birlik partiyasi (PYD) bilan yaqin ittifoqda harakat qildi. Ularga o'ng qanot kuchlari koalitsiyasi - P.Jamail boshchiligidagi yuqorida aytib o'tilgan Kataib partiyasi, Kamil Shamun milliy liberal partiyasi, ekstremistik "Sidar himoyachilari fronti" va boshqalar qarshilik ko'rsatdi. Ushbu lager AQSh va Isroil tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

1975-yil avgust oyida o'ngchilar (LNM) bloki Livanning uzoq davom etgan inqirozidan chiqish yo'li haqidagi qarashlarini aks ettiruvchi "Siyosiy rejimni demokratik isloh qilish" dasturini

ilgari surdi⁷³. Uning asosiy takliflari quyidagilardan iborat edi: tub islohotlarni amalga oshirish, Livanning siyosiy va davlat tizimini takomillashtirish; Konstitutsiyadagi demokratik o'zgarishlar; konfessionalizm tizimini bekor qilish; Livan-Falastin munosabatlarini "tartibga solish"; dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish; xorijiy kapitalning hukmronligiga va Livanning ichki ishlariga tashqi aralashuvga urinishlariga qarshi kurash. Ushbu hujjat birinchi marta konfessiyaviy tuzumni yo'q qilish talabini ilgari surdi, uning mavjudligi mamlakatdagi siyosiy bo'linishlarning diniy-jamoa kanaliga o'tishini oldindan belgilab berdi. Qolaversa demografik jarayonlarni (ya'ni 1943-yildan beri sodir bo'lgan turli diniy jamoalar o'rtasidagi son nisbatidagi o'zgarishlar) hisobga olgan holda, faqat davlat organlaridagi vakillik nisbatlarini qayta ko'rib chiqish orqali erishishni taklif qilishdi. Musulmonlar nasroniy aholidan ko'p bo'lib, markaziy davlat organlarida munosib vakillikni ta'minlashga intildilar va hukumat va bosh vazirning mamlakat hayotidagi roli va salmog'ini oshirish tarafdori edilar. Maroniylar siyosiy va boshqa sohalarda imtiyozlarni saqlab qolish uchun hamma narsani qildilar.

Mazkur dastur nasroniy rahbariyati tomonidan rad etildi va an'anaviy musulmon yetakchilarining qo'llab-quvvatlashini olmadi. 1975-yil yozining oxirida harbiy harakatlar yangidan avj oldi. Mojaro ko'lamini kengayib, tobora ko'proq aholi yashaydigan hududlarni qamrab oldi. Tez orada shahar atrofidagi hududlardagi janglar Bayrutga tarqaldi. Poytaxt urushayotgan tomonlar - sharqiy (xristian) va g'arbiy (asosan musulmonlar) tomonidan boshqariladigan ikki qismga bo'lingan. Bu yerda shiddatli janglar boshlandi. 1976-yil boshida o'ng qanot nasroniy kuchlari musulmon mahallalari va falastinlik qochqinlar lagerlariga qarshi keng miqyosli hujum boshladi va ularni bir necha oylik qamal ostida qoldirdi. Vaziyat armiya to'qnashuvga jalb

⁷³ Muadth Malley The Lebanese civil war and the Taif accord: conflict and compromise engendered by institutionalized Sectarianism, The history teacher, vol.52, No.1 (November 2018), pp. 121-159.

qilinganligi sababli murakkablashdi. Armiyada, umuman Livan jamiyatida bo'lgani kabi, diniy yo'nalish bo'yicha bo'linish sodir bo'lgan bo'lib musulmon va nasroniy qismlarga bo'lingan, faqat ma'lum harbiy qismlargina neytral pozitsiyani saqlab qolgan. 1976-yil bahorida harbiy tashabbus LNM qo'liga o'tdi, hamda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi: 1976-yil iyuniga kelib ular mamlakat hududining 82 foizini nazorat qildilar, bu hududlarda aholining 75 foizi yashagan. Livandagi voqealarni Livan bilan "maxsus munosabatlar" tamoyiliga amal qilgan qo'shni Suriya yaqindan kuzatib bordi. Urush boshlanganidan beri Suriya Bayrutga vositachilik missiyalarini yuborib, mojaroni hal qilish uchun bir necha bor o'z rejalarni taklif qildi - ammo urushayotgan tomonlarning murosasizligi tufayli ular behuda yakunlandi. Suriya 1976-yil 1-iyun kuni fuqarolar urushini tugatishga yordam berish bahonasida Livan mojarosiga bevosita aralashdi, o'shanda kuchlar ustunligi aniq LNM tomonida edi. Bunday sharoitda Suriya qo'shinlarining kirib kelishi vaziyatni juda murakkablashtirdi. LNM kuchlarini kuchsizlantira boshlagan Suriya armiyasi asta-sekin mamlakat markazidagi Biqo vodiysini, shimolda Tripoli va janubdagi hududlarni egallab oldi. Voqealarning bunday rivojlanishi o'ng qanot nasroniy kuchlarining faolligini oshirdi, bu esa "vatanparvarlar" bo'linmalariga yangi zarbalar berdi. Bir muncha vaqt o'tgach, Suriya harbiy kontingentining (35 ming kishi) Livanda bo'lishi Arab Ligasi (1976-yil oktyabr) qarori bilan qonuniylashtirildi: unga ko'ra, suriyaliklar "Arab tinchlikparvar kuchlari" ning asosini tashkil qilishdi (MSF). "Arab tinchlikparvar kuchlari" Suriyadan tashqari, Saudiya Arabistoni, Janubiy va Shimoliy Yaman, BAA, Sudan va Liviya bo'linmalarini o'z ichiga olgan. Noyabrga kelib, harbiy harakatlar to'xtadi⁷⁴. Livandagi birinchi yarim yillik urushning natijasi katta insoniy yo'qotishlar, moddiy zarar va mamlakat bo'ylab tarqalgan diniy yo'nalishi bo'yicha

⁷⁴ Fred H.Lawson Syria's intervention in the Lebanese civil war,1976: A Domestic conflict explanation, International organization, Vol.38, No.3 (Summer 1984), pp.451-480.

bo‘linish xavfi edi. Ayni paytda qurolli mojaroga olib kelgan sabablar bartaraf etilmagan edi. LNM va PYD bloki sezilarli darajada zaiflashdi, garchi 1977-yilda bu kuchlarning Damashq bilan hamkorligi rasman tiklangan. Milliy vatanparvar kuchlarga yana bir kuchli zarba 1977-yil 16-martda blokning tan olingan yetakchisi, progressiv sotsialistik partiya raisi K.Jumblatt Livan tog‘idagi qarorgohidan ketayotib yo‘lda halok bo‘lganida berildi. Vaziyatning barqarorlashuviga Isroilning Livan janubidagi PYD pozitsiyalari va qochqinlar lagerlariga muntazam zarba berishda davom etgan harakatlari yanada to‘sqinlik qildi. Bu sektor, mamlakat bosh vazirlaridan birining so‘zlariga ko‘ra, “Livanning qon oqib turuvchi yarasiga” aylandi.

1977-yil boshida Livan armiyasining sobiq mayori Saad Haddodning qurolli kuchlari Livanning Isroil bilan chegarasidagi zonani nazoratga oldi. Isroilning qo‘llab-quvvatlashini ta‘minlab, u bu erda “ozod Livan davlati” ni yaratish bo‘yicha separatistik g‘oyani ilgari surdi. Livan hukumatining mamlakat janubida hokimiyatni tiklashga qaratilgan barcha urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Natijada qarama-qarshiliklar susaymadi. Bundan tashqari, raqiblarning tarkibi doimiy ravishda o‘zgarib turardi. Bu yerda barchaning bir-biriga qarshi kurashganga o‘xshardi. Rasmiylarning milliy totuvlikka qaytishga urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Shunday qilib, 1978-yil fevral-oktyabr oylarida o‘ng qanot nasroniy kuchlari va “Arab tinchlikparvar kuchlari” tarkibiga kiruvchi Suriya bo‘linmalari o‘rtasida janglar bo‘lib o‘tdi. Bu qarama-qarshilik kelajakda (xususan, 1981-yil boshida va undan keyin) qaytaladi. Taxminan bir vaqtning o‘zida o‘ng qanot xristian lagerida qurolli jang bo‘lib o‘tdi va Kataib partiyasi o‘z gegemonligini mustahkamladi. Livandagi Eron “islom inqilobi” ta‘siri ostida, shuningdek, ikki tashkilot - yarim dunyoviy Amal va radikal fundamentalist Hizbullohning paydo bo‘lishi va o‘zaro raqobatida ifodalangan shia harakatining kuchayishi kuzatildi. Falastinliklar va shialar, shialar va so‘lchilar va boshqalar o‘rtasida ko‘plab to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. Shu o‘rinda

so'lichilar saflarida jiddiy tafovutlar paydo bo'la boshladi. Shu bilan fuqarolar urushi yangi kuch bilan alangalandi.

1982-yil 4-iyun kuni Isroil Livan hududida keng ko'lamli armiya operatsiyasini boshlab yubordi va o'z oldiga uchta vazifani qo'ydi: Livandagi PYDni harbiy yo'l bilan yo'q qilish, , Yaqin Sharqni tartibga solish masalasida Livanliklarga bosim o'tkazish, hamda bu yerda qolgan Suriya qo'shinlarini mag'lub etish⁷⁵. Ushbu harakat jahon hamjamiyatining qoralashiga sazovor bo'ldi. Biroq, Vashingtonning pozitsiyasi agressiyani to'xtatish uchun BMT mexanizmidan samarali foydalanishga to'sqinlik qildi. Isroil bosqinchiligi Livanga hech qanday haqiqiy yordam bera olmagan Arab rejimlarining munosib qarshiliklarini keltirib chiqarmadi. G'arbiy Bayrutning mudofaasi 78 kun davom etdi; Bu yerda harbiy ittifoqda yengil qurollangan jangchilar - falastinliklar va livanlik "vatanparvarlar" muntazam Isroil armiyasiga qarshi kurashdilar. Suriya armiyasi operatsiyaning dastlabki bosqichida isroilliklarning quruqlik va havodan bir qator kuchli hujumlarini qabul qilib, passivlik ko'rsatdi.

Oxir-oqibat, Falastin bo'linmalari lider Yosir Arofat bilan birga Bayrutni tark etishga majbur bo'ldi va FATH shtab-kvartirasi bu yerdan Tunisga ko'chirildi. 1982-yil avgust oyida Livanga "xalqaro kuchlar" kiritildi (asosan 70-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Yaqin Sharqda keskin faollashgan AQSh kuchlari va ularning NATO bo'yicha ittifoqchilari), ular 1984-yil martigacha bu yerda qoldi. Sodir bo'lgan voqealar Livanga juda katta zarar yetkazdi, uning ichki inqirozini yanada chuqurlashtirdi va mamlakat ichidagi kuchlar muvozanatini o'ng qanot xristian bloki foydasiga keskin o'zgartirdi. 1982-yil 23-avgustda deyarli to'liq tarkibda yig'ilgan parlament Kataib partiyasi asoschisi va uning "dala qo'mondoni" Bashir Gemayelning o'g'lini (E. Sarkis o'rniga) mamlakat prezidenti etib saylash uchun ovoz berdi - lekin u biroz o'tib o'ldirildi. 23-sentyabrda esa parlament uning

⁷⁵ Kristen E.Schulze Israeli crisis decision making in the Lebanon war: Group madness or individual ambition? Indiana university press vol.3. No.2. Law and the transformation of the Israeli Society (Fall,1998), pp.215-237 (23 pages).

akasi Amin Gemayelni eng yuqori lavozimga tayinladi. Livan tarixida birinchi marta eng yuqori hokimiyat falangistlar partiyasi rahbarlaridan birining qo'lida edi (bir vaqtlar urushdan oldingi Ispaniyadagi frankist tashkilot qiyofasida yaratilgan). O'sha kunlarda falangistlar Bayrutdagi ikkita Falastin lagerida - Sabra va Shatilada qonli qirg'in uyushtirishdi. Bu paytda mazkur partiyaning arboblari bosh qo'mondon va Livan xavfsizlik xizmati rahbari kabi muhim hokimiyat lavozimlarini egallagan edilar. Biroq Isroil o'z maqsadlariga erisha olmadi. PYD o'z faoliyatini to'xtatmadi va kuchlari sezilarli darajada zarar ko'rgan bo'lsa-da, Suriya bilan birga Livandagi harbiy mavjudligini saqlab qoldi. 1983-yil 17-mayda Isroil va Qo'shma Shtatlar Livanga "tinchlik shartnomasi" deb atalmish mohiyatan mamlakat suverenitetini buzadigan shartnomani taklif qildi. Mazkur shartnoma 1984-yil 5-martda Livan hukumati tomonidan bekor qilindi.

Livanda to'qnashuvlar davom etayotgani va Isroil armiyasining mavjudligi sababli mamlakatdagi vaziyat keskinligicha qolmoqda edi. Biroq, Isroil armiyasi 1983-yil sentabrda strategik muhim Chouf tog'li hududini tark etdi⁷⁶. Shu paytdan boshlab dengiz piyodalari korpusi va AQSh 6-floti hukumat qo'shinlari va o'ng qanot nasroniy guruhlarida tarafida mojaroda qatnasha boshladilar. 1985-yil iyuniga kelib, Isroil qo'shinlari Janubiy Livanning aksariyat qismini tark etib, chegara bo'ylab "xavfsizlik zonasida" qoldilar, u yerda vaziyat 1984-yilda Saad Haddodning o'limidan keyin "Janubiy Livan armiyasi" ni boshqargan general Antuan Lahad tomonidan nazorat qilindi.

Mamlakatda nomarkazlashuv tendensiyasining kuchayishi kuzatildi va konfessiyaviy kantonlarning -ya'ni, siyosiy va iqtisodiy jihatdan izolyatsiya qilingan hududlarning shakllanishi jarayoni boshlandi. 80-yillarning oxiridan boshlab Xristian kantoni vujudga keldi, druzlar va shia zonalari yakkalanib qoldi

⁷⁶ Kristen E.Schulze Israeli crisis decision making in the Lebanon war: Group madness or individual ambition? Indiana university press vol.3. No.2. Law and the transformation of the Israeli Society (Fall,1998), pp.215-237 (23 pages).

va shu tariqa Livanning yagona davlat sifatida mavjudligi uchun haqiqiy tahdid paydo bo'ldi. Dator arab davlatlari Livan mojarosini hal qilish uchun vositachilik harakatlarini tikladi. 1989-yil may oyida Arab Ligasi homiyligida Saudiya Arabistoni va Marokash qirollari va Jazoir Prezidentidan iborat Livan masalasi bo'yicha qo'mita tuzildi. Mazkur qo'mita maqsadi ziddiyatlar uzoq davom etayotgan Livanda milliy yarashuvga erishish edi. Ularning tashabbusi bilan Saudiya Arabistonining Toif shahrida Livan parlamentining 62ta deputati ishtirokida Livan parlamentariylarining konferensiyasi tashkil etildi (o'sha paytda Livanda oxirgi parlament saylovlari 1972-yilda bo'lib o'tgan va shundan beri deputatlar mandati qayta-qayta uzaytirilgan). U yerda, 1989-yil noyabr oyida ular "Milliy kelishuv xartiyasi" ni imzoladilar⁷⁷. Uning asosiy qoidalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- birinchidan, jamiyatlar tengsizligini va Livan mintaqalarining nomutanosib rivojlanishini kuchaytiradigan konfessiyaviy tizimni modernizatsiya qilish milliy konsolidatsiyaga xalaqit beradi;
- ikkinchidan, mamlakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida harbiylashtirilgan guruhlarini qurolsizlantirish;
- uchinchidan, Suriyaning mavjudligi muammosini hal qilish.

"Nizom"da Suriya kontingentini (avval Bayrutdan, keyin esa mamlakatning boshqa qismlaridan) olib chiqib ketishi "qulay sharoitlar paydo bo'lganda" amalga oshirilishi ko'rsatilgan edi. 1991 yil may oyida Suriya o'z qo'shnisi bilan alohida munosabatlar kontsepsiyasiga (Damashqda rasman qabul qilingan iboraga ko'ra "ikki qardosh xalqning umumiy taqdiriga asoslangan") sodiq qolgan holda "Do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma" ni imzoladi. Toifdagi kelishuv ko'p jihatdan 1985 yilda Damashqda o'sha paytdagi uchta asosiy raqib Livan partiyalari - LNM, Amal va Livan hukumati kuchlari (Xristian o'nglari) rahbarlari tomonidan tuzilgan "uch tomonlama

⁷⁷ Samir Maksidi, Richard Sadaka: The Lebanese civil war, 1975-90, Understanding civil war: evidence and analysis, World Bank

kelishuv” ga yaqin edi. Unda fuqarolar urushini tugatish va mamlakatda tub islohotlarni amalga oshirish maqsad qilgan. Biroq, keyinchalik bularning amalga oshirilishiga o‘ng qanot nasroniy kuchlari tomonidan qarshi chiqildi. Shu bilan Livandagi qurolli mojaroni tugatish uchun yana bir haqiqiy imkoniyat boy berildi.

Toif shartnomasi bir vaqtlar gullab-yashnagan arab davlati bo‘lgan Livanni vayronaga aylantirgan o‘n uch yillik fuqarolar urushini tugatdi. Mohiyatan murakkab murosalar to‘plami bo‘lgan bu bitim deyarli barcha Livan jamoalarining ma’qullanishini oldi. Ammo o‘shanda, Damashq rahbariyatining murosasiz raqibi bo‘lgan Bag‘doddan moliyaviy va harbiy yordam olgan, “isyonchi” nasroniy armiya guruhining qo‘mondoni general Mishel Aun shartnomaga qarshi chiqdi. Aun o‘z yetakchiligini butun nasroniy jamiyatiga o‘tkazishga harakat qildi. 1990-yil yanvar oyida unga sodiq yigirma ming kishilik armiya va Toifdagi kelishuvni tan olgan Livan kuchlari o‘rtasida shiddatli to‘qnashuvlar bo‘ldi. Natijada 1200 dan ortiq askar halok bo‘ldi.

Musulmonlar o‘rtasida ham yana bir bo‘linish yuz berdi: parallel ravishda Amal va Eronparast Hizbulloh partiyasi o‘rtasida shia jamoasida yetakchilik uchun janglar bo‘lib o‘tdi. Livan vaziyatida tashqi kuchlarning ta’siri tobora yaqqol ko‘rinib borardi. Mintaqaviy qarama-qarshiliklar Livan tuprog‘iga, to‘g‘rirog‘i jamiyat ichiga kiritildi va avj oldi. Turli siyosiy va diniy-jamoaviy kuchlarining mavqeiga arab dunyosidagi vaziyat, turli arab mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlarning tabiati, arablararo qarama-qarshiliklarning mavjudligi va chuqurligi bevosita ta’sir ko‘rsatdi. 1990-yil oktyabr oyida Livan hukumat qo‘shinlari Suriya bo‘linmalari ko‘magida Mishel Aun qo‘zg‘oloniga chek qo‘ydi. U Fors ko‘rfazidagi voqealar munosabati bilan Iroqdan yordam olishni to‘xtatdi va taslim bo‘ldi. Avval u siyosiy boshpana so‘radi va Fransiya elchixonasidan panoh topdi, keyin Fransiya qochib ketdi. Shu tariqa Livan inqirozining yana bir bosqichi yakunlandi.

Livandagi rivojlanishning keyingi bosqichida, vaqti-vaqti bilan buzilgan kuchlar muvozanati ko‘rinishidagi zaif konsensus paydo bo‘ldi⁷⁸. Livandek davlatda milliy totuvlik formulasini izlash muqarrar ravishda an‘anaviy tizimni yo‘q qilish, tub islohotlarni amalga oshirish, kimlardir uchun imtiyozlarni bekor qilish, kimlardir uchun esa noqulayliklarni bartaraf etish bilan bog‘liq va bu uzoq davom etadigan og‘riqli jarayon. Keyinchalik ichki siyosiy barqarorlik muammosini hal qilishning iloji bo‘lmagani ajablanarli emas.

Livan parlamentining “Ta’if shartnomasi” shartlariga ko‘ra tuzilishi



Manba: newarab.com

Konfessional boshqaruv tizimi Konstitutsiyaga (1991) va saylov qonunlariga (1992) kiritilgan o‘zgartirishlar bilan qisman barham topdi, ammo qisqartirilgan shaklda mavjud bo‘lishda davom etdi. Bundan tashqari, voqealar rivoji Livan inqirozini hal qilish ko‘p jihatdan boshqa mintaqaviy muammolarni, birinchi navbatda, Yaqin Sharq muammolarini hal qilish samaradorligiga bog‘liq degan tezisni qayta-qayta tasdiqladi.

⁷⁸ Muadth Malley The Lebanese civil war and the Taif accord: conflict and compromise engendered by institutionalized Sectarianism, The history teacher, vol.52, No.1 (November 2018), pp. 121-159.

Livan fuqarolar urushi, 1975 yildan 1990 yilgacha davom etib, 1989 yilda Toif kelishuvi imzolanishi bilan yakunlandi. Ushbu kelishuv Saudiya Arabistonining Taif shahrida tuzilgan bo'lib, Livanning turli diniy mazhablari o'rtasida hokimiyatni qayta taqsimlash orqali siyosiy barqarorlikni tiklashga qaratilgan edi. Bu siyosiy tizimni qayta tuzdi, maroniy xristian prezidentining ta'sirini kamaytirgan holda, sunniy musulmon bosh vaziri va shia musulmon parlament spikeri vakolatlarini oshirdi. Kelishuv, Hizbullohdan tashqari barcha qurolli kuchlarning demilitrizatsiyasini va xorijiy kuchlarning, xususan, Suriya armiyasining Livandan chiqib ketishini talab qildi.

Toif kelishuvi fuqarolik urushini yakunladi va siyosiy islohotlar uchun asos yaratdi. Biroq, bu kelishuv mazhabiy bo'linishlarni mustahkamladi, bu esa bugungi kunda ham Livanning siyosiy manzarasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Suriyaning Livandagi harbiy mavjudligi esa 2005-yilgacha davom etdi. Muammolarga qaramay, Toif kelishuvi tinchlik va qayta qurish yo'lida muhim qadam bo'ldi, Livanning tiklanishi va yarashish harakatlari uchun asos yaratdi. Urushning tugashi Livan uchun yangi davrni boshlab berdi va bu davr taraqqiyot siyosiy murakkabliklar bilan ajralib turadi.

2-§. Livan davlat boshqaruvi tizimida Hizbulloh harakatining o'rni

Livandagi Hizbulloh tushunish qiyin bo'lgan tashkilotlardandir. Mazkur tashkilotning bir nechta o'ziga xosliklari bo'lib u ham islomiy harakat ham siyosiy partiya va ham terrorchi tashkilot sifatidagi qurolli qarshilik guruhidir. Shu bilan birga ularning bari Livan kontekstidadir, Jumladan Livan hududida tashkil topgan, Livan davlatini hududiy nuqtai nazaridan egallashga harakat qilgan, Livan siyosiy tizimini birlashtirgan va o'z mavjudligini Livanni ozod qilish asosida qurgan. Shunga qaramay, Hizbullohning panislomiy dasturi tashkilotga hududdagi diniy-siyosiy nizolarda faol bo'lishini taqozo etgan.

Hizbullohning asosiy 4 belgisi nafaqat bir-biri bilan mustahkam bog‘langan, balki bir umumiy xususiyatga ega, bu uning Livan hududiy o‘lchovi doirasidaligidir. Uning diniy jihati Livanning ijtimoiy tabaqalanishi va unda Livan shialarining imtiyozli mavqei bilan o‘zaro bog‘liq. Uning siyosiy partiya sifatida mavjudligi Livanning o‘ziga xos siyosiy tizimini qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishini tasdiqlaydi va bundan samarali foydalanadi. Qarshilik harakati sifatida Livanning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi uchun harakat qiladi. Nihoyat, uning terroristik jihatini mintaqaviy shu jumladan, Isroil kontekstida tushunish kerak⁷⁹.

1970-yillarda Livandagi fuqarolar urushi paytida, janubiy Livanda faoliyat yuritayotgan Falastin Ozodlik harakatining Isroil hududiga raketa hujumlari Isroilning 1978-yilda “Litani operatsiyasi” doirasida mamlakatga qo‘shin kiritishiga olib keldi. Garchi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 426-sonli rezolyutsiyasi janubiy Livanning hududiy yaxlitligini tiklash bo‘yicha qaror chiqargan bo‘lsada Isroil Suriyadagi Golan tepaliklarida Isroil fuqarolik boshqaruvini o‘rnatish uchun bir tomonlama harakatini yanada kuchaytirdi. Bu harakatlar Isroilning Parij va Londondagi diplomatik vakolatxonalariga 1982-yilda hujumlar va Isroil diplomatlariga suiqasdlarga olib keldi⁸⁰.

Livan-Isroil chegarasida FATH a‘zolari va Isroil Mudofaa Kuchlari o‘rtasida doimiy ravishda kuchayib borayotgan keskinlik Isroilning yangi bosqiniga sabab bo‘ldi, bundan maqsad sifatida FATHning Janubiy Livandagi bazalarini zararsizlantirish ko‘rsatildi. Biroq, to‘rt yil avvalgi Litani operatsiyasi bilan solishtirganda, Isroilning 1982-yildagi “al-Jaliyl (Isroil hududi) uchun tinchlik operatsiyasi” ancha kengroq edi. Jumladan mazkur operatsiya doirasida Livan hududidagi kuchlar balansini o‘z

⁷⁹ J.Robert Kane, A life cycle analysis of Hezbollah: Where the group came from and where it is going, American Intelligence Journal, vol.35, No.2, counterintelligence and the insider threat (2018). pp.67-73.

⁸⁰ Edyt Dickstein, Is Israel deterring Hezbollah? Harvard international review, vol.38, No.2 (2017), pp. 8-9

foydasiga o'zgartirish hamda Livanda Isroilni qo'llab-quvvatlovchi kuchlarni hokimiyatga keltirish Isroil o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan bir nechtasi edi. Sabablardan yana biri sifatida 1975-yildan beri Livanda o'rnatilgan Suriyaning harbiy mavjudligiga nisbatan Isroilning toqatsizligi ham keltiriladi.

Shu o'rinda, quyidagi omillar, shialarning qurolli guruhi Livan Hizbullohining paydo bo'lishi uchun unumdor zamin yaratdi:

- birinchidan, 1979-yildagi Eron inqilobi 1500 nafar Islom inqilobi qo'riqchilari korpusi askarlarining Livandagi Shialar o'chog'i unumdor Biqo vodiysiga safarbar etilishiga sabab bo'ldi;
- ikkinchidan, Isroil intervensiyalari va ular doirasida o'ta katta kuchlarning Livan hududiga safarbar etilganligi;
- uchinchidan, o'sha paytda mustahkam o'rnatilgan Suriya harbiy nazorati. Garchi Isroil ham, Suriya ham bir-birini ashaddiy dushman deb bilsalar-da, Falastin partizanlarining faoliyatiga barham berish yo'lida birgalikdagi sa'y-harakatlar olib bordilar⁸¹.

Shu o'rinda qayd etib o'tish kerakki, Suriya Livan fuqarolar urushidagi ishtiroki davomida bir necha marta taraflarni o'zgartirganini ko'rishimiz mumkin. Dastavval so'lchi xristianlarni qo'llagan bolsa keyinchalik so'lchi musulmonlarni dastakladi. Isroilning Livanga bosqinidan keyin esa shialarni ham faol ravishda qo'llay boshladi. 1983-yil oktyabr oyida Bayrut xalqaro aeroporti yaqinidagi AQSh dengiz kazarmalariga qilingan vayronkor hujumlar va bir vaqtning o'zida fransuz parashyutchilariga qarshi xudkushlar hujumi jami 300 ga yaqin qurbonlarga sabab bo'ldi. Ko'p o'tmay, bunday miqyosda murakkab hujumlarni amalga oshirish uchun zaruriy shart bo'lgan puxta buyruqlar zanjiri Erondan kelib chiqqanligi ko'rsatildi.

Bu Eronning ishonchli vakili Hizbulloh tashkilotining dastlabki bosqichlarida qanday imkoniyatlarga ega bo'lganini ko'rsatib beradi. Hujumlar Amerika Qo'shma Shtatlarining 1982-

⁸¹ Kendall Bianchi, How Hezbollah uses dreams to inspire jihad and sanctify martyrdom; Perspectives on terrorism, vol.12, No.3(june2018), pp. 67-73.

yildan 1984-yilgacha Livanda bo'lgan kuchlarini olib chiqib ketishiga turtki bo'ldi. Keyingi tartibsizliklarga Bayrutning ikki ma'muriyatga bo'linishi sabab bo'ldi. Bular sharqiy Maroniy generali Mishel Aun boshchiligidagi Bayrut va sunniy musulmon Salim al-Xos boshqaruvidagi G'arbiy Bayrutlar edi. O'sha paytda, Livan konstitutsiyada mustahkamlangan, an'anaviy tarzda birlashtiruvchi ro'lidagi prezident figurasidan mahrum bo'lganligi sababli, mamlakat 1980-yillar davomida Hizbulloh foydasiga o'ynagan harbiylar boshqaruviga o'tdi. Hizbulloh siyosiy tartibsizlikdan unumli foydalangan holatda o'zlarini davom etayotgan Isroil ishg'oliga qarshi birlashtiruvchi kuch sifatidagi imidjini mustahkamlab oldi.

Isroil FATHning tashkiliy tuzilmalarini yo'q qilish va suriyaliklarni kuchsizlantirish borasida strategik muvaffaqiyatga erishganiga qaramay, 1982-yil Isroil ishg'olidan keyingi yillardagi voqealar isroilliklar maroniylar va ularga tegishli qurolli kuchlar, ayniqsa Janubiy Livan armiyasini qo'llab-quvvatlash orqali Livanni barqarorlashtirish umidi noto'g'ri bo'lganligini ko'rsatadi. Isroil Livandan qisman chiqib ketganidan so'ng, Livan janubidagi xavfsizlik kamarini nazorat qilishda o'z askarlarining bir qismini qoldirib, bu hududni Janubiy Livan armiyasi bilan birga boshqargan. Hizbullohning qolgan bosqinchi kuchlarga qarshi qarshiliklari to'xtamadi. 2000-yilgacha bo'lgan davrda Hizbulloh o'z raqiblariga qattiq qarshilik ko'rsatishda davom etdi va bular 2000-yil may oyida Isroilning to'liq ravishda mamlakat hududidan chiqib ketishiga olib keldi⁸².

1985-2000-yillarda Hizbullohning o'zi ham jiddiy evolyutsiyani boshidan kechirdi: Oyatulloh Xomayniyning shia e'tiqod tizimiga chuqur bog'lanib, zo'ravon harbiylashtirilgan qarshilik kuchi sifatida paydo bo'ldi, ammo Toif kelishuvi ortidan 1989-yilda Livandagi fuqarolar urushining tugashiga yo'l ochdi hamda Livan siyosat doirasiga integratsiya bo'lib, 1992-yilda Livan parlamentiga saylandi. Shunday qilib, Hizbulloh

⁸² S.Shamir Hasan, Israel and Hezbollah; Proceedings of the Indian History congress, vol.79 (2018-19), pp 713-718.

Livandagi turli konfessional bo‘linishlardan tashqarida ham katta qo‘llab-quvvatlandi. Ushbu qo‘llo‘vni ta‘minlash uchun Hizbulloh muhim ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha o‘z majburiyatini kuchaytirdi, xayriya dasturlarini qo‘llab-quvvatladi va mahalliy kasaba uyushmalariga o‘z hissasini qo‘shdi va yana Livan davlati ichida ijtimoiy-siyosiy mustahkamlanganligini namoyish etdi.

Turli konfessiyalararo nizolardan tashqari, Suriya va Isroil kuchlarining mavjudligi Livan siyosiy barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Birinchidan, qurollangan Falastin partizanlari va shia Amal jangarilari o‘rtasida bo‘lgan lagerlar urushi Livan poytaxti va janubiy Livanning ba‘zi qismlarida olib borildi. Bu oxir-oqibat Suriya qo‘shinlari va ularning vaqtincha ishonchli vakili Amal tomonidan bosib olingan G‘arbiy Bayrutda Suriya rejimining o‘rnatilishiga sabab bo‘ldi. Amal harakatiga Yosir Arofat tarafdori bo‘lgan falastinliklar tobora ko‘proq e‘tiroz bildirayotgani va o‘zining sobiq ittifoqchisi druzlar tomonidan yetarlicha qo‘llab-quvvatlanmagani fonida Jumblattning kommunistik kuchlari dunyoviy shialar qo‘llovi uchun raqobatlashayotgan edi.

Lagerlar urushi davrida Hizbullohning qatnashmaganligi birinchi strategik qadam sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. O‘sha paytdagi Hizbullohning tashkiliy jihatdan yetuk bo‘lmaganini hisobga olgan holda, harakat o‘zining erishilgan maqsadlari iyerarxiyasini nisbatan past darajada saqlab qolish, tarqoq va beqaror Bayrut shahrida taraf tanlashdan qochishga ustuvor ahamiyat berdi. Buning o‘rniga o‘zining tabiiy saylov okrugi-shialar janubiy Livani aholisi orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lish va mustahkamlanish ustuvor masalaga aylandi.

Hizbullohning strategik hisob-kitobi va o‘sha paytdagi Livan ichidagi mojaroga tortilish xavfidan qochish, shuningdek, nisbatan dunyoviyroq bo‘lgan Amal harakatidan mazhabiy qo‘llovning kattaroq qismini olishga urinishlarini tushuntiradi. Shunday qilib, Hizbulloh lagerlar urushini imkoniyat sifatida qabul qildi va bu o‘z qo‘llov bazasini muntazam ravishda

kuchaytirishga imkon berdi. Bu mantiqan to'g'ri edi, chunki Livan janubidagi asosan shia aholisi Isroil va FATHning Xavfsizlik zonasidagi harbiy harakatlari oqibatlaridan aziyat chekayotgan edi. Biqo vodiysida faoliyat yuritayotgan Islom inqilobi qo'riqchilari korpusining katta qismi tomonidan ko'rsatilgan yordam Hizbullohning faoliyati dastlab faqat mahalliy aholi orasida qo'llab-quvvatlashni oshirishga qaratilgan edi.

Faqat 1988-yilda, Amal va FATH o'rtasidagi sulhdan so'ng, Amal va Hizbulloh o'rtasidagi raqobat va hukmronlik uchun kurash yaqqol namoyon bo'ldi va oxir-oqibat G'arbiy Bayrutda ikki tomon o'rtasida to'qnashuvlarga olib keldi. Tehron bilan yaqin hamkorlikda Hizbulloh yuqori tartib-intizomli harbiy kuch hamda harbiy jihozlar bilan ta'minlanib muhim ustunlikni qo'lga kiritdi. Bundan tashqari, shia kuchlari ichidagi mojaroning dinamikasiga o'sha paytdagi kengroq geosiyosiy o'zgarishlar katta ta'sir ko'rsatdi. 1988-yilning yoz oylarida Eron va Iroq o'rtasida davom etayotgan urushda Iroqning nisbiy ustunligi, Tehron va Damashq o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirdi.

Natijada, Hizbulloh-Amal to'qnashuvi davom etayotgan bir paytda Suriyaning Amal harakatiga bo'lgan qo'llovi to'xtatildi. Bu o'z navbatida Amal harakatining ahvolini yomonlashtirdi. Gap shundaki, Amal harakatining tashkiliy kamchiliklari Livan jamoatchiligiga tobora ko'proq oshkor bo'lmoqda edi va bu uning raqibi bo'lmish Hizbullohga foyda keltirdi. Bundan tashqari, Amal Isroil kabi Livan janubida radikal tendensiyalar paydo bo'lishining oldini olishdan manfaatdor edi. Fuqarolar urushining davom etayotgan paytda Isroilning bosqinchi kuchlari va Amalning qisman o'zaro bog'liqligi muhim ahamiyat kasb etdi, chunki Suriya Golan tepaliklari uchun qasos olishni va qolaversa Eron kabi Livan ichkii ishlariga aralashish orqali mamlakatda o'z pozitsiyasini mustahkamlab olishdan manfaatdor edi. Livan kuchlari Isroilliklar va Janubiy livan armiyasiga nisbatan yuqori bosimni saqlab qolishdan manfaatdor edi. Amal

endi bu rolga mos kelmadi va shu sababli sahnani Hizbullohga qoldirishga majbur bo'ldi. Amal shu paytgacha Livan janubida yashirinch a o'z o'rnini oshirib kelgan. Biroq, Hizbullohning ta'siri jug'rofiy jihatdan janub bilan chegaralanmoqchi emas edi. Avgust Richard Nortonning so'zlariga ko'ra, "janubda sodir bo'lgan to'qnashuvlar ko'pincha Bayrutda sodir bo'layotgan voqealar bilan o'xshash tarzda yuz berayotgan edi". Shunday bir davrda Livanda ta'sir doirasini kuchaytirish yo'lida Hizbulloh o'z harakatlari intensivligini oshirish davriga o'tdi. Iyerarxik jihatdan izchil hamda operatsion jihatdan mustahkam va moslashuvchan bo'lgan Hizbulloh, Isroilning "temir musht" siyosati tufayli yashash sharoitlari yomon ahvolga kelib qolgan Janubning shia aholisi orasida o'zini namoyon qila oldi. Qashshoqlashgan shia jamoasi shu tariqa Hizbullohning yuksalishiga yo'l ochdi⁸³.

Hizbulloh nafaqat mafkuraviy soddalik xususiyatlarini, balki naqd pul mukofotlarini ham taklif qilishi mumkin edi. Logistik ta'minot nuqtai nazaridan, Eron va Suriyadan, eng avvalo, katta miqdordagi asbob-uskunalar va qurol-yarog'lar Biqo vodiysi orqali mamlakatga olib kelindi. Mazkur bosqichda, o'quv lagerlari va potentsial jangarilarni yollash hamda Tehronning moliyaviy yordami o'zini oqladi. Bundan tashqari, Livanning janubida sinovdan o'tgan Hizbullohning umumiy qarshilik konsepsiyasining mudofaa qobiliyatini mustahkamlash uchun psixologik safarbarlik va taktik mustahkamlikni kuchaytirish zarur edi. Shu sababdan Eron inqilobiy mafkurasi va 1985-yilgi ochiq maktub Hizbullohning ushbu davrdagi mafkuraviy va siyosiy tafakkurining poydevori deb hisoblanishi kerak. Fuqarolar urushi va shialar ichidagi mojaro davrida Hizbullohning omon qolishi va tarkibiy mustaqilligini ta'minlash uchun janubiy Livanda parallel iqtisodiyotni rivojlantirildi. Yuqoridagi ideologik asoslar, fuqarolar urushidan keyingi siyosiy tuzumda barqarorlik va izchillikning kontseptual asosi sifatida

⁸³ Norton , AR . 2006 . "The Peacekeeping Challenge in Lebanon" . *The MIT Electronic Journal of Middle East Studies* , 6 : 76 – 9 . [http://web.mit.edu/cis/www/mitejmes/\(open in a new window\)](http://web.mit.edu/cis/www/mitejmes/(open in a new window))

ko‘rilishi kerak. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Hizbullohning paydo bo‘lishidan tortib Toif bitimi ishlab chiqilishigacha bo‘lgan yuksalish jarayonini asta-sekin o‘z poyoniga yetgan inkubatsiya jarayoni sifatida tasvirlash mumkin.

Shunisi e‘tiborga molikki, Livan shialarining zulmga qarshi kurashishiga asoslangan strategiyasi ochiqdan-ochiq namoyon bo‘lishidan oldin, mazkur tashkilotning xatti-harakatlari panislomiy g‘oyalar niqobi ostida edi. Shunday qilib, tashkilot Suriyaning pan-arabizm ambitsiyalari doirasida bo‘lgani va Eron qo‘llab-quvvatlashiga qaram bo‘lgan bo‘lsa-da, Hizbullohning muvaffaqiyati uning ijtimoiy safarbarlik konsepsiyasini Livan janubida bosqinchi kuchlarga qarshi uzoq muddatli urushga puxta tayyorgarlik bilan birlashtira olish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 1991-yildan boshlab Livan hukumati barcha qurolli guruhlarini tarqatib yuborishga qaror qildi va ularga qurollarini topshirishni buyurdi. Bundan tashqari, guruhlarini yangi nizolarning oldini olish uchun davlat armiyasiga va fuqarolik institutlariga qayta qo‘shilishga chaqirildi. Xuddi shu maqsadda fuqarolar urushi tomonlarining vakillari davlat muassasalariga chaqirildi. Biroq, bir marotaba e‘tiborga molik istisno tez orada hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi⁸⁴.

Toif bitimida belgilanganidek, butun Livan hududini Isroil ishg‘olidan ozod qilish 1990-yillarda muhim maqsad edi. O‘zining keng ko‘lamli faoliyati va mamlakat janubida erishgan o‘rni tufayli Hizbulloh sof harbiylashtirilgan birlik emas, balki qarshilik guruhi hisoblanar edi va natijada 1991-yildagi Suriya-Eron sammiti orqali erishilgan qurolsizlanish jarayonidan chetda tura oldi. Hizbulloh mantiqiy izchillik bilan Livan davlati va jamiyatini qo‘lga kiritdi hamda 1992, 1996 va 1998-yillarda parlament va munitsipalitet saylovlarida ishtirok etish orqali tobora avtonom siyosiy aktorga aylandi. Bundan tashqari, Hizbullohning “chekkada turish strategiyasi” mazkur guruhning

⁸⁴ Akbar Khan, Han Zhaoying; Iran-Hezbollah alliance reconsidered: What contributes to the survival of State-proxy alliance? ; Journal of Asian security and international affairs, vol.7, No. (2020), pp. 101-123

qurollanishga qodir bo'lgan qonuniy qurolli qarshilik kuchi sifatida va saylangan siyosiy aktor o'laroq ichki maydonda va hukumat tuzilmalarida qabul qilinishida imkon berdi. Shunday qilib, tashkilot nafaqat Livan davlati xizmatida islomiy qarshilik kuchini saqlab qolgan holda Isroil mudofaa kuchlari va Janubiy Livan armiyasini quvib chiqarishga muvaffaq bo'ldi, balki fuqarolar urushidan keyin Livan siyosatining markaziga ham nufuzli siyosiy aktor sifatida muvaffaqiyatli kirib bordi.

Shunday qilib, Hizbulloh vatanparvarlik ta'limoti niqobi ostida misli ko'rilmagan miqyosda professional partizan urushini yo'lga qo'yish uchun sobiq mazhablararo bo'linishlarni yengib chiqdi. Buni o'sha vaqtdagi "Hizbulloh bu- bosqinchilarga qarshilik" shaklidagi vatanparvarlik shiorda ham ko'rishimiz mumkin⁸⁵. Ba'zida Hizbullohnin hatto shia bo'lmaganlar ham qo'llab-quvvatladilar. Ular alohida ajratilgan partizan bo'linmalarida faol qarshilik ko'rsatishga qo'shildilar, ayniqsa sunniy guruhlarining qarshilik brigadalari o'z faoliyatini Hizbulloh bilan muvofiqlashtirgan. Bundan tashqari, Hizbullohning maktablar, ta'lim va tibbiy muassasalardan iborat kengayayotgan farovonlik apparati Bayrutning janubiy chekkalari, Livan janubi va Biqo vodiysidagi an'anaviy markazlari ichida sezilarli darajada kengaydi. Tashkilotning keng tarqalgan tarmog'i sunniylar, nasroniylar va druzlarga birdek xizmatlar va yordam ko'rsatdi.

Shunday qilib, Hizbulloh yangi siyosiy qoidalarini tan oldi va qabul qildi, shu bilan birga Toif bitimidan keyin Livan siyosiy tizimini qisqa muddatli barqarorlashtirishga intilish bo'yicha qat'iy harakatlarni olib bordi. 1991-yilda o'zining zamonaviy televizion stansiyasi al-Manarni tashkil etdi shuningdek, Livan ishchilar federatsiyasi, kasaba uyushmalari, fermerlar uyushmalari, akademik va talabalar uyushmalari bilan hamkorlik o'rnatdi va ulardan yordam oldi. Hizbullohning ommaviy axborot

⁸⁵ Alagha, JE. 2006 .*The Shifts in Hizbullah's Ideology: Religious Ideology, Political Ideology, and Political Program, Isim Dissertations*, Leiden: Amsterdam University Press .

vositalari imkoniyatlari, jumladan, sun'iy yo'ldosh televideniyesida jangovar tasvirlarni namoyish etish, uning isroillik dushmaniga qarshi urushda chidamliligining asosiy omili hisoblangan. Bundan tashqari, al-Manar Hizbullohning Livanliklar qalblari va onglari uchun kurashida muhim poydevor ekanligini isbotladi va oxir-oqibat Hizbullohga janubdagi harbiy qarshilikni kuchaytirishga imkon bergan katta jamoatchilik yordamini ta'minlaydi. Eytan Azaniyning so'zlariga ko'ra, "1990-yillar davomida Hizbulloh keng ko'lamli ijtimoiy, ta'lim, fuqarolik va diniy-islomiy dasturlarni ilgari surish orqali Livan siyosiy tizimida o'ziga xos manyovrni amalga oshirdi.

Hizbullohning Janubiy Livanda harbiy muvaffaqiyatlari va gibrid urush.

1985-yildan 2000-yilgacha Livanning janubidagi jang maydonlarida Hizbullohning harakatlarini diqqat bilan ko'rib chiqsak, dastlabki bosqichlarda qarshilik ko'lamli operatsion nuqtai nazardan ancha cheklangan bo'lgan. Buning sababi shundaki, Hizbulloh asosan kichik guruhlar tomonidan amalga oshirilgan xudkush portlashlarga murojaat qilgan. Ushbu hujumlarga Isroil armiyasi tomonidan havo hujumlari bilan javob qaytarilib, bu tinch aholi orasida qurbonlar bo'lishiga olib keldi. Shu bilan birga, Isroilning javob zarbalari shia jamoasiga birinchi navbatda kimni javobgar deb bilishi kerakligini eslatish uchun ataylab keng miqyosda amalga oshirildi.

Shunga qaramay, janubiy Livan aholisining chidamliligi vaqt o'tishi bilan kurashni davom ettirishda muhim rol o'ynadi. Yillar davomida harbiy sinovdan o'tgan Hizbullohning harbiy qanoti ham ko'lamli, ham taktik mahorati bo'yicha izchil rivojlandi. 1990-yilda Livandagi fuqarolar urushi tugagach, sobiq partizan guruhlar qo'mondonlik tuzilmasi, jumladan razvedka, artilleriya va piyoda qo'shinlar bo'linmalaridan iborat bo'lgan muntazam professional armiyaning xususiyatlarini tobora ko'proq namoyon qildi. Hizbullohning qurolli kuchlari xususan, xavfsizlik zonasiga Sovet Ittifoqida ishlab chiqarilgan Katyusha raketalaridan foydalanib hujum qila olish darajasiga yetdi.

Hizbulloh harbiy shtab-kvartiralarning keng ko‘lamli zanjirini, jumladan, qirg‘oq bo‘yidagi Sidon shahrida ham shakllantirdi. Bu tashkilotga real vaqt rejimida razvedka ma‘lumotlarini to‘plash va Livan janubida hukm surayotgan taktik sharoitni aniqroq tahlil qilish imkonini berdi. Natijada operativ tayyorgarlikning kuchayishini hisobga olingan holda, Hizbulloh xavfsizlik zonasida dushmanga qarshi hujumkor zarbalar berish orqali qurolli hujumni boshlashi mumkin edi. Harbiy kampaniyaning muvaffaqiyati Hizbullohning Isroilliklar va ularning ittifoqchilariga nisbatan o‘zining miqdoriy harbiy zaifligini qoplash imkonini beradigan gibridd urush taktikasi va oddiy urush elementlarining kombinatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

To‘qnashuv qancha uzoq davom etsa, Hizbulloh o‘z faoliyat doirasini shunchalik kengaytirdi va oxir-oqibat xavfsizlik zonasiga chuqurroq kirib bordi. Uning hujumlari o‘zgaruvchan va atipik tarzda ishlatilgan yer-havo raketalari va artilleriya orqali amalga oshirildi. Tog‘li landshaft esa o‘z navbatida kamuflyajdan foydalanish va Isroil razvedka xizmatlariga qarshi turish uchun pistirma operatsiyalarini o‘tkazishda qulay edi. Hizbullohning kutilmagan hujumdan so‘ng jang maydonidan tezda chekinish strategiyasi harakatchanlikni talab qilardi va mahalliy aholining ma‘lum darajada ularga xayrixohligi ham qo‘l keldi.

Yuqorida ta‘riflanganidek, harbiy harakatlarning boshidanoq tinch aholining qo‘llab-quvvatlovi Hizbullohning umumiy harbiy strategiyasining hal qiluvchi va aniq bir qismi edi. Isroilning fuqarolik infratuzilmasiga qarshi bombardimon harakatlari va har ikki tomondan qurbonlar soni ortib borayotganiga qaramay, Hizbullohning yondashuvi tinch aholi Hizbullohning uzoq muddatli siyosati maqsadini, ya‘ni Isroil qurolli kuchlarining chiqib ketishini qo‘llab-quvvatlagan hududlarda muvaffaqiyatli bo‘ldi. Bu maqsadga erishish uchun Hizbulloh butun kuchini samarali ishga soldi.

Ushbu strategiyaning amalda ish berishiga Livandagi fuqarolar urushining yakuniga yetgani ham yordam berdi.

Janubiy Livan bo‘ylab o‘z hududidan ko‘chib ketishga majbur bo‘lganlar asta-sekin o‘z uylariga qaytib kela boshladilar va bu o‘z o‘rnida fuqarolik rekonstruksiya qilishga olib keldi. Yana bir e‘tiborga molik jihat shundaki, Hizbullohning tashkiliy tuzilmasi hali ham qurolli guruh tuzilmasiga o‘xshash edi. Shuning uchun ham uning jangchilari ko‘pincha harbiy lavozim bilan bir qatorda oddiy fuqarolik ish faoliyati bilan ham shug‘ullangan.

Livan jangchilari va tinch aholi o‘rtasidagi farqning minimal darajaga tushishi, Isroil mudofaa kuchlari va Janubiy Livan armiyasini dilemmaga olib keldi. Bir tomondan mudofaa strategiyasi katta harbiy yo‘qotishlar va qo‘shimcha harbiy kuchlarni safarbar etishni talab etardi. Biroq, boshqa tomondan, hujumkor strategiya o‘limlar sonining yanada ko‘payishiga olib keladi, bu esa Hizbullohning mamlakat ichkarisida yanada kuchayishiga, shuningdek, Isroilning xalqaro maydonda yakkalanishi va unga qarshi ayblovlarning oshishiga olib keladi. Isroil tomonidan bunday hujumkor qasos strategiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchraganiga misol 1993-yil iyul oyida Livan fuqarolik infratuzilmasi uchun halokatli oqibatlariga olib kelgan va taxminan 350 000 aholining qochqinga aylanishiga olib kelgan “Hisobdorlik operatsiyasi” (Operation accountability)da ko‘rish mumkin.

Uch yildan keyin, navbatdagi operatsiya doirasida 1996-yil aprel oyida artilleriya otishmasi 100 dan ortiq livanlik tinch aholining hayotiga zomin bo‘ldi. Keyingi yillarda qurbonlar soni ortishi bilan Hizbulloh ham tashbbusni qo‘ldan boy bermadi hamda 1999-yilda 1500 ga yaqin amaliyotlar o‘tkazdi. Isroil va Hizbulloh zo‘ravonliklarining davom etuvchi sikli ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujumlar, ham bilvosita to‘xtatib turish harakatlarini o‘z ichiga olardi. Bunda Isroil tomonidan Livan davlatiga bosim o‘tkazar va Hizbulloh Isroilning shimoliy hududlariga raketa zarbalarini amalga oshirar edi⁸⁶.

⁸⁶ Rodenbeck, M. 2007. “Lebanon's Agony”. In *New York Review of Books* 54, no. 11 [http://www.nybooks.com/articles/20311\(open in a new window\)](http://www.nybooks.com/articles/20311(open%20in%20a%20new%20window))

2000-yilda Isroil o‘z qo‘shinlarini bir tomonlama olib chiqib ketishi bilan Hizbulloh operativ muvaffaqiyatga erishdi. Yakuniy tahlilda bir nechta jihatlar ajralib turadi. Birinchidan, Hizbullohning operativ qarshiligining kuchayishi Isroil mudofaa kuchlari va Janubiy Livan armiyasi tarkibida yoriqlar paydo bo‘lishiga olib keldi, chunki aynan janubiy Livan armiyasi partizan urushining og‘irligini ko‘tarishi kerak edi. Janubiy Livan armiyasining urushda qatnashuvining cheklanishi hamda tuzilmaviy tartibsizlik belgilarining vujudga kelishi fonida Isroil armiyasi ikkita yo‘ldan birini tanlashi kerak edi. Yo o‘z harbiy mavjudligini kuchaytirish, o‘z kuchlarini Livan janubidan olib chiqish to‘g‘risida qaror qabul qilish kerak edi. Ikkala variant ham Isroilni mazkur murakkab vaziyatda sezilarli yutuqlarga erishishiga imkon bermas edi.

Livan hududida Xavfsizlik zonasida ta’sir doirasini o‘rnatish jarayonining boshida Isroil o‘z harakatlarini kengroq siyosiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida ko‘rgan edi. Biroq, bu murakkab qiyofali hamda tartibli dushmanga qarshi uzoq muddatli vayronagarchilik urushiga aylandi. Ikkinchidan, Hizbullohning qurolli kuchlarini ratsional taqsimlash orqali Isroil mudofaa kuchlari va Janubiy Livan armiyasiga bo‘lgan hujumlarni ko‘paytirishi Isroil oldida qisqa muddatli va samarador yechim qoldirmadi. Shu o‘rinda, Hizbullohning Isroil aholisiga qarshi olib borgan psixologik urushi ham kuchayib bordi. Isroil jamoatchiligining janubiy Livan masalasida noroziligi shu darajada kuchaydiki siyosiy rahbariyat oldida qurolli kuchlarni yuqoridagi hududdan olib chiqish yagona yechimga aylandi. Livanning o‘sha paytdagi ichki siyosiy vaziyatini inobatga olgan holda, Isroil Bosh vaziri Ehud Barak Isroil qo‘shinlari janubiy Livandan olib chiqib ketilgan taqdirda, Hizbulloh qurolli kurashini to‘xtatib, o‘z e’tiborini Livan ichki siyosiy masalalariga qaratishiga umid qilgan. Biroq, tez orada bu noto‘g‘ri bo‘lib, jiddiy oqibatlariga olib kelishi ma’lum bo‘ldi. Nihoyat, shuni ta’kidlash kerakki, ko‘p jihatdan Isroilning gibril, assimetrik tahdidlarga nisbatan noto‘g‘ri strategiyasi va

Hizbulloh bilan kurashish bo'yicha noto'g'ri umumiy siyosiy yondashuvlari Hizbullohning harbiy muvaffaqiyatiga imkon yaratdi.

Hizbullohning Livan siyosiy tizimida konsolidatsiyasi.

1992-yilda parlament saylovlarida Hizbulloh va uning saylovdagi ittifoqchilari o'n ikki o'rinni, jumladan sakkizta shia o'rmini egallab oldilar. Bir saylovdan ikkinchisiga kichik o'zgarishlar bilan parlament o'rinlarining taxminan o'n foizini egalladi. Mahalliy saylovlar natijasida Hizbulloh asosan shia munitsipalitetlarining uchdan ikki qismini, jumladan, Bayrut chekkasidagi Burj al-Barajna va Gobayrni nazoratiga ega chiqdi.

Urush, aslida, Livanni siyosiy jihatdan ikkiga bo'ldi. Birinchi tomon asosan sunniylar, druzlar va nasroniylardan iborat koalitsiya bo'lib, ular o'sha paytdagi president Rafiq Haririy o'ldirilishi ortidan birlashgan. Bu 2005-yil 14-martdagi norozilik marshi nomi bilan atalgan 14-mart guruhidir. O'sha paytda Bayrutda Haririyning o'ldirilishiga javoban bir millionga yaqin namoyishchilar suiqasd bo'yicha to'liq tergov o'tkazilishini va Livandan Suriya kuchlari chiqishni talab qilishgan. 2005-yil may oyida bo'lib o'tgan parlament saylovlarida 128 o'rinning 72 tasini egallab g'alaba qozongan bu guruh 2006-yilgi urush paytida hokimiyatda edi. 14-mart guruhi Hizbullohning urush arafasida qilgan provokatsion harakatlarini davlat to'ntarishi deb hisoblaydi va tashkilotni O'rtayer dengizi sohillarida teokratik Islom Respublikasini o'rnatishi ko'zlangan Suriya va Eron vositasi bo'lishlikda ayblaydi.

Ikkinchi tomon, asosan janubiy Livan shia jamoasidan (asosan Hizbulloh va Amal) va nasroniy hamjamiyatining katta qismlaridan, ayniqsa maroniy siyosatchisi va sobiq general Mishel Aunning ko'plab izdoshlaridan iborat edi. Bu guruh 2005-yil 8-martda Hizbulloh va Amal tomonidan uyushtirilgan, go'yoki Haririy xotirasiga hurmat bajo keltirish, shuningdek, Suriyaga mamlakatda tinchlikni saqlashdagi roli uchun minnatdorchilik bildirish maqsadida tashkil qilingan namoyish sharafiga 8-mart guruhi deb ataladi. Aun tarafdorlari va shialar

o‘zlarini Livan siyosiy tizimi jabrdiydalari sifatida ko‘radilar. Bu ikki guruh o‘rtasida 2006-yil fevralida tuzilgan mazkur muxolifat ittifoqi o‘zining mustahkamligini isbotladi. Muxolifat hokimiyatda o‘z ulushini an‘anaviy nasroniy elitasi va sunniy musulmonlar hisobiga kengaytirishga harakat qilmoqda edi. Saudiya Arabistoni Livan hukumatning asosiy qo‘llab-quvvatlovchilariga aylanishiga Livandagi sunniylarning imtiyozlari va ta‘sirining pasayishi tahdidi sabab bo‘ldi⁸⁷.

2006-yilgi Isroil bilan mojarodan so‘ng, so‘rovlar Hizbulloh va uning rahbari Hasan Nasrulloh arab jamoatchiligi orasida eng yuqori reytingga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ammo bu raqamlar 2011-yilda boshlangan Suriya fuqarolik urushi paytida Hizbulloh Suriya yetakchisi Bashar al-Assadni qo‘llab-quvvatlaganidan so‘ng keskin tushib ketdi.

2011-yilda Suriyada Asadga qarshi qo‘zg‘olon Hizbulloh uchun potentsial xavf tug‘dirdi. Damashqdagi strategik ittifoqchini qutqarish Hizbulloh uchun Suriya hududi orqali Erondan qurol-yarog‘ oqimini saqlab qolish uchun juda muhim edi. Bundan tashqari, Suriyaning Livandagi uzoq yillik ta‘siri tufayli Asadning ag‘darilishi Livanning ichki siyosiy muvozanatini Hizbulloh va uning ittifoqchilari zarariga buzishi mumkin edi. Asadni qo‘llab-quvvatlashini e‘lon qilish bilan Hizbulloh o‘zining Bahrayn, Misr va Tunisdagi kabi o‘sha paytda sodir bo‘lgan boshqa arab bahori noroziliklarini qo‘llab-quvvatlash pozitsiyasiga qarshi chiqdi. Hizbulloh Isroilga qarshilik rolini e‘tiborsiz qoldirgani va Suriyadagi fuqarolar urushiga kirgani uchun Livan ichida ham, mintaqa bo‘ylab ham keskin qarshilikka duch keldi. Aralashuv Hizbulloh pozitsiyasiga mazhabviy rang berayotgan alaviylar hukmronlik qilgan rejimni qo‘llab-quvvatlagani bilan murakkablashdi. Bu Hizbullohning Suriyadagi sunniylarni nishonga olganligini e‘lon qilgan Saudiya

⁸⁷ J.Robert Kane, A life cycle analysis of Hezbollah: Where the group came from and where it is going, American Intelligence Journal, vol.35, No.2, counterintelligence and the insider threat (2018). pp.67-73.

Arabistoni kabi Hizbullohning dushmanlariga qo‘l keldi. Aftidan, Hasan Nasrulloh Hizbullohning Suriyadagi o‘zining strategik chuqurligini yo‘qotish xavfi bor degan xulosaga kelgan.

Partiya Hamas va Asad o‘rtasida vositachilik rolini ham o‘ynagan. Shu sababli, Sulaymoniy o‘ldirilganidan beri Hizbulloh Iroqda kattaroq rol o‘ynamoqda va Suriyada yaqin paytlargacha asosiy aktor bo‘lib qoldi. O‘sha paytdagi Isroil Bosh vaziri Naftali Bennet intervyusida Eronning ta’sir tarmog‘ini sakkizoyoqqa o‘xshatib, Isroil hozir uning boshiga (ya’ni Eronga) hujum qilayotganini aytadi. Eronning oliy rahbari moddiy va g‘oyaviy yordam orqali nodavlat o‘yinchilarga ta’sir o‘tkazsa-da, Eron va uning proksilari o‘rtasidagi munosabatlar shunchaki birining ikkinchisiga buyruq berishidan ko‘ra murakkabroqdir.

Qarshilik o‘qining asosiy tarkibiy qismlari - Livandagi Hizbulloh, Falastindagi Hamas yoki Yamandagi Ansarulloh har biri o‘zlarining milliy kontekstlarida madaniy, siyosiy va ijtimoiy jihatdan ildiz otgan va sezilarli avtonomiyaga egadir. Masalan, 2006-yilda Hamas Tehronda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlariga qaramay, Falastin qonunchilik saylovlarida ishtirok etish to‘g‘risida qaror qabul qildi va 2015-yilda Ansarolloh Quds kuchlarining e’tiroziga qaramay, Yamanning Adan shahriga hujum qildi. Hizbullohga kelsak, uning so‘nggi 40 yildagi Eron bilan munosabatlari shu darajaga yetdiki, Eron Livandagi siyosiy masalalarda, masalan, saylov ittifoqlarini tuzish yoki hukumat yoki parlamentda siyosatni ma’qullash masalalarida to‘la mustaqildir. Eron hatto mintaqadagi murakkab masalalarni hal qilishda Hizbullohning tajribasi va imkoniyatlariga tayanadi. Bir boshli sakkizoyoq bo‘lishdan ko‘ra, qarshilik o‘qi turli boshlarni o‘z ichiga oladi va bu o‘qni ko‘p qirrali va ta’sirli qiladigan jihat bu undagi boshlarning avtonomiyaga ega ekanligidir⁸⁸.

Hizbullohning so‘nggi o‘ttiz yil ichida Livan siyosatiga kirib borishi, jumladan, siyosiy elita bilan siyosiy va saylov

⁸⁸ Akbar Khan, Han Zhaoying; Iran-Hezbollah alliance reconsidered: What contributes to the survival of State-proxy alliance? ; Journal of Asian security and international affairs, vol.7, No. (2020), pp. 101-123

alyanslarini tuzishi uni status-kvo himoyachisiga aylantirdi. 1980-yillarda Hizbulloh fransuz mustamlakachiligining adolatsiz merosi deb bilgan mazhabviy siyosiy rejimni ag'darish tarafdori edi. Ammo bu 1992-yilda, Toif kelishuvidan so'ng, partiya parlamentga nomzodlarni ilgari surganida o'zgardi. 1992-yildan 2005-yilgacha, Hizbullohning siyosiy roli Livan parlamenti ichidagi muxolifatda edi. Ammo 2005-yilda Suriya qo'shinlarini olib chiqib ketganidan so'ng va G'arb tomonidan qo'llab-quvvatlangan 14-mart guruhi tomonidan Hizbullohni qurolsizlantirish bo'yicha kompaniyaning kuchayib borayotgan chaqiriqlariga duch kelgandan so'ng, partiya vazirlar mahkamasiga vazirlarni tayinlash orqali Livan siyosatida to'g'ridan-to'g'ri rol o'ynashi kerakligini angladi.

2016-yilda esa Hizbulloh general Mishel Aunni prezidentlikka ilgari surdi. Livan siyosatiga tobora kuchayib borayotgan bu aralashuv bilan, Hasan Nasrulloh ta'biri bilan aytganda, qarshilik harakatini himoya qilishga muvaffaq bo'ldi. Ammo Livanda status-kvo o'yinchisi bo'lish Hizbullohning ichki siyosiy obro'siga putur yetkazdi va 2022-yil may oyida bo'lib o'tgan so'nggi saylovlarda partiyaning parlamentdagi ko'pchilik o'rnini yo'qotishiga olib keldi. Hizbulloh-Amal koalitsiyasi o'z o'rinlarini saqlab qolgan bo'lsa-da, ularning nasroniy va druz ittifoqchilari o'rinlardan mahrum bo'ldi. Livanni davlat barbod bo'lish yoqasiga olib kelgan siyosiy boshi berk ko'cha va iqtisodiy tanazzul Hizbullohning ijtimoiy tayanchi shia jamoasiga ta'sirini susaytirishi mumkin.

Hizbullohning Livandagi siyosiy manyovrlari o'zining strategik mahorati va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. 1989-yilda fuqarolar urushini tugatgan Toif kelishuvi Hizbulloh mohirona boshqargan siyosiy hokimiyatni qayta taqsimlash uchun asos yaratdi. Saylovlarda qatnashib, parlament o'rinlarini egallash orqali Hizbulloh Livan siyosatidagi rolini qonuniylashtirdi. Guruhning ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishi va kuchli harbiy qanotni saqlab qola olganligi uning ta'sirini yanada mustahkamladi.

XXI-asrning birinchi ikki o'n yilligida Hizbullohning siyosiy strategiyasi turli fraksiyalar, jumladan, Maroniylar bilan ittifoq tuzishni o'z ichiga oldi, bu esa ularning qo'llab-quvvatlash bazasini kengaytirdi. 2006-yilda Isroil bilan urush, katta vayronagarchiliklarga sabab bo'lganiga qaramay, Hizbullohning Livanni himoya qiluvchi kuch sifatidagi obro'sini oshirdi va uning ichki va mintaqaviy mavqeini mustahkamladi. Biroq, Hizbullohning Suriya fuqarolar urushidagi ishtiroki va Eron bilan ittifoqi tanqidga uchradi va Livandagi mazhabiy bo'linishlarni chuqurlashtirdi.

Guruhning siyosiy manevrlari bir vaqtning o'zida ham barqarorlik ham tortishuvlar manbai bo'ldi. Hizbulloh Livan siyosiy manzarasini shakllantirishda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, uning harakatlari bo'linishlar va tashqi qaramliklarni davom ettirdi. Livan iqtisodiy inqirozlar va siyosiy beqarorlik bilan kurashishda davom etar ekan, Hizbullohning kelajakdagi roli qizg'in munozaralar mavzusi bo'lib qolmoqda. Guruhning harbiy va siyosiy ambitsiyalarini muvozanatlash qobiliyati Livanning kelajakdagi yo'lini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

III BOB. LIVAN IQTISODIY-SIYOSIY INQIROZINING MINTAQAVIY VA GEOSIYOSIY JIHATLARI VA ISTIQBOLLARI.

1-§. XXI asrda Livandagi etno-konfessional munosabatlar va iqtisodiy-siyosiy inqiroz

1932-yildan beri Livanda aholini rasmiy ro'yxatga olish o'tkazilmagan bo'lib, bu Livandagi etno-konfessional muvozanatga nisbatan siyosiy sezgirlikni aks ettiradi. Natijada, Livan aholisining diniy-milliy mansubligiga oid aniq ma'lumotlarni olish qiyin va aholining diniy mansubligi bo'yicha taxminiy ma'lumotlarni olish uchun turli manbalardan foydalaniladi.

Quyida Livan xalqining diniy mansubligini to'liq aks ettirmaydigan turli manbalar bilan tanishamiz. Bayrutda joylashgan Statistics Lebanon tadqiqot kompaniyasi tomonidan 2012-yilda o'tkazilgan tadqiqot Livan aholisining 54% musulmonlar (27% shia; 27% sunniy), 5% druzlar, 35,5% xristianlar (21% maroniylar, 8% yunon pravoslavlar, 6,5% boshqa xristian guruhlar) ekanligini taxmin qilgan⁸⁹. Markaziy razvedka boshqarmasining World Factbook (2020) esa o'z hisob-kitoblarida, Livandagi ko'p sonli suriyalik va falastinlik qochoqlarni o'z statistikasiga kiritmaydi. Natijada quyidagicha sonlar kelib chiqadi: musulmonlar 67,8% (sunnilar, shialar, alaviylar va ismoiliylar), xristianlar 32,4% (asosan maroniy katoliklari), druzlar 4,5% va juda oz sonli yahudiylar, bahoiylar, buddaviylar va hinduiylar⁹⁰. Pew tadqiqot markazining 2022-

⁸⁹ Grey, I., Thomas, J., Mansour Jamaledine, J., Yaktine, T., & Cheung Chung, M. (2024). Religious coping and levels of posttraumatic stress disorder symptomatology after the Beirut explosion. *Psychological Trauma: Theory, Research, Practice, and Policy*, 16(1), 39–48. <https://doi.org/10.1037/tra0001529>

⁹⁰ "Lebanon – The World Factbook". Central Intelligence Agency, United States <https://www.cia.gov/the-world-factbook/countries/lebanon/> (Ma'lumot olingan sana: 02.01.2025)

yildagi tahliliga ko‘ra, Livan aholisining 38,4%ini xristianlar, musulmonlar esa 61,2%ni tashkil qiladi⁹¹.

Umumiy qilib olganda hozirda shialar eng katta etno-konfessional birlik sifatida Livan hayotida muhim o‘rin egallamoqdalar. Shialar Livan fuqarolik urushi davrida Sunniylar va FATH bilan birga harakat qilgan bo‘lsada, 1980-yillardan mustaqil harakat tuza boshladilar. Bunga ularning Livan janubida ularga katta e‘tibor qaratilmayotgani va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ahvolning yomonlashuvi sabab bo‘ldi. Qolaversa, Erondagi Islom inqilobi sabab bu yerda yangi o‘yinchi yaratildi. Bu albatta Hizbulloh yohud “Alloh partiyasi” nomli tashkilot edi.

Hizbulloh 1982-yilda Najafda tahsil olgan Livanlik yosh shia ulamolari tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, 1979-yil Eron inqilobidan keyin Oyatulloh Humayniy tomonidan bayon etilgan modelni qabul qildi va uning asoschilari Xumayniy ko‘rsatmasiga ko‘ra Hizbulloh nomini tanladilar⁹². Ba'zilar tashkilot Livanning siyosatida chetda qolgan Shia musulmonlarining iqtisodiy va siyosiy jihatdan ta'sir o'tkazish vositasi deb hisoblashadi. Hizbulloh kuchlari Suriya hukumati ruxsati bilan, Erondan 1500 nafar Inqilobiy gvardiya kontingenti tomonidan tayyorlangan va tashkil etilgan. Ular Suriya nazoratidagi Livanning sharqiy tog‘lari orqali o‘tib olishlari va Livan ishg‘oli davrida Biqo vodiysida qarorgoh o‘rnatishlariga ruxsat berildi⁹³. Dastlab, Hizbulloh islomiy respublikani barpo etish kabi umumiy strategik maqsadlarga ega, ammo taktik masalalarda bir-biridan farq qiladigan radikal shia harbiylashtirilgan guruhlar tarmog‘i sifatida faoliyat yuritgan.

Isroilning Livanga bostirib kirishi bilan boshlangan 1982-yilgi urushda 800 ga yaqin Inqilobiy gvardiya askarlari Suriya

⁹¹ Religious Composition by Country, 2010-2050 <https://www.pewresearch.org/religion/feature/religious-composition-by-country-2010-2050/> (Ma'lumot olingan sana: 21.12.2024)

⁹² Hirst, David (2010). *Beware of small states: Lebanon, battleground of the Middle East*. London: Faber and Faber. ISBN 978-0-571-23741-8.

⁹³ Adam Shatz (29 April 2004). *"In Search of Hezbollah"*. *The New York Review of Books*. Archived from [the original](#) on 22 August 2006

orqali Livanga Hizbullohni qo'llash, siyosiy va diniy targ'ibot va harbiy tayyorgarlik bo'yicha ko'rsatmalar berish uchun jo'natildi⁹⁴. 1985-yilda Hizbulloh rasman Eron rejimi va Oyatulloh Xumayniy rahbariyati bilan hamkorlik aloqalarini tasdiqladi. Hizbulloh tashkil topganidan beri Eronning ishonchli vakili sifatida faoliyat yuritib keladi va Eron har yili 700 million dollardan 1 milliard dollargacha bo'lgan katta moliyaviy yordam ko'rsatadi⁹⁵.

Eron Hizbulloh bilan munosabatlarini muhim deb biladi, chunki u Eronga Livantdagi ta'sirini kengaytirish, Isroil va AQSh manfaatlariga bosim o'tkazish, Erondagi rejimni o'zgartirishga bo'lgan har qanday urinishlarning oldini olish uchun vosita bilan ta'minlaydi.

Livan sunniylariga kelsak ular dastlab Suriyadan ajratilgan Livan davlatining tashkil etilishiga qarshi bo'lgan. Suriya aholisining ko'pchiligi ham sunniy musulmonlar edi va shuning uchun ham ular hozirgi Livan hududi Suriya hududiga qo'shilishini xohlashdi. Sunniy musulmonlar va alaviylar asrlar davomida bir-biri bilan to'qnash kelgan. Livan alaviylari sunniy Usmonli imperiyasi tomonidan zulmga uchragan, ammo Fransiyaning Suriya mandati davrida Fransuzlar alaviylarni askar sifatida jalb qilganlarida kuch va nufuzga ega bo'lgan⁹⁶. Fransiya mustaqillikka erishgach, 1970-yilda Suriyada hokimiyat tepasiga ularning dindoshlari Asad oilasi keldi. Yillar davomida Tripolidagi sunniy va alaviy jamoalar o'rtasida, xususan, Tunisda boshlangan arab bahorining bir qismi sifatida Suriyadagi qo'zg'olon boshlanganidan keyingi 14 oy ichida ko'plab to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Umuman olganda sunniylar

⁹⁴ Beinin, Joel (January 1993). ["Money, Media and Policy Consensus: The Washington Institute for near East Policy"](#). *Middle East Report* (180): 10–15. [doi:10.2307/3013225](#). [ISSN 0899-2851](#). [JSTOR 3013225](#).

⁹⁵ Anziska, Seth (2019-08-28), ["Arab-Israeli Wars and US Foreign Relations"](#), *Oxford Research Encyclopedia of American History*, Oxford University Press, [doi:10.1093/acrefore/9780199329175.013.756](#), [ISBN 978-0-19-932917-5](#)

⁹⁶ Mordechai Nisan. ["Minorities in the Middle East: a history of struggle and self-expression"](#). McFarland, 2002. [ISBN 0-7864-1375-1](#), [ISBN 978-0-7864-1375-1](#)

alaviylarni bid'atchilar deb biladilar. Suriyada minglab sunniylar halok bo'layotgan keskinlik davrida ular sunniylar tomonidan dushman sifatida ko'rildi.

Livan sunniylari Saudiya Arabistoni bilan yaqin aloqada bo'lib, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi⁹⁷. Qolaversa, Livan sunniylarining tayanchi bo'lgan Tripoli Livandagi salafiyalar harakatining markazi hisoblanadi.

Maroniylar guruhi haqida gap ketganda shuni ta'kidlash lozimki, ular Livan davlati tashkil topayotgan paytda mamlakatda ko'pchilikni tashkil etar edilar. Va shu sababli mamlakatda nisbatan ko'proq hokimiyat ularning qo'lida bo'lib kelgan.

Ko'pgina maroniylar o'zlarini Livanda yashagan oromiylarning avlodlari deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, ular cherkov asoschisi avliyo Maronni Oromiy tilida so'zlashuvchi bo'lgan deb bilishadi. Livan Parlamentidagi 34 o'rin maroniylarga ajratilgan bo'lib eng katta partiyaning ham tayanchi maroniylar hisoblanadi.

Erkin vatanparvarlik harakati xristianlarga asoslangan siyosiy partiya bo'lib, sobiq prezident Mishel Aunning dasturiga amal qiladi. Hozirda u Livan parlamentidagi 128 o'rinning 17 tasiga ega. Partiya Batroun va Jezzine kabi xristian tumanlarida katta qo'llo'vga ega. Maroniylarga asoslangan boshqa kichikroq partiyalar, faqat mahalliy qo'llo'vga egadirlar. Bularga: Marada harakati, Milliy liberal partiya va Mustaqillik harakati kabi mahalliy harakatlar kiradi.

Livandagi eng katta etno-konfessional ozchilik bu Druzlar desak yanglishmaymiz. Druzlar jamoasi zamonaviy Livan davlatining shakllanishida muhim rol o'ynagan va ular ozchilik bo'lsa ham, Livan siyosiy sahnasida muhim rol o'ynaydi. Livandagi fuqarolar urushi oldidan druzlar asosan panarabizm va Falastinliklarning FATH harakati tarafdori edi. Jamiyatning katta qismi o'z yetakchisi Kamol Jumblatt tomonidan tuzilgan Progressiv Sotsialistik partiyaning qo'llab-quvvatlashi va ular boshqa

⁹⁷ Lucy Fielder (23–29 June 2011). ["Trial by fire for Lebanon's government"](#). *Al Ahram Weekly* (1053)

so‘l va Falastin partiyalari bilan birga asosan xristianlardan tashkil topgan Livan frontiga qarshi kurashdilar. 1977-yil 16-martda Kamol Jumblatt o‘ldirilgach, uning o‘g‘li Valid Jumblatt partiya yetakchiligini o‘z qo‘liga oldi va Tog‘ urushida g‘alaba qozonganidan so‘ng otasining merosini saqlab qolishda muhim rol o‘ynadi va keyinchalik davom etgan diniy xunrezliklar paytida druzlar jamoasining mavjudligini saqlab qoldi. 2001-yil avgust oyida maroniy katolik patriarxi Nasrulloh Butros Sfeir Livan tog‘ining asosan druzlar yashaydigan Chuf mintaqasiga sayohat qildi va druzlar yetakchisi Valid Jumblattning ajdodlari qal’asi bo‘lgan Muxtaraga tashrif buyurdi. Sfeirning shov-shuvli tashrifi 1983-1984-yillarda qonli urush olib borgan maroniylar va druzlar o‘rtasidagi tarixiy yarashuvini boshlab berdi.

Jumblattning 2005-yildan keyingi mavqei uning oilasi an’analaridan keskin farq qildi. U, shuningdek, Damashqni 1977-yilda otasi Kamol Jumblattga qilingan suiqasd ortida turganlikda aybladi. BBC Jumblattni “Livandagi eng qudratli druzlar urug‘ining eng aqlli rahbari va so‘l siyosiy sulolaning vorisi” deb ta’riflaydi⁹⁸. Druzlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ikkinchi yirik siyosiy partiya Livan mustaqillik qahramoni amir Majid Arslonning o‘g‘li Talal Arslon boshchiligidagi Livan Demokratik partiyasidir. 2008-yil 10-mayda 2008-yilgi mojaroning bir qismi sifatida Hizbulloh kuchlari va druzlar o‘rtasida o‘z tog‘larida to‘qnashuvlar sodir bo‘lib, har ikki tomon ham qurbon bo‘ldi. To‘qnashuvlar Kayfun yaqinidagi Aytat shahrida boshlandi va tez orada Livan tog‘ining Baysur, Shuvayfat va Aley kabi ko‘plab hududlarini qamrab oldi. 2016-yilda Hizbulloh yetakchilaridan olingan bayonotlarda tog‘ni janubdan yaqin masofali artilleriya va Suriyadan uzoq masofali artilleriya bilan bombardimon qilish ham ko‘p ko‘rib chiqilayotgani aytilgan⁹⁹. Livanlik nasroniylar va

⁹⁸ “Who’s who in Lebanon”. *BBC News*. http://news.bbc.co.uk/2/hi/middle_east/4348129.stm (Ma’lumot olingan sana: 21.12.2024)

⁹⁹ “Saturday’s live coverage of the war in Lebanon”. https://en.wikipedia.org/wiki/Ya_Libnan (Ma’lumot olingan sana: 10.01.2025)

druzlar islom dunyosida genetik izolyatsiyaga uchragan xalqlarga aylanganlar.

Hozirgi kunda Livandagi hokimiyat balansi ham o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Mazkur evrilishlarni 2022-yilgi parlament saylovlari natijalarida ham ko'rishimiz mumkin. Unda Hizbulloh tarafdorlari bloki 58 o'rinni qo'lga kiritdi, bu ko'pchilikni qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan 65 o'rindan kam (avvalgi saylovda 71 ovoz to'plangan edi). Hizbulloh ittifoqchisi bo'lgan Erkin vatanparvarlik harakati endi mamlakatdagi eng yirik xristian parlament bloki emas. Bu safargi saylovlarda 18 o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, AQSh va Saudiya Arabistoni qo'llab-quvvatlagan raqibi Livan kuchlari 20 o'rinni qo'lga kiritdi. Aleydagi druzlar yetakchisi Talal Arslon va Tripolidagi sunniylar yetakchisi Faysal Karame ham hokimiyatga qarshi nomzodlarga o'z o'rinlarini boy berdi.

Bundan tashqari, harakatning Livan janubidagi saylov markazlarida Hizbulloh tomonidan qo'llab-quvvatlangan ikki nomzod, oppozitsiya nomzodlariga mag'lub bo'ldi. Hammasi bo'lib, 16 ta islohotga qarshi mustaqil nomzod parlamentga kirib keldi, bu 2018-yilgi saylovlarga nisbatan 15 o'ringa ko'p.

Status-kvo va hukmron siyosiy partiyalarni tanqid qiluvchi platformalarda qatnashadigan yana to'qqiz nomzod, jumladan, milliarder biznesmen Fuad Maxzumi va bir vaqtlar nufuzli Xristian Kataeb partiyasining to'rt nafar nomzodi ham saylandi. So'nggi o'n yilliklarda ilk bor saylovlar mamlakatdagi eng yirik sunniy partiya – "Kelajak harakati"siz o'tdi. Uning rahbari, sobiq bosh vazir Saad Haririy shu yil boshida siyosatdan ketgan edi. Uning ba'zi tarafdorlari boykotni ma'qulladilar, ba'zi ittifoqchilari esa saylovlarda qatnashish uchun partiyani tark etdilar.

Tahlilchilar va ba'zi Haririy ittifoqchilari Haririyning ketishi natijasida yuzaga kelgan siyosiy bo'shliq Hizbulloh ittifoqchilariga Bayrut, Sidon, Tripoli va boshqa muhim saylov okruglarida o'z ta'sirini kengaytirish imkonini beradi deb qo'rqishdi. Biroq Bayrutning Haririy uchun muhim saylov

tayanchi bo'lgan ikkinchi okrugida muxolifatning uchta nomzodining qo'li baland keldi. Bayrut tumanida eng ko'p ovoz to'plagan holda sunniylar o'rnini qo'lga kiritgan mustaqil Ibrohim Mneyme odamlar siyosat yuritishning yangi usulini xohlaydi, deb hisoblaydi va ba'zi tahlilchilar ta'riflaganidek, "sunniiy bo'shliq" qo'rquvini rad etadi. "Buni aytganlar adashishdi – U an'anaviy liderlarni yengishga qaror qildi", dedi Mneime Al Jazeera¹⁰⁰. "Va biz sunniylarning ovozini olganimiz yo'q, biz shia, nasroniy va druzlardan ham ovoz oldik, bu shaharda o'z ovozigga ega bo'lish odamlar uchun muhimligini ko'rsatdi". Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish inqirozdan jabr ko'rgan mamlakatni saylov o'tkazganligi bilan tabrikladi. "Qiyin sharoitlarga qaramay, hukumat Livan Konstitutsiyasiga rioya qilish va demokratik an'analarni xurmat qilish majburiyatini namoyish etdi", — deyiladi Guterrish bayonotida. Shu bilan birga BMT bosh kotibi hukumatni tezroq tuzishga ham chaqirdi.

Mamlakatning yangi parlamenti endi Xalqaro Valyuta Jamg'armasi bilan muzokaralarini davom ettirish va Livan iqtisodiyotining ko'p yillik notinchlikdan keyin tiklanishiga yordam berish uchun iqtisodiy va tarkibiy islohotlarni amalga oshirish uchun saylangan bosh vazirni tayinlashi va yangi hukumatni shakllantirishi kerak bo'ladi. Parlament, shuningdek, 30 yil davomida bu lavozimda ishlagan Nabil Berri, shuningdek, oktyabr oyida mamlakat prezidenti bo'lishi mumkin bo'lgan spiker uchun ham ovoz beradi. Aholining to'rtidan uch qismidan ko'prog'i qashshoqlikda yashaydi. Livanning 128 o'rinli parlamenti ko'plab musulmon va nasroniy mazhablariga bo'lingan. Mamlakatdagi mazhabviy hokimiyat taqsimoti tizimi prezidentning maroniy nasroniy, bosh vazir sunniy musulmon va parlament spikeri shia musulmon ekanini taqozo qiladi. Saylovni

¹⁰⁰ Jamie Prentis. Lebanon set to enter 2024 without a president as deadlock persists <https://www.thenationalnews.com/mena/lebanon/2023/12/21/lebanon-set-to-enter-2024-without-a-president-as-deadlock-persists/> (Ma'lumot olingan sana: 10.01.2025.)

kuzatuvchilar hukumat va siyosiy partiyalarni korrupsiya va zo‘ravonlikda aybladi. Livan Demokratik saylovlar assotsiatsiyasi, mahalliy nohukumat tashkilotining livanlik kuzatuvchilari kamida 3600 qonunbuzarlikni sanab, asosan Hizbulloh va boshqa shia partiyasilarini mazkur qonun buzilishlarida aybladi.

Bundan tashqari mamlakat hozirda o‘z tarixidagi eng og‘ir iqtisodiy inqirozni boshidan o‘tkazamoqda. 2021-yil 11-avgustda Livan markaziy banki yoqilg‘i subsidiyalarini to‘xtatdi va buning o‘rniga ular “Livan funtining bozor narxidan kelib chiqqan holda yoqilg‘i importi uchun kredit liniyalari” taklif qilishlarini e‘lon qildi¹⁰¹. Bu qaror mamlakatdagi iqtisodiy inqiroz sharoitida yoqilg‘i narxining sezilarli darajada oshishiga olib keldi, biroq hukumat tanqislikni bartaraf eta olmadi. 2021-yil 9-oktabrda ikkita eng yirik elektr generatorlari Zahrani va Dayr Ammar yoqilg‘i tugab qolgani sababli mamlakat 24 soatlik to‘liq blekoutni boshidan kechirdi. Hozirda kommunal xizmatlar kuniga bir necha soatgina elektr energiyasini taklif qila oladi. Chunki ular markaziy generatorlarni quvvatlantirish uchun yoqilg‘i sotib ololmaydilar. 2021-yil dekabr oyida BBC News iqtisodiy inqiroz dori-darmonlar importida tanqislikka olib kelganini xabar qildi¹⁰². Ishsizlikning kuchayishi, milliy valyutaning qadrsizlanishi, inflyatsiyaning keskin o‘ssishi, dori-darmon va yoqilg‘i uchun subsidiyalarning olib tashlanishi ko‘pchilikning asosiy ehtiyojlarini qondirishni qiyinlashtirdi. 2022-yil sentabr oyida Livan Banklar Assotsiatsiyasi 2019-yilda o‘z bank hisob raqamlariga kira olmagan va omonatlarining katta qismidan foydalana olmagan omonatchilar bir necha filiallarga bostirib kirib, xodimlarni garovga olganlaridan keyin banklar uch kunga

¹⁰¹ “Lebanese central bank effectively ends fuel subsidy”. *Reuters*. 11 August 2021. <https://www.reuters.com/world/middle-east/lebanese-cbank-says-can-no-longer-subsidise-fuel-report-2021-08-11/> (Ma’lumot olingan sana 10.01.2025).

¹⁰² Shirin Jaafari (22 November 2021). “Lebanon's electricity crisis means life under candlelight for some, profits for others”

yopilishini e'lon qildi¹⁰³. 2023-yil fevral oyida Livan 25 yil ichida birinchi marta rasmiy kursni devalvatsiya qildi va bu uni 90 foizga zaiflashtirdi.

Bir necha omillar, jumladan keng tarqalgan korrupsiya, COVID-19 pandemiyasi va Bayrut portidagi portlash, mamlakat tarixidagi eng og'ir moliyaviy inqirozga olib keldi. Bosh vazir Najib Mikati Livan birinchi marta Yevrobond qarzini to'lay olmasligini e'lon qilganidan so'ng, Livan valyutasi qadrsizlana boshladi va bu giperinflyatsiyaga olib keldi. 2023-yil aprel oyida Livanda inflyatsiya darajasi deyarli 270 foizga yetdi. 2023-yil mart oyida Livan funti bir dollar uchun £L100,000 lik miqdordan ham ko'proqqa to'g'ri keldi.

2024- yildagi Isroil-Hizbulloh urushi esa guruh uchun yangi muammolarni keltirib chiqardi. Suriyadagi Assad rejimi qulaganidan keyin esa u yerdagi strategik tayanch punkti ham qo'ldan boy berildi hamda partiyaning Livan jamiyatining qolgan qismiga o'z irodasini o'tkazish qobiliyati zaiflashdi.

Hizbullohning sobiq bosh kotibi Hasan Nasrullohning o'ldirilishi guruh uchun katta yo'qotish bo'ldi. Nasrulloh o'ttiz yildan ortiq vaqt davomida Hizbullohn partizanlik harakatidan Yaqin Sharqning eng kuchli transmilliy harbiy tashkilotiga aylantirdi. U Eron tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qarshilik o'qi ichida birlashtiruvchi shaxs edi, mintaqaviy jangari guruhlar va Eronning oliy rahbari Oyatulloh Xomeneiy ishonchini qozongan edi. Nasrullohning vorisi Naim Qosim bu bo'shliqni to'ldirishda katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Hizbullohning asoschilaridan biri va tajribali ma'mur bo'lgan Qosim katta tajribaga ega, ammo Nasrullohdagi kabi harizmaga ega emas.

Hizbullohning yangi bosh kotibi Naim Qosimning so'nggi nutqlarida zaiflik belgilarini berkitishga intilish asosiy o'rin tutdi. U Hizbulloh Isroilning hujumidan tiklanayotganini, qarshilik

¹⁰³ "Lebanon banks to close as violent raids by depositors multiply". <https://www.thenationalnews.com/mena/lebanon/2022/09/16/lebanon-banks-to-close-as-branches-stormed-by-depositors-demanding-savings/> (Ma'lumot olingan sana 10.01.2025).

harakati davom etayotganini aytdi. Hizbulloh Livan davlati bilan munosabatlarida g'alaba illyuziyasini yaratmasa, partiyaning Livanda hukumatdan mustaqil qurolli kuch sifatidagi mavqeining taqdiri so'roq ostida qolishi mumkin .

Mulohazada Eron masalasi katta ahamiyatga ega. Qosim yaqinda qilgan nutqida Eron Isroil bilan to'qnashuvda mulkini yo'qotganlarga mablag' ajratishini e'lon qilgan bo'lsa-da, u va'da qilgan summalar vayronagarchilik miqyosi va rekonstruksiya xarajatlari bilan solishtirganda kichik summa edi. Bundan tashqari, Eronning o'zida mintaqaviy strategiyaga sarflangan pul, xususan, Suriyada isrof qilingan katta mablag'lar bo'yicha juda katta munozara bo'lib o'tayotganga o'xshaydi. Shu nuqtai nazardan, eronliklar Livanning shia hududlarini qayta qurish uchun katta yordam bera olishi tobora ehtimoldan yiroq bo'lib tuyulmoqda, ayniqsa, Tehron o'zining muhim Suriya tayanch punktini yo'qotganidan keyin. Agar bu baho to'g'ri bo'lsa, Hizbullohning shialar orasida ilgari bo'lgan qo'llo'v darajasini qayta tiklash oson bo'lmaydi va eronliklar va ularning ittifoqchilari Isroilni olov halqasi bilan o'rab olish siyosatini qayta tiklashlari deyarli imkonsiz.

Shunday bir holatda, 2025-yil 9-yanvar sanasida Livan parlamenti 2022-yildan beri bo'sh turgan Livan respublikasi prezidenti lavozimiga Lian qurolli kuchlari qo'mondoni Jo'zef aunni sayladilar. Mazkur voqea AQSH va Saudiya Arabistonining diplomatik ko'magida erishilgan partiyalararo konsensusning mevasidir.

Saylov Suriyada Assad rejimi qulatilganining ta'siri sezila boshlagan davrga to'g'ri keldi. Bu mintaqadagi Eronning ta'sirini kamaytirish bilan birga, uning o'rnini Turkiya egallashidan bezovta ko'rfaz arab monarxiyalarining (Turkiyaning ittifoqchisi bo'lgan Qatardan tashqari) Damashq bilan aloqalarni faollashtirish harakati kuchaygan davrga ham to'g'ri keldi. Anqaraning mintaqadagi manfaatlarini tiyib turish istagi, Saudiya Arabistonining Livan prezidentlik saylovidagi nomzod tanlovini izohlaydi.

Jo'zef Aun o'zining prezidentlik inaugratsiyasidagi nutqida Konstitutsiyani himoya qilish, davlat institutlarini qayta qurish, ma'muriy islohotlarni amalga oshirish va mamlakatni qayta qurishga va'da berdi. Uning nutqidagi yana bir muhim jihat shu bo'ldiki u Livan qurolli kuchlari mamlakat hududida kuch ishlatishda monopoliyaga ega bo'lishi kerakligini qayd etib o'tib, Hizbullohga ishora qildi. Ayrim sharxlovchilar prezidentning mamlakat yangi mudofaa strategiyasi ustida ishlashni boshlashini kutishmoqda. Shu bilan birga uning sud tizimini isloh qilish va sud ishlariga siyosiy aralashuvni cheklashini ham takidlab o'tgani e'tiborga molikdir.

Jo'zef Aunning ilgari surgan kun tartibi Livandagi turli guruhlar o'rtasida qizg'in muhokamalarni keltirib chiqarishi shubhasiz. Hizbulloh qurollarini qurolli kuch sifatidagi mavqeini yo'qotishni istamaydi. Ammo, Isroil bilan bo'lgan urushda vayron bo'lgan hududlarda qayta qurish ishlari boshlanishidan manfaatdor. Holbuki, buning amalga oshishi uchun xalqaro hamjamiyatning moliyaviy qo'llovi zarur. Bu esa mamlakatda iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazilishini va hukumat va Hizbullohning yaqindan hamkorlik qilishi kerakligini taqozo etadi.

Yuqoridagi o'zgarishlarning amalga oshishi uchun xalqaro ko'makdan tashqari Livanning hududiy daxlsizligi ham saqlanishi muhimdir. Isroil tomonidan e'lon qilinayotgan bayonotlar esa Isroil kuchlarining janubiy Livanda egallangan hududlardan chiqib ketish istagi yo'qligini ko'rsatmoqda. Bunday qaror Hizbullohning qurolli harakat sifatida mavjudligi uchun tabiiy sabab vazifasini o'taydi.

Umuman olganda Jozef Aunning prezidentlikka saylanganligi Livan uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Mazkur prezidentlik mandatining muvaffaqiyat yoxud muvaffaqiyatsizligi Jozef Aunning Livan institutlarini qayta qurishdagi va siyosiy elita vakillarini guruh manfaatlaridan milliy manfaatlar sari yo'naltira olishdagi irodasiga bog'liq. Bundan

tashqari islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qulay geosiyosiy vaziyat ham muhimdir.

2-§. Livanning geosiyosiy pozitsiyasi, o‘tmish, bugun va kelajak

Livanning qulay geografik joylashuvi va og‘ir geosiyosiy muhit bir vaqtlar “Sharq Shveytsariyasi” deb atalgan hududni “Yaqin Sharqning Gaitisi” bo‘lishiga olib keldi. O‘tgan asrdagi to‘xtovsiz mintaqaviy o‘zgarishlarga Isroilning barpo etilishi, Jamol Abdul Nosirning panarab fenomeni, Falastin ozodlik tashkilotining yuksalishi, ko‘plab arab-isroil urushlari, shu jumladan Isroilning Livanga bostirib kirishi kabi seysmik voqealar kiradi. Iroqdagi urushlar, Eron Islom inqilobi, Suriyadagi fuqarolar urushi esa vaziyatni yanada chigallashtirdi. Bu mintaqaviy notinchlik arab davlatlariga og‘ir yuk bo‘lib, tashqi siyosatni hatto Suriya, Iroq, Misr va Jazoir kabi mintaqadagi kuchliroq davlatlar uchun ham og‘irlashtirdi. Ba’zi tahlilchilar ushbu og‘ir mintaqaviy sharoitlarni beqarorlashtiruvchi omil va Livanning izchil tashqi siyosatiga asosiy to‘siq sifatida qaraydilar.

Darhaqiqat, Livan o‘zining zamonaviy tarixining asosiy qismida bir o‘zi hal qilishga ojizlik qiladigan ko‘plab muammolarga duch keldi. Bunday katta qiyinchiliklarga qarshi turish uchun Livanda zarur vositalar, tajriba va institutlar yo‘q edi. Shunga qaramay, diplomatiya uning manfaatlarini ta’minlash uchun yagona vosita bo‘ldi. Livanning ba’zi tashqi ishlar vazirlari qo‘llaridan kelgancha harakat qilishgan va sa’y-harakatlari uchun e’tirof etilganlar geosiyosiy beqarorlik ichki keskinliklar bilan bir vaqtga to‘g‘ri keldi. Shu tufayli turli xil harakatlar ko‘pincha millatning umumiy zarariga olib keldi.

Beqarorlik esa mamlakat tashqi siyosatidagi yagona barqaror xususiyatga aylandi. Fuqarolik urushidan so‘ng mamlakatda ikkita yo‘nalish bo‘yicha kelishmovchiiklar mavjud edi. Birinchisi iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lib mamlakatning Fors ko‘rfazi davlatlari va G‘arb bilan aloqalariga ko‘proq e’tibor

berishni taqozo etardi. Ikkinchi yonalish esa mudofaa va xavfsizlikka ko'proq urg'u berar edi hamda Livanning Suriya, Eron va Rossiya bilan yaqin hamkorligi ma'qul ko'rilar edi. Qisqa muddatga bo'lsada mazkur ikki yo'nalish bir varakayiga olib borildi. Ammo sobiq bosh vazir Rafiq Haririning o'ldiriishi bilan mazkur nizo yana kun tartibiga chiqdi.

Umuman olganda Livanning zamonaviy davlatchiligi shakllanganidan beri tashqi siyosat masalasidagi yondashuvlar tinimsiz o'zgaravergan. Livan prezidentlarining aksariyati prezidentligi davrida ichki va tashqi tartibsizliklar yuz berdi. Mustaqilik davridagi 13 ta prezidentdan 11 tasi tashqi u yoki bu mojaroga to'qnash kelgan va ikkitasi o'ldirilgan. Bu orada alyanslar ham o'zgarib turdi. Masalan, bir paytlar Livan Fransiya bosqinchi sifatida ko'rgan bo'lsa, keyinchalik uni "ona Fransiya" deb bilgan. Qo'shma Shtatlar bir vaqtlar global tinchlikni saqlovchi sifatida ko'rilgan bo'lsa, hozirda ichki ishlarga aralashuvchi va Isroilning mintaqaviy gegemonligiga qarshi bo'lgan ba'zi Livan guruhlarining dushmani sifatida ko'riladi. Shu tarzda Suriya va Saudiya Arabistonini ba'zilar ittifoqchi, boshqalar esa dushman deb bilishadi. Eronni ba'zi guruhlar qutqaruvchi sifatida olqishlaydilar. Boshqalar esa Hizbulloh qurolli partiyasi bilan yaqin aloqalari tufayli asosiy tortishuv nuqtasi deb bilishadi. Zamonaviy tarix davomida hokimiyat o'zgargani va hukumatlar o'zgargani sayin tashqi siyosat moyilligi ham o'zgarib bordi.

Lekin Livan konstitusiyasiga qaraydigan bo'lsak, Toif kelishuvlaridan keyin ham Konstitutsiya muqaddimasida ayrim asosiy tamoyillar mustahkamlab qo'yilgan. Bular:

"Livan o'z mansubligiga ko'ra Arab davlatidir. Arab davlatlari Ligasining ta'sischisi va faol a'zosi bo'lib, uning paktlari va ahdlariga amal qiladi. Livan, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'sischisi va faol a'zosi bo'lib, uning ahdlariga va inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga amal

qiladi. Hukumat ushbu tamoyillarni istisnosiz barcha sohalarda o‘zida mujassam etadi”¹⁰⁴.

Konstitutsiya tashqi siyosatni qanday olib borish mumkinligi to‘g‘risida ushbu umumiy qo‘llanmani belgilab qo‘ygan bo‘lsa-da, u potentsial nomuvofiqliklarni qanday hal qilish bo‘yicha ko‘rsatma bermagan. Misol uchun, Agar Livan Arab paktlari va ahdlariga rioya qilsa, BMT qarorlariga qarshi chiqishi mumkin (masalan, Isroil davlatining tashkil etilishi masalasida). Shu tarzda, agar BMT ahdlariga rioya qilish kerak bo‘lsa, Livanning boshqa Arab davlatlariga yoki Eron yoki Rossiyaga qarshi sanksiyalarga qarshi pozitsiyasi qanday bo‘lar edi?¹⁰⁵

Livanning tashqi siyosatini tahlilidan foydalangan holda tahlil qilishda qattiq kuch va yumshoq kuch tushunchalaridan foydalanish va ularning tashqi siyosatga ta‘sirini o‘rganish samaralidir. Bu mamlakatning kuchli va zaif tomonlari haqida tushuncha berishi mumkin.

Livan o‘z tarixi davomida ikki turdagi kuchga ega edi: qattiq kuch va yumshoq kuch. Uning tashqi siyosati mustaqillikdan keyingi yigirma yil ichida, ikkalasi ozmi-ko‘pmi muvozanatda bo‘lganida eng samarali bo‘ldi. Fuqarolar urushidan so‘ng, Livan davlatining qattiq kuchi orqaga chekindi, yumshoq kuchining jozibasi esa saqlanib qoldi, ko‘plab davlatlar unga yordam berishga tayyor edilar. Ushbu kuch nomutanosibligi natijasida Livanning so‘nggi paytlarda tashqi siyosati biroz sustlashdi.

Boshqa yondashuvlar Livanning tashqi siyosiy kuchi deyarli har doim uning yumshoq kuchida degan xulosaga keldi. Bunga Livanning diniy bag‘rikengligi, madaniy xilma-xilligi,

¹⁰⁴ Livan Respublikasi Konstitutsiyasi

<https://www.presidency.gov.lb/English/LebaneseSystem/Documents/Lebanese%20Constitution.pdf> (Ma’lumot olingan sana: 10.01.2025)

¹⁰⁵ Mona Yacoubian (2021) Lebanon: Assessing political paralysis, economic crisis and challenges for U.S policy. Retrived from: <https://www.usip.org/publications/2021/07/lebanon-assessing-political-paralysis-economic-crisis-and-challenges-us-policy> (Ma’lumot olingan sana: 21.12.2024)

demokratik an'ana, liberal moyillik, badiiy ijod, o'ziga xos taomlari, tijorat aloqalari va nisbatan katta chet eldagi vatandoshlar hamjamiyati orqali global mavjudligi kiritilgan. Bu Livanni boshqa yaqin Sharq davlatlari ichida o'ziga xos mavqega beradi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, chet elda yashovchi Livanliklar o'z xalqining madaniyatini tarqatuvchi o'ziga xos elchilardek xizmat qiladilar va bu bo'yicha butun Arab dunyosida ajralib turadilar.

Ba'zi yondashuvlar kuchli tomonlarning zaiflikka aylanishini ham istisno etmaydi. Misol uchun, xilma-xillik jozibadorlik va kuch bo'lishi mumkin, lekin har doim tashqi siyosat haqida gap ketganda, xilma-xillik ichki yoriqlarga ham olib kelishi mumkin. Xuddi shunday, demokratiya avtokratik mintaqada avtokratik xalqlar tomonidan ekspluatatsiya qilinadigan zaiflikka aylanadi. Shunday qilib, muammo demokratik xilma-xillik va bag'rikenglik elementlarini qanday qabul qilish va ularni zaiflikdan kuchga aylantirishdir.

Bunday vazifa oson emas va tashqi ta'sirlar kirib bormasligi va bo'linishlarga olib kelmasligi uchun millat ichidagi yadroni mustahkamlashni talab qiladi. Livanda fuqarolik o'zligi tushunchasi yo'q degan bayonot, mazhablararo munosabatlarni va chet el kuchlariga bo'lgan sadoqatni yo'q qilish yo'lidagi ogohlantirish edi. Shu o'rinda Shveytsariya tajribasini ham ko'rib chiqishimiz mumkin: agar biz fuqarolik o'zligiga erishish va fuqarolarning huquqlarini ta'minlash zarurligini anglamasak, ularning chet el kuchlari bilan aloqalari va ularga bo'lgan sodiqliklari saqlanib qolaveradi. Fuqarolik o'zligiga fuqarolarning huquqlarini himoya qiladigan institutlarni qurish orqali amalga oshiriladi. Busiz tashqi siyosat haqida gapirish ortiqcha. Shveytsariya mamlakatga aylanishidan oldin, ayniqsa, qishloq joylarida o'z fuqarolarining huquqlarini ta'minlagan.

Shveytsariya birdamligi fuqaroning huquqlarini ta'minlashdan boshlandi¹⁰⁶”. Tashqi siyosatdagi birdamlik avvalambor ichki siyosatdagi birdamlikdan boshlanadi.

Qattiq kuch va uning tashqi siyosatga tasiri haqida o‘ylamaslik oqibati aniq. Axir, so‘nggi 50 yil ichida Livan o‘zining suverenitetining bir necha bor xavf ostida qolganini ko‘rgan va umuman milliy xavfsizlik pozitsiyasi zaifligi sababli tashqi xavflarga javob berishga qodir bo‘lmagan. Livan dala generallari ko‘pincha dushmanga qarshi kurashish uchun qo‘llariga quroldan ko‘ra ko‘proq telefon berilganidan shikoyat qilishgan. Ehtimol, faqat ikki davrda Livan haqiqiy harbiy kuchga ega bo‘lgan. Birinchisi, general Fuad Chehab prezidentligi davrida, betaraflikni tashqi siyosat sifatida qo‘llagan holda, ichki davlat xavfsizligini ilgari yoki undan keyin bo‘lmagan darajada mustahkamlashga muvaffaq bo‘ldi. Ikkinchi davr esa, Hizbulloh Livan hukumati kuchlari madadi bilan 2000-yilda Janubiy Livan yerlarini egallab turgan Isroil qo‘shinlari ustidan qozonilgan g‘alaba davridir. Garchi bu tashqi siyosiy betaraflik davri bo‘lmasa-da, Milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan va davlat va xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va Livan ichida nisbatan xotirjamlik davri o‘rnatilganligini anglatadi. Afsuski, bu ikki davr istisno edi. Livan mustaqilligidan keyingi boshqa davrlarning aksariyati milliy xavfsizlikning va har qanday qattiq kuchning yetishmasligi tufayli ichki yoki tashqi suverenitet buzilgan. Va har safar bu seysmik ichki va tashqi siyosat o‘zgarishlariga olib keldi. Masalan, sobiq Bosh vazir Rafiq Haririy 2005-yilda o‘ldirilganda, Suriya qo‘shinlarining mamlakatda mavjudligi tugagan. Yoki yaqinda Livan 2020 yil 4-avgustda Bayrut portining katta portlashi bilan, ayniqsa, Hizbulloh qurollari mavzusida jamiyatda bo‘linishlar paydo bo‘ldi. Livan tarixidagi bu voqealar beqarorlik davrlariga olib keldi. Qattiq kuch va milliy xavfsizlik masalalari sahna ortida davom etar ekan, Livan har qanday tashqi siyosat yo‘nalishi va har qanday ichki siyosiy

¹⁰⁶ Aram Nerguzian (2014) the struggle for the Levant: Geopolitical battles and quest for stability Center for strategic and International studies.

izchillikdan osonlikcha chetga chiqarib yuborilishi mumkin deb taxmin qilish kerak.

Aksariyat ekspertlar Livanga xalqaro hamjamiyatning xayrixohligini ta'minlash uchun yetarlicha yumshoq kuch berilganiga ishonib, hozirgi Livanda doimiy tashqi siyosatni o'rnatish uchun asosiy ichki omillar mavjud bo'lmasligi mumkin degan xulosaga kelishdi. Fuqarolarning huquqlari, ijtimoiy adolat, iqtisodiy rivojlanish va milliy xavfsizlikni o'z ichiga olgan ichki omillarning barchasi fuqarolarni milliy mansublik (fuqarolik) hissi bilan birlashtiradi, bu esa o'z navbatida millatning o'zi va dunyoda qayerga tegishli ekanligi haqidagi qarashni birlashtiradi va davlatga tashqi siyosiy nuqtai nazardan o'zi xohlagan narsaga erishishiga xizmat qiladi.

Livanda mamlakatni himoya qilish uchun mintaqaviy mojaralarda betaraflikka chaqirganlar ko'p. Ijobiy siyosiy betaraflik Livanga vositachi, sivilizatsiyalar uchun uchrashuv joyi, aloqa vositasi va aloqa nuqtasi bo'lishga imkon beradi, xuddi sovuq urush davrida Finlandiya va bugungi kunda Ummon kabi.

Boshqalar Livandagi hozirgi sharoitlarni hisobga olgan holda betaraflikni amaliy foydaga ega emas deb topdilar.

Betaraflik va Livan uchun kelajakdagi har qanday rolga kelsak, bugungi kunda betaraflik hech qaysi guruh tomonidan targ'ib qilinmayapti. Chunki bu borada ichki kelishuv mavjud emas va qo'shni davlatlar buni ma'qullamaydilar. Bundan tashqari, Livan hech qanday xalqaro himoya vositalariga ega bo'lmagani holda takroriy chaqiriqlar (tahdidlar) uni hayotiy loyihaga aylantirmaydi.

Tashqi siyosatda, ijobiy yoki faol betaraflikka kelsak, biz realist bo'lishimiz kerak: muhim davlatlar bugun NATOga (Finlyandiya) qo'shilish uchun betaraflikni tark etishmoqda va bugungi kunda tashqi dunyo Livanning betarafligini qabul qilishini kutish mumkin emas.

Amaliy nuqtai nazardan, betaraflik Livanda qisqa muddatda katta muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin bo'lgan siyosati

emasdir. Baʼzilar Hizbullohni betaraflikka erishish uchun asosiy toʻsiq sifatida biladilar. Bu haqiqat boʻlishi mumkin, ammo, tarixiy jihatdan, Hizbulloh mavjud boʻlishidan oldin ham, Livanda betaraflik imkonsiz edi. Chunki, 1930-yillarda Suriya natsionalistlari, 1950-yillarning Nosirchilar, 1960-yillarda soʻl qanot kommunistlari va 1970-yillarda oʻng qanot reaksionerlari jilovni ushlab turuvchi kuch edilar. Ularning har biri millatni partiyaviy siyosat yoʻnalishi boʻyicha olib borish uchun oʻz yoʻlida harakat qilishdi. Ularning har biri oʻz harakatlarida muvaffaqiyatsizlikka uchradi va bu xalqqa qimmatga tushdi.

Bu misollar betaraflik kabi siyosatning paydo boʻlishiga umumiy qarshilikni anglatadi. Xoʻsh, nima uchun oʻz tarixi davomida turli Livan guruhleri oʻz davlatlariga qarshi ishlash orqali oʻz manfaatlarini osonroq taʼminlash mumkin deb hisoblashgan? Livanning betarafligi, aslida mamlakat ichkarisidagi boshqa muhim talablar bilan toʻldirilishi kerakmi? Livan tarixidagi bir davr bu savollarga oydinlik kiritishi mumkin.

Livanning Oltin davridan ikki keys:

Livanning ikkinchi prezidenti Kamil Chamun va uning uchinchi prezidenti General Fuad Chehab prezidentlik davrlarini taqqoslaylik. Ikki davr ketma-ket boʻlib, ozmi-koʻpmi oʻxshash geosiyosiy va ichki sharoitlarga duch keldi. Ikkala rahbar ham davlatni sovuq urush avjida boshqargan. Ular faoliyat yuritgan Livan Konstitutsiyasi ham bir xil edi va ularning ixtiyoridagi Livan muassasalari va vositalari yetuk edi¹⁰⁷.

Samaradorlik nuqtai nazaridan ikkala rahbar ham davlat institutlarini yaratgan. Ikkala prezident davrida ham Livan iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan va oʻsib borayotgan deb hisoblana boshladi. Ammo, barcha oʻxshashliklarga qaramay, ikki prezidentdan birining muddati fuqarolik nizolari bilan, ikkinchisi esa ijobiy yakunlangan. Darhaqiqat, oltmish yildan koʻproq vaqt oʻtsa ham, bu ikki prezident davri hali ham

¹⁰⁷ Bülent Aras & Şaban Kardaş (2021) Geopolitics of the New Middle East: Perspectives from Inside and Outside, Journal of Balkan and Near Eastern Studies, 23:3, 397-402, DOI: 10.1080/19448953.2021.1888251

mustaqillikdan keyingi tarixdagi eng gullab-yashnagan ma'muriyat sifatida ko'rilmoqda.

Bir tomondan, prezident Chamounning vakolat muddati institutsional va iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Prezident bo'lishdan oldin Buyuk Britaniya va Birlashgan Millatlar tashkilotida elchi bo'lib ishlagan Chamoun geosiyosatni yaxshi bilgan va xalqaro doiralarda yaxshi tanilgan.

O'zining vakolat muddati davomida Livan xalqaro miqyosda obro'ga ega bo'ldi. Biroq, Chamoun davlatni G'arbga yo'naltirilgan kun tartibi bilan boshqarishni xohladi. Bu Livan jamiyatida jarlikning paydo bo'lishiga olib keldi. Jamiyatning katta qismi bu g'arblashtirish urinishini rad etdi va buning o'rniga Jamol Abdul Nosirning Pan-Arabizmi kabi harakatlarini tanladi. Chamoun ikkinchi muddatga saylanishini rad etish uchun qarama-qarshi Livan guruhleri qurol ko'tarib, qisqa muddatli nizo kelib chiqdi va Chamoun Eyzenxauer doktrinasida Amerika dengiz piyodalaridan yordam so'radi. Tez orada ular birinchi marta Bayrut qirg'oqlariga tushushdi. Afsuski, bu livanlik siyosatchi Livan guruhlariga qarshi xalqaro yordamni talab qilgan birinchi yoki oxirgi holat bo'lmaydi. Bu uning prezidentlik davridagi qora dog' edi.

Chamounning tashqi siyosatga yondashuvi uning vorisi General Fuad Chehabnikidan keskin farq qiladi. Fuad Chehab har qanday G'arb yoki Arab ittifoqlaridan voz kechib, ancha neytral tashqi siyosat pozitsiyasini egalladi. Uning ushbu siyosatga sodiqligi shunchalik qattiq ediki, olti yillik muddati davomida Chehab dunyoning har qaysi nuqtasiga sayohat qilishdan bosh tortdi. Aytish joizki, u nihoyat o'zining qudratli misrlik hamkasbi prezident Jamol Abdul Nosir bilan uchrashganida, Chehab o'zining xolis pozitsiyasini saqlab qolish uchun uchrashuv Livan-Suriya chegarasida harbiy chodirda bo'lib o'tdi.

Nosir va Livan prezidenti Fouad Chehab hurmat qilingan rasmiyatchiliklarni bayon qildilar, Livanning suverenitetini hurmat qilish, Livan siyosatining na Arablar siyosatiga va na xalqaro huquqqa zid kelmasligi, shu bilan birga Livan o'zining

dunyoning boshqa qismlari bilan bo'lgan munosabatlariga futur yetkazmagan holda Birlashgan Arab respublikasi bilan yaxshi aloqalarni saqlab qolishi bayon etildi.

Chehabning prezidentligi nafaqat neytral tashqi siyosati bilan, balki eng muhimi, ijtimoiy ta'minot kabi davlat institutlarining barpo etilishi, ayniqsa kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan Beqaa vodiysi va butun mamlakat bo'ylab iqtisodiy rivojlanish yo'lidagi harakatlar tahsinga sazovordir. Albatta, Chehabning vakolat muddati haqida kamroq eslatib o'tiladigan va bir vaqtning o'zida tanqid qilingan omil bu uning rahbarligi ostida davlat harbiy xavfsizlik apparati mamlakatning qattiq kuchining cho'qqisiga erishdi¹⁰⁸.

Shuning uchun Chehabning maqsadlari ko'p qirrali edi deyishimiz mumkin. Ular milliy birlikni saqlash, muvozanatli tashqi siyosat, ijtimoiy adolat, iqtisodiy mustaqillik va rivojlanishni rejalashtirish orqali Livan mustaqilligi va suverenitetini himoya qilish kabilarni o'z ichiga olardi.

Yuqoridagi qiyoslash ikkita asosiy xulosani yuzaga chiqaradi. Birinchisi, ichki dinamikaga zid bo'lgan tashqi siyosat mojaroga olib kelishi mumkin. Ikkinchi nuqta shundaki, millatni barqarorlashtirish uchun faqat tashqi siyosat yetarli emas. Fuqarolar huquqlari, ijtimoiy adolat, iqtisodiy rivojlanish, institutsional yetuklik, shuningdek, milliy xavfsizlik kabi boshqa muhim omillarni ham hisobga olish kerak. Aslida, odamlar o'zlari va jamoalari millat uchun hisobdor ekanligini his qilishdan oldin, butun xalq ular uchun hisobdor ekanligini his qilishlari kerak.

Britannica ensiklopediyasi tashqi siyosatni bir davlatning boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarida faoliyati va munosabatlarini boshqaradigan umumiy maqsadlar deya ta'riflaydi. Tashqi siyosatning rivojlanishiga ichki mulohazalar,

¹⁰⁸ Mona Yacoubian (2021) Lebanon:Assesing political paralysis, economic crisis and challenges for U.S policy. Retrived from: <https://www.usip.org/publications/2021/07/lebanon-assessing-political-paralysis-economic-crisis-and-challenges-us-policy> (Ma'lumot olingan sana: 21.12.2024)

boshqa davlatlarning siyosati yoki xatti-harakatlari yoki aniq geosiyosiy rejalarni ilgari surish ta'sir qiladi. Leopold fon Ranke tashqi siyosatni shakllantirishda geografiya va tashqi tahdidlarning ustuvorligini ta'kidladi, ammo keyinchalik mutaxassislar ichki omillarni alohida ta'kidladilar. Livandagi tashqi siyosat ushbu ta'rifga tarixiy va amaliy jihatdan Livan tashqi siyosatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatgan tashqi omillar va ichki omillar bilan mos keldi.

Livanning tarixiy tashqi siyosati yo'nalishini tahlil qilishda quyidagilarni ham hisobga olishimiz kerak:

- Livanning zamonaviy tarixida mavjud bo'lgan xorijiy tahdidlar va asoratlar;

- Milliy xavfsizlik holati xorijiy va nodavlat aktorlarga milliy suverenitetni yo'qotish darajasiga tushib qoldi;

- Mazhabparastlikdan kelib chiqadigan ichki beqarorlashtiruvchi omillar;

- Ba'zida yechimlardan ko'ra ko'proq qarama-qarshiliklarni beradigan Konstitutsiya;

- Fuqarolar huquqlarining cheklanganligi, ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlik kabi omillar yetishmasligi¹⁰⁹.

Yuqoridagi omillarning barchasi, Livan davlatini hozirgi iqtisodiy-siyosiy inqiroz yoqasiga olib borib qo'ydi. Agar biz turli xil prezidentlik muddatlarining muvaffaqiyatini o'lchasak, Chehabning tashqi siyosati muvaffaqiyatli bo'ldi. Chamounning neytral bo'lmagan tashqi siyosatini tarqatdi va natijalari aralash edi. Holbuki, Aunning prezidentlik muddati davrida avvalgilaridek ko'p qirrali strategiyalarga tayangan tashqi siyosat yuritmadi.

Livandagi dalillar shuni ko'rsatadiki, tashqi va ichki siyosat o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud, ya'ni beqaror ichki sharoit beqaror xorijiy elementlarni kuchaytirishi mumkin va aksincha beqaror tashqi siyosat beqaror ichki vaziyatni yuzaga keltirishi mumkin. Prezidentlik muddatlarini taqqoslash tashqi siyosatning

¹⁰⁹ Aram Nerguzian (2014) the struggle for the Levant: Geopolitical battles and quest for stability Center for strategic and International studies.

o'zi Livandagi beqarorlikni to'xtatish uchun yetarli bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkinligiga dalil bo'lib xizmat qiladi. Aksincha, ularni ichki siyosatni barqarorlashtirish bilan to'ldirish kerak. Chehabning betarafligi faqat milliy xavfsizlik, ijtimoiy adolat va iqtisodiy rivojlanish bilan to'ldirilganligi sababli muvaffaqiyatga erishgan bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Livanning tashqi siyosiy qarorlari konstitutsiyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, sud va milliy xavfsizlik masalalarini o'z ichiga olgan bir-birini to'ldiruvchi ichki siyosat omillarni ham hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak. Bir nechta ishtirokchilar tomonidan zarur deb ifodalangan fuqarolik o'zligini faqat fuqarolarning teng huquqlari ta'minlanishi orqali amalga oshirish mumkin. Shundagina tashqi siyosat aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Betaraflik siyosatiga kelsak, u o'tmishda Livanda ish bergani holda hozirgi davrda samara ehtimoli turli ichki va tashqi omillar tufayli o'ta pastdir.

XULOSA

Livan Respublikasi, o'zining murakkab tarixiy va ijtimoiy-siyosiy tuzilishi bilan Yaqin Sharq davlatlari orasida alohida o'rin tutadi. Bu davlat uzoq yillar davomida etnik, diniy va siyosiy mojarolar girdobida yashab kelmoqda. Monografiya, Livanning siyosiy inqirozini tahlil qilish orqali, uning asosiy omillarini ochib beradi va mintaqaviy hamda xalqaro ta'sirini yoritadi. Shu bilan birga, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy muammolari ham alohida ko'rib chiqilgan holda quyidagi umumiy xulosalarni keltirish mumkin bo'ladi:

Birinchidan, Livan siyosiy tizimi o'ziga xos konfessionalizm modeli asosida tashkil etilgan. Bu tizim, turli diniy guruhlar o'rtasida siyosiy hokimiyatni taqsimlashni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan o'zining zaifliklarini namoyon qildi. Ushbu model, bir tomondan, millatlararo barqarorlikni ta'minlashga harakat qilgan bo'lsa, boshqa tomondan, ichki nizolar va tashqi ta'sirlarga qarshi zaifligini ko'rsatdi. Natijada, mamlakat doimiy siyosiy inqirozlarga duch kelmoqda.

Ikkinchidan, 1975-1990-yillarda sodir bo'lgan fuqarolar urushi va uning oqibatlari mamlakatdagi diniy va etnik bo'linishlarni yanada chuqurlashtirdi. Bu urush nafaqat davlatning siyosiy barqarorligiga, balki uning iqtisodiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2005-yilda sobiq bosh vazir Rafiq Haririy o'ldirilishi, mamlakatdagi siyosiy inqirozni kuchaytirib, Livanning turli siyosiy guruhleri o'rtasida yangi mojaroning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Uchinchidan, Livan iqtisodiyotining holati davom etayotgan siyosiy beqarorlik, tashqi qarzlarning o'sishi va ichki iqtisodiy muammolar tufayli jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu iqtisodiy muammolar, o'z navbatida, Livan aholisi o'rtasida ishsizlik darajasining oshishi, ijtimoiy himoya tizimlarining zaiflashuvi va umuman yashash darajasining pasayishiga olib kelmoqda.

To'rtinchidan, Livandagi ijtimoiy muammolar, jumladan, diniy guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, davlat boshqaruvida vakillikning notekisligi, korrupsiya va ijtimoiy tengsizliklar mamlakatni yanada qiyin ahvolga solmoqda. Ushbu muammolar ijtimoiy barqarorlikka tahdid solib, fuqarolar o'rtasidagi ishonchning pasayishiga olib kelmoqda.

Beshinchidan, zamonaviy Livandagi Hizbulloh harakatining siyosiy tizimdagi ta'siri mamlakatdagi ichki ziddiyatlarni kuchaytirdi. Hizbullohning siyosiy sahnadagi roli, turli etnik va diniy guruhlar o'rtasidagi nizolarni yanada kuchaytirib, siyosiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Oltinchidan, Livan siyosiy inqirozining mintaqaviy va xalqaro ta'siri sezilarli darajada bo'lib, mamlakatning geografik joylashuvi va mintaqaviy siyosatda tutgan o'rni xalqaro kuchlar tomonidan diqqat bilan kuzatilmoqda. Bu omillar siyosiy inqirozni hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yettinchidan, Livan iqtisodiy islohotlari va kelajakdagi barqarorlik yo'llari muhokama qilinib, mamlakatdagi iqtisodiy tuzilmani qayta ko'rib chiqish, yangi investitsiyalar jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat boshqaruvi tizimida shaffoflikni oshirish ham muhim chora-tadbirlar sifatida ko'rsatiladi.

Umuman olganda, ushbu monografiya Livan siyosiy inqirozining sabablarini va uning salbiy oqibatlarini tushunishga yordam beruvchi muhim ilmiy tadqiqot bo'lib, mamlakatning kelajakda barqarorlikka erishishi uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerakligini ko'rsatib beradi. Ushbu tadqiqot, Livan uchun nafaqat muhim, balki mintaqadagi boshqa davlatlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin, chunki Livan tajribasi, ko'p millatli va ko'p dinli davlatlar uchun dars saboq bo'lishi mumkin.

GLOSSARIY

Siyosiy inqiroz – Davlatda siyosiy tizimning barqarorlikdan chiqishi va muvozanatni yo‘qotishi holati.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar – Jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy strukturasini shakllantiruvchi sabablar va shart-sharoitlar.

Konfessionalizm – Siyosiy hokimiyatni diniy jamoalarga taqsimlash tizimi.

Etno-sektarianizm – Etnik va diniy guruhlarining bir-biriga qarshi pozitsiyalari va raqobati.

Hizbulloh – Livandagi shia musulmonlarning siyosiy va harbiy tashkiloti.

Iqtisodiy izchillik – Iqtisodiy faoliyatning barqaror va izchil rivojlanishi.

G‘arbiy olam – Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarini o‘z ichiga olgan siyosiy-madaniy tushuncha.

Mintaqaviy ta’sirlar – Geografik yaqinlikdagi davlatlarning siyosiy va iqtisodiy ta’siri.

Ichki siyosiy raqobat – Davlat ichidagi turli siyosiy kuchlar va guruhlar o‘rtasidagi raqobat.

Xalqaro aktorlar – Global siyosiy sahnada faoliyat yurituvchi davlatlar va tashkilotlar.

Ijtimoiy qatlam – Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asosda bo‘lingan guruhleri.

Ishsizlik – Ishchi kuchining bir qismi bo‘sh qolishi, ya'ni ish topa olmasligi holati.

Milliy birdamlik hukumati – Barcha asosiy siyosiy guruhlar va partiyalarni o‘z ichiga olgan koalitsion hukumat.

Moliyaviy beqarorlik – Davlatning iqtisodiy tizimi yoki moliyaviy bozorlaridagi o‘zgaruvchanlik va barqarorsizlik.

Diniy nizolar – Turli diniy guruhlar o‘rtasida yuzaga keladigan mojarolar.

Demografik o‘zgarishlar – Aholining soni, tarkibi va hududiy joylashishidagi o‘zgarishlar.

Migratsiya – Aholining boshqa hududga yoki davlatga ko‘chishi.

Fuqarolik jamiyati – Davlatdan mustaqil faoliyat yurituvchi tashkilotlar, guruhlar va harakatlar.

Milliy xavfsizlik – Davlatning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini ta’minlash choralari.

Xorijiy yordam – Bir davlat tomonidan boshqasiga ko‘rsatiladigan iqtisodiy, texnik yoki harbiy yordam.

Geosiyosat – Geografik omillar siyosiy qarorlar va davlatlarning xalqaro siyosatiga ta’siri.

Barqarorlik – Davlat yoki jamiyatning ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mustahkamligi.

Xususiy sektor – Davlatga qarashli bo‘lmagan, xususiy shaxslar yoki kompaniyalar tomonidan boshqariladigan iqtisodiy soha.

Jamoatchilik fikri – Jamiyat a’zolarining muayyan masala yoki muammoga bo‘lgan munosabati.

Siyosiy o‘zgarishlar – Davlat siyosiy tizimidagi transformatsiyalar va evolyutsiya.

Globalashuv – Xalqaro miqyosda iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiyaning kuchayishi.

Ijtimoiy muammolar – Jamiyatda mavjud bo‘lgan va ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi muammolar.

Milliy identifikatsiya – Davlat yoki millat bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy yoki jamoaviy identitet.

Gumanitar inqiroz – Fuqarolik urushi, tabiiy ofatlar yoki iqtisodiy kollaps natijasida yuzaga keladigan jiddiy insoniy azob-uqubatlar holati.

Ichki nizolar – Davlat ichidagi turli guruhlar o‘rtasidagi qurolli yoki siyosiy ziddiyatlar.

Siyosiy fraktsiyalar – Siyosiy partiya ichidagi guruhlar yoki qanotlar.

Terrorizm – Siyosiy maqsadlar uchun qurolli kuch ishlatish orqali qo‘rquv solish.

Etnik to‘qnashuvlar – Etnik guruhlar o‘rtasida yuz beradigan mojarolar.

Davlat qarzi – Davlatning ichki va tashqi manbalardan olingan qarzlar.

Inson huquqlari – Har bir shaxsning erkin va adolatli hayot kechirishini ta‘minlash uchun belgilangan huquqlar.

Siyosiy barqarorlik – Davlatning siyosiy tizimi va institutlarining doimiyligi va barqarorligi.

Qurolli kuchlar – Davlatning harbiy tuzilmalari.

Bankrotlik – Korxona yoki shaxsning o‘z moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasligi holati.

Ijtimoiy himoya – Aholining eng zaif qatlamlarini himoya qilish uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan yordam choralari.

Xalqaro moliya institutlari – Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi kabi xalqaro moliyaviy tashkilotlar.

Siyosiy partiyalar – Muayyan siyosiy maqsadlar uchun birlashgan guruhlar.

Milliy valyuta – Davlatning rasmiy pul birligi.

Soliq tizimi – Davlatning soliqlarni belgilash va yig‘ish usuli.

Qurolli nizolar – Davlat yoki guruhlar o‘rtasidagi qurolli to‘qnashuvlar.

Diplomatik aloqalar – Davlatlar o‘rtasida o‘rnatilgan rasmiy siyosiy munosabatlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Lebanese central bank effectively ends fuel subsidy”. *Reuters*. 11 August 2021. <https://www.reuters.com/world/middle-east/lebanese-cbank-says-can-no-longer-subsidise-fuel-report-2021-08-11/> (Ma’lumot olingan sana 10.01.2025).
2. “Lebanon – The World Factbook”. Central Intelligence Agency, United States <https://www.cia.gov/the-world-factbook/countries/lebanon/> (Ma’lumot olingan sana: 02.01.2025)
3. “Lebanon banks to close as violent raids by depositors multiply”. <https://www.thenationalnews.com/mena/lebanon/2022/09/16/lebanon-banks-to-close-as-branches-stormed-by-depositors-demanding-savings/> (Ma’lumot olingan sana 10.01.2025).
4. “Saturday's live coverage of the war in Lebanon”. https://en.wikipedia.org/wiki/Ya_Libnan (Ma’lumot olingan sana 10.01.2025)
5. “Who’s who in Lebanon”. *BBC News*. http://news.bbc.co.uk/2/hi/middle_east/4348129.stm (Ma’lumot olingan sana: 21.12.2024)
6. Abdulhalük Çay, *Her Yönüyle Kürt Dosyası*, Ankara, 1993. – S. 464.
7. Abqarius, Iskandar Ya`qub, *Nawadir al-Zaman fi Waqa’i` Jabal Lubnaa* (London: Riad el-Rayyes Books, 1987).
8. Adam Shatz (29 April 2004). ["In Search of Hezbollah". *The New York Review of Books*](#). Archived from [the original](#) on 22 August 2006
9. Akbar Khan, Han Zhaoying; Iran-Hezbollah alliance reconsidered: What contributes to the survival of State-proxy alliance? ; *Journal of Asian security and international affairs*, vol.7, No. (2020), pp. 101-123
10. Alagha, JE. 2006 .*The Shifts in Hizbullah's Ideology: Religious Ideology, Political Ideology, and Political Program*, *Isim Dissertations*, Leiden: Amsterdam University Press .

- 11.Alok Bansal, “Factors Leading to Insurgency in Balochistan”, *Small Wars & Insurgencies*, Vol.: 19, No: 2, 2008. – P. 185-189.
- 12.Al-Solh, Raghid. *The Politics of Sectarianism in Postwar Lebanon*. Ithaca Press, 1997.
- 13.Anderson, B. (2016 [1983]). *Imagined Communities. Reflections on the Origin and Spread of Nationalism*. Verso.
- 14.Anderson, L. (2013). *The State and Social Change in the Middle East*. Princeton University Press – 75-90 pp.
- 15.Anziska, Seth (2019-08-28), "[Arab-Israeli Wars and US Foreign Relations](#)", *Oxford Research Encyclopedia of American History*, Oxford University Press, [doi:10.1093/acrefore/9780199329175.013.756](#), [ISBN 978-0-19-932917-5](#)
- 16.Aram Nerguzian (2014) *the struggle for the Levant: Geopolitical battles and quest for stability* Center for strategic and International studies.
- 17.Arnav Mariwala, *The Syrian Civil War, Regime of Bashar Al-Assad*. Stanford Model United Nations Conference 2014. – P. 6-10.
- 18.BBC News, *Isis rebels declare 'Islamic state' in Iraq and Syria*, 30 June 2014.
- 19.Beinin, Joel (January 1993). "[Money, Media and Policy Consensus: The Washington Institute for near East Policy](#)". *Middle East Report* (180): 10-15. [doi:10.2307/3013225](#). [ISSN 0899-2851](#). [JSTOR 3013225](#).
- 20.Beydoun, A. (2016). *Al-Rabî‘ Al-Fâ’it [The Missed Spring: The Plight of Homelands]*. Arab Center for Research & Policy Studies. Page 87
- 21.Bilgehan A. Gökdağ and M. Rıza Heyet, *Iranian Turks’ Identity Problem (İran Türklerinde Kimlik Meselesi)*. Bilig, Summer / 2004, No 30: 51-84.
- 22.Binder, Leonard (ed.), *Politics in Lebanon* (New York: Wiley, 1968).

23. Blaga Rafael, *İran Halkları El Kitabı*. İstanbul, 1997. – S. 272.

24. Bülent Aras & Şaban Kardaş (2021) Geopolitics of the New Middle East: Perspectives from Inside and Outside, *Journal of Balkan and Near Eastern Studies*, 23:3, 397-402, DOI: 10.1080/19448953.2021.1888251

25. Carla E. Humud and others, *Armed Conflict in Syria: Overview and U.S. Response*. Congressional Research Service, March 25, 2019. – P. 2.

26. Charaf, G. (2009). Communautés et État, communautés dans l'État – le cas du Liban. In L. Trócsányi and L. Congnard (eds), *Statut et protection des minorités: exemples en Europe occidentale et centrale ainsi que dans les pays méditerranéens* (pp. 267– 325). Établissements Émile Bruylant. Page 272

27. Cleveland, W. L., & Bunton, M. (2016). *A History of the Modern Middle East*. Westview Press. – P. 110-115

28. Corm, G. (1998). Histoire du pluralisme religieux dans le bassin méditerranéen. Approche juridique et sociologique comparée. Librairie Orientaliste Paul Geuthner. Page 278

29. Dagher, G. (2008). Radicalisation de l'identité confessionnelle au Liban. In H. Bresc, G. Dagher, and Ch. Veauvy (eds), *Politique et Religion en Méditerranée: moyen âge et époque contemporaine* (pp. 321–331). Éditions Bouchène. page 327

30. Edyt Dickstein, Is Israel deterring Hezbollah? *Harvard international review*, vol.38, No.2 (2017), pp. 8-9

31. Encyclopaedia Britannica, Iran-Iraq War, 15 September 2018 // <https://www.britannica.com/event/Iran-Iraq-War>

32. Fred H. Lawson Syria's intervention in the Lebanese civil war, 1976: A Domestic conflict explanation, *International organization*, Vol.38, No.3 (Summer 1984), pp.451-480.

33. Gelvin, J. L. (2015). *The Modern Middle East: A History*. Oxford University Press. – 300-320 pp.

34. Gerges, Fawaz. *The New Middle East: The World After the Arab Spring*. Cambridge University Press, 2014.

35.Gordon, David, Lebanon: The Fragmented Nation (London: Croom Helm, 1980)

36.Grey, I., Thomas, J., Mansour Jamaledine, J., Yaktine, T., & Cheung Chung, M. (2024). Religious coping and levels of posttraumatic stress disorder symptomatology after the Beirut explosion. *Psychological Trauma: Theory, Research, Practice, and Policy*, 16(1), 39–48. <https://doi.org/10.1037/tra0001529>

37.Guardian (The), Obama: “We don't have a strategy yet” to combat Isis militants, 28 August 2014; US, CRS, The “Islamic State” Crisis and U.S. Policy, 22 October 2014.

38.Guardian (The), The Iraq legacy: the awakening, 21 March 2008.

39.Hakan Boz, “Belucistan, Orta Asya’nın Kürdistan’ı Mı?”, 21. Yüzyıl Dergisi, No. 36, Aralık 2011. - S. 55.

40.Haydar Gölbaşı, “Modernleşmeyi Engelleyen Arkaik Bir Çatışma Sorunu: Alevi-Sünni Çatışmasının Arka Planı” C.Ü. İktisadi ve İdari Bilimler Dergisi, Cilt 9, Sayı:1, 2008. S. 50-51.

41.Hinnebusch, R. (2003). *The International Politics of the Middle East*. Manchester University Press. – P. 230-245

42.Hirst, David (2010). *Beware of small states: Lebanon, battleground of the Middle East*. London: Faber and Faber. ISBN 978-0-571-23741-8.

43.Hobsbawm, Eric J. (1992 [1990]). *Nations and Nationalism Since 1780: Programme, Myth, Reality*. Cambridge University Press.

44.Hourani, A. (2002). *A History of the Arab Peoples*. Harvard University Press. – 125-140 pp.

45.HRW, *Endless Torment: The 1991 Uprising in Iraq and its Aftermath*, June 1992 // <https://www.hrw.org/legacy/reports/1992/Iraq926.htm>

46.İsmail Hakkı Uzunçarşılı, *Osmanlı Tarihi*, II. Cilt. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 1998, s. 344.

47.J.Robert Kane, *A life cycle analysis of Hezbollah: Where the group came from and where it is going*, American Intelligence

Journal, vol.35,No.2, counterintelligence and the insider threat (2018). pp.67-73.

48.Jamie Prentis. Lebanon set to enter 2024 without a president as deadlock persists <https://www.thenationalnews.com/mena/lebanon/2023/12/21/lebanon-set-to-enter-2024-without-a-president-as-deadlock-persists/> (Ma'lumot olingan sana: 10.01.2025.)

49.Joseph Chamie 1976/77 World affairs journal vol.139, No3 pp.171-188, The Lebanese civil war: an investigation into the causes

50.Kamrava, M. (2013). The Modern Middle East: A Political History. University of California Press. – 200-215 pp.

51.Kendall Bianchi, How Hezbollah uses dreams to inspire jihad and sanctify martyrdom; Perspectives on terrorism, vol.12, No.3(june2018), pp. 67-73.

52.Khalidy, Tarif (ed.), Land Tenure and Social Transformation in the Middle East(Beirut: American University of Beirut, 1984

53.Kristen E.Schulze Israeli crisis decision making in the Lebanon war: Group madness or individual ambition? Indiana University press vol.3. No.2. Law and the transformation of the Israeli Society (Fall,1998), pp.215-237 (23 pages).

54.Livan Respublikasi Konstitutsiyasi <https://www.presidency.gov.lb/English/LebaneseSystem/Documents/Lebanese%20Constitution.pdf> (Ma'lumot olingan sana: 10.01.2025)

55.Lucy Fielder (23-29 June 2011). "Trial by fire for Lebanon's government". Al Ahram Weekly (1053) <http://weekly.ahram.org.eg/2011/1053/re7.htm>

56.Martin Van Bruinessen, Kürtlük, Türklük, Alevilik-Etnik ve Dinsel Kimlik Mücadeleleri, çev. Hakan Yurdakul. İstanbul: İletişim Yayınları, 8. Baskı, 2009. – P. 119-121.

57.Méouchy, N. (2004). Le Pacte national 1943–1946. Les ambiguïtés d'un temps politique d'exception. In G. D. Khoury (ed.), Sélim Takla 1895–1945. Une contribution à l'indépendance

du Liban (pp. 461–500). Éditions Karthala / Dar An-Nahar page 472

58. Michael C. Hudson Middle East Journal, vol.32, No 3 pp.261-278: The Palestinian factor in the Lebanese civil war.

59. Mitchell, R. (1991). The Society of the Middle East. Routledge. – 50-65 pp

60. Mona Yacoubian (2021) Lebanon: Assessing political paralysis, economic crisis and challenges for U.S policy. Retrived from: <https://www.usip.org/publications/2021/07/lebanon-assessing-political-paralysis-economic-crisis-and-challenges-us-policy> (Ma'lumot olingan sana: 21.12.2024)

61. Mona Yacoubian (2021) Lebanon: Assessing political paralysis, economic crisis and challenges for U.S policy. Retrived from: <https://www.usip.org/publications/2021/07/lebanon-assessing-political-paralysis-economic-crisis-and-challenges-us-policy> (Ma'lumot olingan sana: 21.12.2024)

62. Mordechai Nisan. *Minorities in the Middle East: a history of struggle and self-expression*. McFarland, 2002. [ISBN 0-7864-1375-1](#), [ISBN 978-0-7864-1375-1](#)

63. Muadth Malley The Lebanese civil war and the Taif accord: conflict and compromise engendered by institutionalized Sectarianism, The history teacher, vol.52, No.1 (November 2018), pp. 121-159.

64. Muhammed Saleem Mazhar and others, “Balochistan: From Strategic Significance to US Involvement”, Journal of Political Studies, Vol.: 19, 2012. – P. 113.

65. N. Shehadi (eds), Lebanon: A History of Conflict and Concensus (Oxford and New York: Centre for Lebanon Studies and I.B. Tauris, 1988).

66. Norton, AR. 2006. “The Peacekeeping Challenge in Lebanon”. *The MIT Electronic Journal of Middle East Studies*, 6 : 76 – 9. [http://web.mit.edu/cis/www/mitejmes/\(open in a new window\)](http://web.mit.edu/cis/www/mitejmes/(open_in_a_new_window))

67. Ondřej Dočkal, Current Crisis in Syria. Model NATO, AMO Research Center, 2012. – P.2.

68. Political Society in Lebanon – A Historical Introduction (Oxford: Centre for Lebanese Studies, 1986).

69. Randall, Jonathan, Going All the Way: Christian Warlords, Israeli Adventurers and the War in Lebanon (New York: Random House, 1984)

70. Religious Composition by Country, 2010-2050 <https://www.pewresearch.org/religion/feature/religious-composition-by-country-2010-2050/> (Ma'lumot olingan sana: 21.12.2024)

71. Rodenbeck, M. 2007. "Lebanon's Agony". In *New York Review of Books* 54, no. 11 [http://www.nybooks.com/articles/20311\(open in a new window\)](http://www.nybooks.com/articles/20311(open%20in%20a%20new%20window))

72. Rondot, P. (1979). Les communautés dans l'État libanais. Les Cahiers de l'association France Nouveau Liban, No 4. (1947). Les institutions politiques du Liban. Des communautés traditionnelles à l'État moderne. Institut d'Études de l'Orient Contemporain.

73. S. Shamir Hasan, Israel and Hezbollah; Proceedings of the Indian History congress, vol.79 (2018-19), pp 713-718.

74. Saas Eddin Ibrahim. Sects, Ethnicity, and Minority Groups in the Arab World (in Arabic), Cairo: Ibn Khaldoun Center, 1994. – pp.15-18.

75. Salibi, K. (2002 [1988]). A House of Many Mansions. The History of Lebanon Reconsidered. I.B. Taurus.

76. Samir Maksidi, Richard Sadaka: The Lebanese civil war, 1975-90, Understanding civil war: evidence and analysis, World Bank

77. Saraçlı Murat, Minorities in Iran (İran'da Azinliklar). P. 15-16 // http://www.akademikortadogu.com/belge/ortadogu4%20makale/murat_saraccli.pdf

78. Sayigh, Y. (2007). The Struggle for Palestine. Oxford University Press. – 200-215 pp.

79. Shirin Jaafari (22 November 2021). "Lebanon's electricity crisis means life under candlelight for some, profits for others"

80.USDOS, Country Reports on Human Rights Practices for 2002 – Iraq, 31 March 2003.

81.HRW, Iraq and Iraqi Kurdistan – 2002 // <https://www.hrw.org/legacy/wr2k2/mena4.html>

82.USDOS, Country Reports on Human Rights Practices for 2007 – Iraq, 11 March 2008.

83.W. Jwaideh, The Kurdish National Movement. Its Origins and Developments, Syracuse University Press, New York, 2006, pp. 75-101.

84.Камраков А.А. Этноконфессиональные меньшинства в политическом процессе Большого Ближнего Востока: особенности институционального развития и диаспоральной деятельности. Дисс. к.п.н. Нижний Новгород, 2009. – С. 19.

85.Каримов Ф.Э. Яқин Шарқдаги этносиёсий муаммолар ва минтақавий хавфсизлик масалалари. Монография. – “Sharq” нашриёти; ТошДШИ, 2016. – 224 б.

86.Каримов Ф.Э. Яқин Шарқда этник курдлар муаммоси. Монография. – Т.: “LESSON PRESS” нашриёти; А.Авлоний номидаги ХТТРМХҚТМОИ, 2020. – 223 б.

87. Хошави Бабакр, Курдистан: перспективы курдской государственности, Курдский вопрос на рубеже тысячелетий (круглый стол).

**KARIMOV FARXOD ERKINOVICH,
MIRZOXIDOV ULUG‘BEK RASUL O‘G‘LI**

**LIVAN RESPUBLIKASINING SIYOSIY
INQIROZI:
IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI**

Monografiya

Ma’sul muxarrir: Mansur YUNUS
filologiya fanlari doktori.
Tex. Muharrir: N.Irgasheva
Sahifalovchi: E.Otamurodova



Litsenziya AI № 032465 / 15.07.2022
Bosishga ruxsat etildi: 03.04.2025 Ofset qog‘oz.
Qog‘oz bichimi 64x84 1/16 Times garniturası. Shartli bosma
tobog‘i 7.25 Nashr hisob tobog‘i 6,74. Adadi 50

«ZAMON POLIGRAF» OK
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Bobodehqon mahallasi, 45 uy.